

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR  
AKADEMIYASI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI  
AL XORAZMIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADAMIN ESHMURODOV  
ISROIL ELMURODOV**

**X-XII ASRLAR XORAZM MADANIYATI  
YOQUT AL HAMAVIY  
TALQINIDA**

**Хоразм – 2024**

**UO'K 254.2-24**

**KBK 86-33**

**E 99**

Madamin Eshmurodov. Isroil Elmurodov. [Matn]: “X-XII asrlar Xorazm madaniyati Yoqut al Hamaviy talqinida”. M.Eshmurodov, I.Elmurodov. Xorazm: Ogahiy nashriyoti, 2024-yil. 152 b.

## **2- нашр**

*Risola Xorazm Ma'mun akademiyasining  
1000 yilligiga bagishlanadi*

Mas'ul muharrir:

*prof. H. Abdullaev*

Taqrizchilar:

*prof. M. Is'hoqov.*

*prof. J. Yusupov*

*Risola UrDU Ilmiy kengashi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan.*

*(Bayonnomma №2, 10-oktabr 2005-yil)*

**ISBN 978-9910-9446-0-4**

©M. Eshmurodov, I. Elmurodov, “X-XII asrlar Xorazm madaniyati Yoqut al Hamaviy talqinida”.

© Ogahiy nashriyoti, 2024 yil.



## ***Muharrirdan***

Xorazm dunyoning eng qadimiy va uzoq tarixga ega mamlakatlaridan biri ekanligi allaqachon fanda e'tirof etilgan. Bu tarixni o'rganish, uning ochiq sahifalarini to'ldirish bo'yicha mamlakatimizda va xorijda ancha ishlar qilindi. Xususan, mustaqillik yillarida Xorazmning milodgacha bo'lgan va ilk o'rta asrlardagi tarixini chuqur tadqiq etishga e'tibor qaratildi. "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorligining chop qilinishi va o'rganishga kirishilganligi bu xayrli izlanishlardan biri bo'ldi. Keyingi davrda ham bu izlanishlarning davom etayotganligi quvonchlidir. Bunda Xorazmning X-XII asrlardagi ijtimoiy-madaniy hayotiga doir birlamchi manbalarning o'rni alohidadir. Yosh izlanuvchan olimlar I.Elmurodov va M.Eshmurodovlarning ushbu risolasi shunday noyob manbalardan biri Yoqt al Hamaviy hayoti va ijodiga oid merosdan bahs etadi.

To'g'ri, Hamaviy ijodiga respublikamizda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab qiziqish boshlandi, o'zbek tilida qator risola va maqolalar paydo bo'ldi. Lekin ularda bu mavzu ko'lamdor yoritilmagan edi. Buni hisobga olgan ushbu kitob mualliflari Hamaviy hayoti va ijodiga oid manba va

ma'lumotlarni kengaytirib, talqinni chuqur-lashtirishga, ayrim masalalarga aniqlik kiritishga erishganlar, "Mu'jam ul udabo" asarini atroflicha qiyoslab tahlil etganlar. Jumladan, asarda Xorazm olimlari va allomalari haqidagi ma'lumotlar ancha boy va ishonchli bo'lib, mavjud tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning yana bir fazilati shundaki, unda Hamaviyning Xorazmga kelish va ketish sabablari hamda yashash muddatlari xususidagi turlicha qarashlarga aniqlik kiritilgan va asosiy diqqat Xorazmlik 21 nafar shoir va allomalarining badiiy va ilmiy ijodlarini yoritishga qaratilgan. Abu Bakr al Barqoniy, Abu Bakr al Xorazmiy, Abu Abdulloh al Qulsuliy, Ahmad ibn Muhammad al Beruniy, Ahmad ibn Ibrohim al Adibiy, az Zamaxshariy va boshqalar haqidagi ma'lumotlar har jihatdan asosli va qiziqarli yoritilgan.

Risolada "Mu'jam ul-udabo" tahlili asosida Ma'mun akademiyasi bilan bevosita va bilvosita aloqador allomalar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgani alohida qayd etiladi. Bunda Beruniydan tashqari Ma'mun saroyida vazirlik vazifasidagi Ahmad ibn Muhammad al Husayn as Suhayliy, shuningdek, Abu Saxl Nasihiy, Abu Nasr Iroq, Saolibiy va boshqa allomalar xususidagi fikrlar

turli manbalarni qiyoslash orqali aniqlangani ham ta'kidlanadi. "Adiblar lug'ati" asarida ustivor o'ringa ega bo'lgan adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarixga daxldor atama va ilmiy qarashlar hozirgi tadqiqotchilar uchun ham zarur va foydalidir. Umuman, Xorazm adabiyoti va ilm-u fani haqidagi Hamaviy fikrlari X-XII asrlar madaniyatini yanada chuqurroq o'rghanishda muhim manbalardan biridir.

## I BOB

### YOQUT HAMAVIY SAYYOH VA OLIM

#### 1. HAYOTIGA OID MA'LUMOTLAR

Abu Abdulloh Yoqut Ibn Abdulloh ar Rumiyl al Hamaviy al Bag'dodiy – bu nom XX asrning so'ngi o'n yilliklarida O'zbekistonda ham tobora ko'proq tilga olina boshlandi. Respublikamizning bir qancha tarixchi va sharqshunos olimlari vatanimiz tarixini ilmiy tadqiq etishlari jarayonida Yoqut al Hamaviy asarlariga qayta-qayta murojaat qilishlari beziz emas. Buning asosiy sababi, o'rta asrlarning bu mashhur allomasi asarlarida tarixiy merosimizga oid qimmatbaho va boy ma'lumotlar mavjudligidir. Avvalo, bu alloma shaxsiyati xususida to'xtalib o'tsak. Xalqimizda bir gap bor: "Odamga qo'yilgan ism uning taqdiri mazmunida ham aks etadi". Albatta, biz bu fikrning qanchalik haqiqatga yaqinligini isbot qilish maqsadidan yiroqmiz. Ammo ilm-u fan rivoji yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan o'rta asrlar sharqining taniqli namoyondalaridan biri, jo'g'rofiya va adab ilmining yirik allomasi Yoqut al Hamaviy nisbalarini uning tarixiga (tarjimayi holiga) oid ma'lumotlarning muxtasar majmuasi deb atash mumkin.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Yoqut al

Hamaviyning kelib chiqishi rumlikdir<sup>1</sup>. Ma'lumki, XII asrlarda hanuz salbchilar (nasorolar) va musulmonlar o'rtasida Quddus shahri uchun olib borilgan uzluksiz kurashlar davom etardi. Faqat shu asrning ikkinchi yarimlarida bu kurashda musulmonlarning qo'li baland kelib, ular hatto Kichik Osiyo, musulmonlar ta'biricha, qudratli Rum (Vizantiya) sultanatiga ham o'nglanmas zarba berishadi. Ayniqsa, Qilich Arslon II ning 527\1176 yili Miriokefalon jangida Rum hukmdoridan biri Maniul Komnin ustidan erishgan g'alabasi bu mintaqada musulmonlar mavqeini butkul oshirib yubordi<sup>2</sup>.

Yoqut Hamaviy taxminan xuddi shu davrlarda Rumda tavallud topgan. Tarixchilar, jumladan, Ibn Xallikon, Kotib Chalabiy (Hoji Xalifa) uni 574/1178 yoki 575/1179-yilda tug'ilgan, deb taxmin qiladi. Chunki Yoqut go'daklik chog'idanoq bandi qilinib, Bag'dodga keltiriladi va qul bozorlaridan biriga sotib yuboriladi<sup>3</sup>. Agar ayrim manbalarda uning keyinchalak o'z ona tilini eslay olmasligini<sup>4</sup> e'tiborga olsak, haqiqatan ham Yoqutning go'daklik chog'i-

---

<sup>1</sup> Ibn Xallikon. "Vafoyit ul ayon va anbo' az zamon", O'zR FASHI 11474, II 210-bet

<sup>2</sup> Adam Mets. "Мусулманский ренессанс". Moskva, 1966 g. Str. 179.

<sup>3</sup> Vafoyot ul ay'on, Ij., 214-bet; Kashf az Zunun, Ij. 463-b

<sup>4</sup> Hikmatullayev X., Shoislomov Sh. "Yoqut Hamaviy", Toshkent, FAN. 1995-y., 4-bet.

danoq qul qilib sotilganligi va tug'ilgan vaqtining taxminiy ekani ma'lum bo'ladi. Xullas, Yoqut asarlarida o'zining asl kelib chiqishini ko'rsatish maqsadida "Rumiy" nisbasini qo'llaydi.

Yoqutning ikkinchi - "Hamaviy" nisbasiga kelsak, uni Bag'dod qul bozorida sotib olgan kimsa Shom (Suriya) mamlakatidagi Osiy daryosi yaqinida joylashgan Hama shahri ahlidan edi. Uni Asqar ibn Abu Nosir Ibrohim al Hamaviy deyishardi<sup>5</sup>. Shu tariqa Yoqut keyinchalik xo'jayinining nisbasi bilan Hamaviy deb ataladi.

Asqar ibn Abu Nosir Ibrohim tijoratchi edi. U savdo ishlari bilan yurtma-yurt kezib yurardi. U Bag'dodga ham savdo ishlari yuzasidan keladi va shu yerda uylanib, bola-chaqa orttirib, muqim yashab qoladi. Ammo tijorat ishlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun savodi yetishmaydi. Natijada Yoqutni o'qishga berib, uni ilmli inson qilib voyaga yetkazadi. Yoshlik chog'larini Bag'dodda o'tkazgan Yoqut "Bag'dodiy" nisbasini ham oladi.

Yoqut - bu ism Hamaviyga qullik asoratiga tushib qolgan davrida qo'yilgan. Ba'zi muarrixlar quldlorlarning o'z qullarini turli qimmatboho tosh va hushbo'y narsalar nomi hamda qut-barakani anglatuvchi so'zlar bilan atagani to'g'risida o'z

---

<sup>5</sup> Vafoyot ul ay'on, IIj., 210-bet.

ma'lumotlarida aytib o'tadi<sup>6</sup>. Hamaviyning "Yoqut" ismini olishi ham xuddi shunday an'analar mahsulidir. Hamaviy bu nomni ohangdosh "Yoqub" ga almashtirmoqchi bo'lgan, ammo tarixda "Yoqut" nomi bilan mashhur bo'lib qolavergan<sup>7</sup>.

Uning yana bir ismi – ibn Abdulloh (Abdulla o'g'li yoki Ollohnning qulining o'g'li) esa o'sha davrdagi musulmonlar odati bo'yicha berilgan. Yoqut "Mu'jam ul udabo" ("Adiblar lug'ati") asarida o'ziga o'xshash nasabi ma'lum bo'lмаган zamondoshlaridan ikki nafarini ko'rsatib o'tadi. Ulardan biri Abu ad Dur Yoqut ibn Abdulloh ar Rumiy nomli mashhur shoir va adib bo'lgan. U 622\1225-yilda vafot etgan. Ikkinchisi Yoqut ibn Abdulloh ar Rumiy mavsillik, Yoqut u bilan uchrashgan. U ham Xorazmda bo'lib, 618/1221-yilda Xorazmdan Mavsilga qaytib keladi<sup>8</sup>. Uning "Shahobiddin" ("Dinning shu'lesi") laqabi bilan atalishi esa diniy e'tiqodda sobitligi va bu sohada ilmining kamolotga yetganidan darak beradi. Adibning "Mu'jam ul udabo" va "Mu'jam ul buldon" asarlarini ko'rib chiqish mobaynida biz bunga ko'p karra amin bo'ldik.

---

<sup>6</sup> Fayziyev T. "Использование рабов в феодальной Бухаре в XVI - XIX вв., (автореферат на канд. дис.), Tashkent, FAN, 1968 г. str. 9.

<sup>7</sup> Карчновский И. Изб. Соч., т. IV., М-Л., 1957 г. стр. 334.

<sup>8</sup> Yoqut al Hamaviy. "Mu'jam ul udabo", London –Misr, VIIj, 267,268-bet.

Yoshligidan ota-onasi va yurtidan judo bo'lgan Yoqut omadi kelib, bir iymonli kimsaning qo'liga tushib qolgan edi. U xo'jayinining qo'llab-quvvatlashi sharofati bilan diniy ilmlar qatorida hisob, tilshunoslik va boshqa ilmlarni ham puxta egallaydi. Uning tilshunoslikdan al Ukbariy 616/1219 va Ibn Ya'ish (vaf. 643/1245) kabi ustozlari bo'lgani haqida ma'lumot bor<sup>9</sup>.

Yoqut iste'dodli bola bo'lgan va kitob mutolaasi uning eng sevimli mashg'ulotiga aylangan. Yoshi ulg'aygan sari u hattotlik san'atini ham mukammal egallavdi. Yoqut hattotlikka qattiq berilib, unga ko'p vaqtini sarf qila boshlagani sababli xo'jayini bilan orasi buzilib, ba'zan o'rtalarida kelishmovchilik bo'lib turgan<sup>10</sup>.

Yoqutning xo'jayini Asqar al Hamaviy ko'pincha uni o'zi bilan birga tijoriy safarlarga olib chiqar edi. Bunday safarlar uning jo'g'rofiy va adabiy bilimi saviyasining izchil oshib borishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, Fors qo'ltig'ida joylashgan o'sha davrlarda xalqaro savdo markazlardan biri Kesh orollariga qilgan safarlari uning hayotida boy va o'chmas iz qoldirgani shubhasiz. Asqar al Hamaviy keyinchalik savdo ishlarini Yoqutga

---

<sup>9</sup> Крачковский И.Ю. Изб. соч., т. IV, М-Л., 355.; Hikmatullayev X., Shoislomov Sh. "Yoqut Hamaviy", Toshkent, FAN., 1965-y. 4-bet.

<sup>10</sup> Yoqut Hamaviy, 5-bet.

butunlay ishonib topshirib qo'yadi va 596/1199-yilda uni mustaqil holda tijorat yuzasidan yana Kesh orollariga jo'natadi<sup>11</sup>. Yoqut bu topshiriqni a'lo darajada uddalagan edi. U Bag'dodga qaytib kelganda xo'jayini vafot etgandi. U ixtiyoridagi omonat mol-mulkni xo'jayinining merosxo'rlari – xotini va bola-chaqalariga topshiradi. Ayni paytda, o'zi ham biroz sarmoyali bo'lib qoladi. Shu fursatdan e'tiboran uning hayotida yangi sahifalar boshlanadi.

Yoqut ozoddikka erishgandan so'ng Bag'dodda kitobfurushlik<sup>12</sup> va hatotlik<sup>13</sup> bilan shug'ullana boshlaydi. Bu kasblari orqasidan u ilm-fanning turli sohalariga oid ko'plab kitoblar bilan tanishib chiqadi va ko'p vaqtini kitob mutolaasiga bag'ishlaydi. U jo'g'rofiya, adabiyot, tarix kabi fanlarga doir kitoblardan tashqari, diniy ilmlarga ham katta qiziqish bilan qaraydi. Muhammad Mustafo (S.A.V) va xulofai roshidinlar, sahabalar, tobeinlar, mashhur din arboblari hayoti va faoliyati, turli diniy oqimlar qarashlarini o'rganadi. Ayniqsa, hazrati Ali roziyallohu anhu hayotiga oid kitoblarni ko'p o'qib, uning ashaddiy tarafdozlaridan biriga aylanadi.

---

<sup>11</sup> “Vafoyot ul a'yon”, IIj., 210-bet.

<sup>12</sup> “Vafoyot ul a'yon”, IIj. 211.

<sup>13</sup> <sup>13</sup> “Yoqut Hamaviy”, 5-bet.

Kunlardan bir kuni uning qo'liga xavorijlar<sup>14</sup> va ularning diniy qarashlari to'g'risida kitob tushib qoladi. U xavorijlar ta'lilotini ham qiziqib o'rganadi va fursat topib, ular bilan muzokaraga kirishadi. Bu munozaralarda u yutib chiqadi. Yoqut Hamaviy 613/1216-yilda savdo ishlari bilan Damashqqa borib qoladi va uning bozorlarini kezib chiqadi. Tasodifan hazrati Ali roziyallohu anhu tarafdarlarining suhbat va anjumanlarida ishtirok etadi. Bunday anjumanlarning birida u o'z qarashlarini bayon qiladi va kutilmaganda ular bilan oralarida kuchli ixtilof paydo bo'ladi. Natijada bu joylarda o'ziga dushman orttirgan Yoqut ulardan omon-eson qutilish maqsadida zudlik bilan Damashqni tark etadi. Mutaasiblar va Hamaviy o'rtasida bo'lib o'tgan mojaro qozigacha yetib boradi. Ammo uning yechimi hal bo'lmay qoladi. Negaki bu paytda Yoqut Halabga yetib kelgan edi<sup>15</sup>. Muholiflari uni ta'qib qilib, izidan Halabga kelishadi. Kutulmas baloga yo'liqqan Yoqut 613-yil jumodil oxir oyining o'n birinchi yoki o'n ikkinchisida (1216-yil 26-27-sentabr) shoshilinch ravishda bu

---

<sup>14</sup> Xavorijlar-Siffon jangida(37), (657) hazrati Ali va Muoniya muzokara yuritib turgan paytda muzokaradardan norozi bo'lib, hazrati Ali qarorgohini tark etgan guruh.

<sup>15</sup> 15 Halab – Shomdag'i (hozirgi Suriya) shaharlaridan biri. Damashqning shimolida, Turkiyaga yaqin viloyatda joylashgan.

yerni ham tark etib, Mavsilga qochib boradi<sup>16</sup>. Mavilda ham uzoq to'xtab turmasdan u yerdan Irbilga va undan to'g'ri Xurosonga yo'l oladi. U bir necha muddat Xurosonda turib qoladi. Aftidan, u ta'qib etuvchi dushmanlardan yurak oldirib qo'ygan chog'i, Ibn Xallikonning xabar berishicha, Damashqdagi mojarolari oqibatidan cho'chib, Bag'dodga keladi. Ammo jazolanishdan xavfsirab bu yerda ham ko'p turolmaydi va yana Xurosonga qaytib ketadi<sup>17</sup>. Shunday qilib, Hamaviy qariyb 5 yil (613-617/ 1216-1220) o'zga yurtlarda qolib ketadi. Bu yurtlarda u tinch, osoyishta va sarguzashtlarga boy umr kechiradi.

Xuroson o'lkasi bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibida edi. Xorazm davlati esa Osiyoning eng qudratli davlati hisoblanar, ko'pgina sharq mamlakatlari, jumladan, Bag'dod xalifasi ham o'zining qudratli qo'shnisidan hayiqar edi. Balki shu sababdanmi, Yoqut dushmanlari uni ta'qib etishdan to'xtaydi. U nihoyat Xurosandan boshpana topadi.

---

<sup>16</sup> 16 Mavsil – Iroqning shimoli-g'arbidagi shahar.

<sup>17</sup> "Vafoyotul a'yon", II j., 210-bet.

## **2. YOQUTNING XORAZMGA SAYOHATI VA IJODIY MEROSSI**

Xorazm bu davrda shu darajaga borib yetdiki, u qo‘rqan va xatarga tushganlar uchun bexatar makon, elma-el kezib yurganlar uchun maskan, musofir-u g‘ariblarga manzilgoh, darveshlar uchun boshipana bo‘lib qoldi. Odamlar Xorazmga har tarafdan o‘z kulfat-u musibatlaridan iztirobga tushib, hasrat-u nadomatlaridan qalblari kuyib-yonib, najot izlab kelardilar-u, barcha illatlari shifo topgan, dard-u alamlari bartaraf bo‘lgan, jamiyki yumush-tashvishlaridan qutulgan holda qaytardilar.

XII asrning oxiri va XIII asr boshlarida Xorazm davlati shimoli g‘arbdan Idil daryosi (Volga), sharqda Talas sohillari, janubda shimoliy Hindiston va Xuroson o‘lkasi, janubi-g‘arbda Qazvin, Hamadon va Bag‘dod xalifaligiga qadar hududlarni qamrab olgan edi. Saljuqiy Sulton Sanjarning 1141-yili Samarqand atrofida Qoraxitoylar hukmdori Go‘rxondan mag‘lubiyatga uchrashi natijasida saljuqiylar sultanati butunlay zavolga yuz tutdi<sup>18</sup>. Ko‘pdan mustaqil siyosat yuritish uchun intilib kelayotgan Xorazm hukmdorlari uchun qulay

---

<sup>18</sup> 18 Abul Kosim az Zamaxshariy. Nozik iboralar, Toshkent, “Kamalak”, 1992-yil, 22-bet.

siyosiy imkoniyat paydo bo'ldi va ular bundan ustalik bilan foydalandilar. Xorazm davlati Otsiz (1127-1156), El Arslon (1156-1172) va, ayniqsa, Alouddin Tekish (1172-1200) davrida benihoya kuchayib ketdi. Saljuqiy hukmdorlarning sharqiy tarmog'i barham topgandan keyin Tekish Xorazm yerlarini kengaytirib, harbiy harakatlar bilan Janubiy Osiyo va Kichik Osiyo yerlariga tobora chuqur kirib boradi. Alouddin Tekish saljuqylarning so'nggi hukmdori To'g'rul III o'limidan keyin Xorazm davlati hududi Shomgacha yetib boradi<sup>19</sup>. Oradan ko'p o'tmay 1196-yili Tekish Bag'dod xalifasi Nosirni ham mag'lubiyatga uchratib, Iroqni bosib oladi. Ammo Tekishning to'sattan vafot etishi tufayli (1200-y.) Bag'dod yana o'z mustaqilligini tiklaydi<sup>20</sup>.

Sulton Muhammad Xorazmshoh davriga kelib, bu sultanat kuch-qudrati yanada oshib ketadi. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik qaror topadi. Yoqut al Hamaviy Xorazm davlati siyosati bilan yaqindan tanish bo'lgan bo'lishi kerak<sup>21</sup>. Balki,

---

<sup>19</sup> Tarixda Tarbiy yoki Iroq saljuqylari nomi bilan yuritiladigan saljuqlarning so'nggi hukmdori Sulton To'g'rul III 590/1194-yilda o'z xodimlaridan biri Qutlug' Inonj tomonidan xoinona o'ldirilgan. Qutlug' Inonj yarador yotgan o'z sultonining boshini kesib, Xorazmshoh Tekishga keltiradi. Biroq Tekish uning bu xatti-harakatlarini ma'qullamaydi. (Sadiddin Ali al Husayn. "Axbar ad davlat assaljukiya", Moskva, Nauka, 1980 g., str. 244.)

<sup>20</sup> 20 "O'zbekiston xalqlari tarixi", Ijild, Toshksnt, FAN, 1982-y, 128-bet.

<sup>21</sup> 21 Xorazmshoh Alouddin Tekish 1196-yilda xalifa Nosir Abul Abbos

shu sababdan ham u dushmanlaridan qutulish uchun Xuroson sari yuz tutgandir<sup>22</sup>.

Mazkur tadqiqot jarayonida Hamaviyning Xorazm davlatiga sayohati ustida to'xtalib o'tish muhim ekanini alohida ta'kidlash lozim. Chunki u mo'g'ul-tatarlar hujumidan oldin bir necha yil Hirat, Balx, Marv, Darg'on va Urganch kabi yirik shaharlar va bir necha qishloqlarni kezib, bu yerlardagi ijtimoiy ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rgan, ko'p voqealarning guvohi bo'lgan. Uning bular haqida yozib qoldirgan qimmatli tarixiy ma'lumotlari asosida Chingizzon bosqini arafasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy turmushning haqiqiy ahvoli anchagina oydinlashadi va o'sha davrlarga xos tarixiy voqelikni xolisona baholashga imkon beradi.

Shunday qilib, Ibn Xallikonning ta'kidlashicha<sup>23</sup> va o'zining asarlaridagi qaydlarga ko'ra, u 613/1216-yili muholiflardan qochib, Damashqdan Xurosonga yo'l oladi. "Silsilat tarojim" muallif-

---

Ahmad qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, 1200-yilgacha Bag'dodda o'z hukmronligini o'rnatgan edi. Bu paytlarda Yoqut Hamaviyning o'smirlik chog'lari bo'lib, u Bagdodda yashardi.

<sup>22</sup> Tarixdan ma'lumki, qadimdan turkiy hukmdorlar, xususan, g'aznaviy, saljuqiy va xorazmshohlar ham e'tiqodda "sunna nal jama'a" ahli safida sobit turganlar va islom dunyosida sunnylarning mustahkam tayanchi hisoblangan. Shu sababdan Yoqut mojarolasib qolgan mutaassiblar bu joylarda unga tahdid qilolmasliklari tabiiy edi.

<sup>23</sup>23 "Vafoyot ul a'y'on", Pjild, 210-bet.

larining yozishicha, Yoqut o'rta asrlarda sharqning yirik savdo va madaniy markazlaridan biri Naysabur (Nishapur) shahriga kelib, bu yerda 2 yilcha yashab qoladi va turk qiziga uylanadi<sup>24</sup>. Ammo ko'p o'tmay ajralib ketadi va Naysaburdan Bo'shanj orqali Hirotga keladi. "Bo'shanj Hirot atrofida joylashgan xushmanzara, serdaraxt vodiy nomi. Ularning orasi o'n farsaxcha<sup>25</sup> bor. Naysaburdan Hirotga kelayotganimda uni chetdan ko'rib o'tdim. Unda to'xtamadim"<sup>26</sup>.

Hirot Hamaviyda katta taassurot qoldiradi: "Hirot Xurosionning eng mashhur va azim shaharlaridan biri. Men 607/1210-yilda Xurosonga kelganimda u yerda bo'lganman. Undan ulug'roq, go'zalroq va aholisi ko'proq shaharni ko'rmadim. U bog'-rog'lar va mevalarga boy, suvga serob, fozil-u ulamolar va ulug'larga to'la shahar edi. 618/1221-yili kuffor tatarlar kelib, u yerni butkul vayronaga aylantiradi"<sup>27</sup>.

So'ngra Yoqut bu shahardan chiqqan allomalar, muhaddis, fakih va adiblar to'g'risida ma'lumot

---

<sup>24</sup> *Al Abroshiy, At Tunisiy. "Silsilat tarojim", Qohira, 1956-y., 116-b., Hikmatullayev X, Shoislomov Sh. "Yoqut Hamaviy", Toshkent, FAN, 1965-y. 5-bet.*

<sup>25</sup> *Farsah – masofa o'lchovi. Turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Taxminan 6 chaqirim (km) uzunlikka teng.*

<sup>26</sup> *"Mu'jam ul buldon", I jild, 304-bet.*

<sup>27</sup> *"Mu'jam ul buldon", VIII jild, 451-bet.*

beradi.

X.Hikmatullayev va Sh.Shoislomovning yozi-shicha, Yoqut Hirotdan Saraxs orqali Marvga keladi<sup>28</sup>. Uning Xorazm davlati hududida ko'proq muddat yashab qolgan joylaridan yana biri bu – Marv shahri edi. U Marv haqidagi ma'lumotlarida u yerga qachon kelgani xususida biron aniq sanani qayd etmaydi. Ammo uning Marv atrofidagi Foza shaharchasi haqida ma'lumotlarida shunday jum-lalar uchraydi:

“Foza Marv tumanida joylashgan shahar. U yerdan Abu Abbos Muhammad ibn al Fazl ibn Abbos al Foziy al Marvaziy chiqqan. U haqda Ali ibn Hajar so'zlab bergen va Abu Savvar Muhammad ibn Ahmad ibn Osim al Marvaziy rivoyat qilgan.

615/1218-yili Marvda ustozim Abu Muzaffar Abdurahim al Hofiz Abu Savd Abdukarim ibn Abu Bakr ibn Muhammad ibn Abu Muzaffar as Sam'oniy<sup>29</sup> huzuriga hadis tiklagani kirganimda u oldimizga qovun qo'yib, “qani pichoqlaringizni chiqaringlar”, – dedi. Ammo ko'philigimiz shayxga pichog'imiz yo'qligini aytdik. Shunda u: “Fozalik bir ustozim o'zinikimi yo birovnikimi bilmadim, menga

---

<sup>28</sup>28 *Yoqut Hamaviy*, 6-bet.

<sup>29</sup> “*Tarix ap ansob*” muallifi Abu Sa'd as Sam'oniyning o'g'li, o'z davrining yetuk allomalaridan biri. Kotib Chalabiyan uni 617/1220-yilda vafot etgan deydi. (“*Taqvim at tavorix*”. O'zR FASHI, 45/II, 78-bet).

shuni aytib bergandi”, – dedi.

*Ki uch kimsa mahzunlikka loyiqdir:  
Yoshligini yelgasovurgan nodon,  
Yor vaslidan murod hosil etmagan  
Va qovunga pichoqsiz kelgan inson*<sup>30</sup>.

Mazkur parchadan ma'lum bo'lishicha, ustoz va shogirdlar qovunxo'rlik qilishgan. Voqeа taxminan ayni qovun pishiqligilida sodir bo'lgan. Yoqut tasvirlagan ushbu lavhadagi “qovunga (polizga) pichoqsiz kelmaydi”, degan naql xalqimiz orasida hozir ham saqlanib qolgan. Bu iborani yilning boshqa mavsumlarida ishlatish udum emas. Ma'lumki, qovun pishig'i iyun-sentabr oylari oralig'idir. Demak, Yoqut 615-sananing robbiul avval oyi atrofida Marvga kelgani (iyun) ehtimolga yaqin. U Marvda ikki yilga yaqin yashaydi. Bu yerda kechgan davrlar uning bo'lg'usi ijodiy faoliyatiga katta turtki vazifasini o'taydi. U Marvdalik vaqtida shahar atrofidagi Fashon, Marvrud, Panjdeh, Bampur, Niso, Xurmuzfarra, Dandanaqon kabi bir qancha shahar va qishloqlarni borib ko'radi va ular haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. U Dandaqon haqida shunday yozadi:

“Dandanaqon Marv ash Shohijahon tomonda, undan o'n farsax masofada qumlar orasidagi shahar. U hozir xarobaga aylangan. Unda bir

---

<sup>30</sup>30 “Mu'jam ul buddon”, VI jild, 329-bet.

musofirxona va bitta minoradan bo'lak hech narsa qolmagan. U Saraxs va Marv o'rtasida joylashgan. Devor xarobalari uning bir paytlar shahar bo'lganidan darak beradi. Men u yerda bo'ldim”<sup>31</sup>.

Yoqut saraxs orqali Marvga kelayotganda bu jovda to'xtab o'tadi.

U Marvning ikkita shahar – Marv ar rud va Marv ash Shohijondan iborat ekanini yozadi.

“Marv” – oqtosh degani, ammo men bu yerda uni ko’rmadim. Rud fors tilida “daryo” degani va Marv ar rud – Marv daryosi ma’nosini anglatadi. U Marv ash Shohijahonga yaqin shahar, orasi 5 kunlik yo'l. U yerdan chiqqan fozillar “marvarudiy” yoki “marvudiy” nisbasi bilan ataladi”<sup>32</sup>.

Yoqut marv ar rudlik Abu Bakr Xalifa ibn Ahmad ibn Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Mattavayh al Marvarudiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Solih ibn Hajjoj al Marvudiy kabi yana bir qancha allomalarni sanab o'tadi.

Marv Shohijon haqida esa quyidagilarni

---

<sup>31</sup> “Mu'jam ul buldon”. VI jild, 92-bet.

*Hamaviyning Dandanaqonga kelishidan taxminan II asr ilgari g‘aznaviy Sulton Ma'sud va saljuqiy To'g'rulbek I qo'shini o'rtasida mashhur Dandanaqon jangi bo'lib o'tgan edi. U jangda To'g'rulbek Sulton Ma'sudning qariyb 100 ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirib, saljuqiylar sultanatiga asos soldi (1039). Muarrixlar rivotyatlariga ko'ra, Saljuqlar Dandanaqon atrofidagi quduqlar va barcha suv manbalarini yo'q qilib, g‘aznaviylarni suvsiz qoldirib yengadi. Dandanaqon balki shundan keyin xarobalikka yuz tutgandir.*

<sup>32</sup> “Mu'jam ul buldon”, VIII jild, 32-bet.

yozadi:

“Oq toshni arab tilida “marv” deyishni aytgan edim, ammo u arabiylasmas, ajamiydir. Bu yerda bunday toshdan biron ta ham ko’rmadim. Lekin “shohijon” forsiy so‘z, “sultonning joni” ma’nosini anglatadi. “Jon” bu “nafs” yoki “ruh” degani. “Shoh” – “sulton” degani, uni ulug’lab shunday atashgan.

Marvdan shunday diniy ulamolar va a’yonlar yetishib chiqqanki, buningdek shahar bo’lgan emas. Ahmad ibn Muhammad ibn Xanbal al Imom, Sufiyon ibn Sa’id as Savriy, Is’hoq ibn Rohavayx, Abdulla ibn Muborak kabi allomalar shular jumlasidandir. Sulton Sanjar ibn Malikshoh saljuqiy tasarrufida ko’plab shaharlar bo’la turib, shu yerda yashashni afzal ko’rgan va shu joyda vafot etgan, qabri ustiga ulug’ maqbara qurilgan, moviy gumbazi olisdan ko’zga tashlanib turadi”<sup>33</sup>.

Yoqut Sanjar qabrini 616/1219-yilda ziyorat etib, ruhiga Qur’on tilovat qiladi. Shuningdek, u Marvgaga payg‘ambar Muhammad Mustafo (S.A.V) as’holari – Burayd ibn al Xusib, Hakim ibn Umar, g‘afforiy va Sulaymon ibn Buraydning dafn etilgani va ularning qabrlarini ziyorat qilgani to‘g‘risida ham qiziqarli ma’lumotlar beradi<sup>34</sup>.

---

<sup>33</sup> “Mujam ul buldon”, VIII jild, 35-bet.

<sup>34</sup> “Mujam ud buldon”, VIII jild, 37-bet.

Yoqutning, ayniqsa, Marv madaniy hayoti, xususan, undagi kutubxonalar haqidagi ma'lumotlari nihoyatda qimmatlidir.

“Tatarlar kelib u yerni vayron qilmaganda o'lgunimcha u yerda qolgan bo'lardim. Chunki xalqi dilkash va bag'rikeng edi. Dunyoning hech joyida bunday kitobga boy shahar va qulay sharoit ko'rmanaganman. Men undan ketgan vaqtimda uning vaqf qilingan o'nta kutubxonasi bor edi:

Katta jome'dagi 2 ta kutubxona. Aytishlaricha, ulardan biri Aziziddin Abu Bakr Aqiq az Zanjoniy yoki Aqiq Abu Bakrga mansub. Sulton Sanjar uning ko'ziga nil tortgan. Unda 12 ming jild kitob saqlanadi.

Al Kamoliya kutubxonasi, uning nasabini bilmayman.

Al mustavfiy Abu Sa'd Muhammad ibn Mansur madrasidagi kitoblar xazinasi. U 494/1110-yilda vafot etgan. Hanafiy mazhabи.

Nizom al Mulk al Hasan ibn Is'hoq madrasasi-dagi kutubxona.

Somoniylarga tegishli 2 ta kitoblar xazinasi.

Amidiya madrasasi kutubxonasi.

Marvda o'tgan oxirgi vazirlardan biri – Majd al Mulk kutubxonasi va yana o'sha yerda Zamiriya kutubxonasi ham bor.

Men bu kutubxonalardan hech qiyinchiliksiz kitob olib foydalanar edim. Xonamda doim 200 jildcha kitob turardi. Ularning aksariyati tilxatsiz va bahosi 100 dinorcha edi. Ularni o'qib huzur qilar edim va foyda olardim. O'qish zavqidan barcha yurt va yor-u birodarlar xayoli ko'nglimdan o'chdi. O'sha o'qiganlarimdan ushbu va boshqa asarlarimni yozishda foydalandim<sup>35</sup>.

Yoqut Hamaviy keltirgan bu tarixiy ma'lumotlarda saljuqiylar va, albatta, xorazmshohlar sultanati hukmdorlari yuritgan ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy siyosatning taraqqiyparvar ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bunday siyosiy-iqtisodiy barqarorlikning yuzaga kelishi va ma'naviy yuksalishning ba'zi jihatlari, shubhasiz, o'sha davrda islom dini hamda shariat ahkomlari asosida adolatli siyosat yuritgan hukmdorlarning el-u xalq va tarix oldidagi xizmati mahsuli ekanini ham qayd etib o'tish lozim.

Yoqut 616/1219-yil oxirlarida Marvdan chiqib, Xorazm tarafga yo'l oladi. U yo'l-yo'lakay Xurmuzfarra qishlog'ida to'xtab o'tadi. "Xurmuzfarra Marv tomonda, Xorazm yo'lidagi qishloq. U hozir Musaffara deyiladi. Men uni ko'rghanman"<sup>36</sup>, –

---

<sup>35</sup> "Mu'jam ul buldon", VIII jild, 36-bet

<sup>36</sup> "Mu'jam ul buldon", VIII jild, 460-bet

deydi u.

U Jayhun sohili bo'ylab yo'lida davom etarkan, Darg'on shahriga boradi<sup>37</sup>. "Darg'on –Jayhun sohilida, Xorazm hududining boshlanishi. Jayhun bo'ylab Amuldan<sup>38</sup> pastroqda, Marv yo'lida joylashgan shahar. U qumloq qir-adirlardan iborat baland qirg'oqda qad ko'targan. Jayhun va uning orasida ekinzorlar va bog'-u bo'stonlar bor. 616-yilning ramazon oyida Marvdan Xorazmga kelayotib, uni ko'rdim.

Bu yerdan Abu Bakr Muhammad ibn Abu Sa'id ibn Muhammad ad Darg'oniy chiqqan. U haqda Abul Muzaffar Abdurahim ibn Abu Sa'd so'zlab bergen"<sup>39</sup>.

Shu o'rinda Yoqutning qachon Xorazmga kelgani ayon bo'ladi. Hijriy 616-yil ramazon oyi milodiy 1219-yil (10/XI-9.XII) noyabr-dekabr oylariga to'g'ri keladi. Xuddi shu paytlarda (1219-yil sentabrdan boshlab) Xorazmshoh va Chingizzon qo'shinlari o'rtasida O'tror va Xo'jand uchun qaqshatgich urushlar borayotgan edi. Albatta, bunday keskin siyosiy ahvoldan Yoqutning ham xabari bo'lishi kerak. Shunga qaramay u sayohatga

---

<sup>37</sup> *U hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan Darg'on Ota shahriga to'g'ri keladi.*

<sup>38</sup> *Amul – Chorjuy shahri (Turkmaniston) o'rta asrlarda shunday nom bilan atalgan.*

<sup>39</sup> *"Mujam ul buldon", IV jild, 53-bet.*

chiqib, hayotini xavf-xatarga qo'yayotgan edi. Balki, u bu xavf-xatarni his qilmagan bo'lishi ham mumkin. Chunki o'sha davrlar harbiy kuch-qudratda sharq mamlakatlari orasida Xorazm davlatiga teng keladigani yo'q edi. Shu sababdan ham u Xorazmga xotirjam sayohat qilishda davom etdi. Shuningdek, boshqa tarafdan yangi mamlakatlar, notanish shaharlar va o'zga xalqlarni ko'rish, ularning madaniyati, urf-odatlari bilan tanishish ishtiyoqi uning qon-qoniga singib ketgan, uni tinch qo'ymas edi.

U 1219-yil oxirida Xorazmga yetib keladi va Jurjoniya (Urganch), Nuzqos, Barqon kabi yana bir qancha shahar va qishloqlarda bo'ladi. Bu yerda ko'rgan-kechirganlarini, shahar va qishloqlar ahvoli, xalqning tirikchiligi to'g'risida nodir tarixiy ma'lumotlar yozib qoldirgan.

"Xorazm biron-bir shahar nomi emas, balki u ko'plab qishloq va shaharlari bor mamlakat nomidir. Jurjoniya u yerdagi eng katta shahardir. Mahalliy aholi uni Kurkonj deb ham ataydi"<sup>40</sup>.

Shundan so'ng Yoqut Xorazm so'zining kelib chiqishi to'g'risida o'sha paytlarda mavjud bo'lgan bir afsonani keltiradi. Bu afsonaga ko'ra, "xor" – go'sht va "razm" – o'tin ma'nosini anglatar hamda

---

<sup>40</sup> 40 "Mujam ul buldon", III jild, 474-bet.

“Xorazm” so‘zidan “go‘shtxo‘r” degan ma’no kelib chiqar ekan<sup>41</sup>.

“Men Xorazmni 616/1219-1220-yili ko‘rganman, – deb davom etadi Yoqut. – Yeri yomon va sho‘rob, shunga qaramay juda obod, binolari tutashib ketgan, qishloqlari bir-biriga yaqin va uylari ko‘p. Ekinsiz, bo‘sh yotgan joylar kam. Obod qilib yuborilgan serdaraxt joylarda imoratsiz mavzelarni uchratmaysiz. Daraxtlarning aksariyati tut va toldan iborat. Tol imoratga ishlatilsa, tut bilan ipak qurti boqiladi. Uning qishloqlaridan o‘tsangiz, bozordan o‘tgandek bo‘lasiz. Xorazm dunyodagi eng aholiga boy va ulug‘vor o‘lka ekaniga imonim komil. Aholisining aksariyati tadbirkor va sabr-qanoatli. Har bir shahar va qishloqning to‘kin-sochin bozori va ko‘plab ustaxonalari bor. Bu joylarda butkul ma’murlik va to‘kinlik, tinchlik va osoyishtalik hukmron. Qishi juda sovuq. Jayhun daryosining muzlab qolganini ko‘rganman. O‘shanda karvonning yurishi juda qiyinlashgan edi”<sup>42</sup>.

Yoqutning so‘zlaridan ma’lum bo‘ladiki, u ayni qirchillama qish boshlanib, hatto daryo suvi muzlab qolgan bir paytda afsonaviy Xorazm o‘lkasiga

---

<sup>41</sup><sub>41</sub> “Mujam ul buldon”, III jidd, 475-bet.

<sup>42</sup><sub>42</sub> “Mujam ul buldon”, III jild, 476-bet.

qadam qo'yadi. Xorazmning tabiatи, ob-havosi uni hayratga soladi. Bu mamlakat xalqining bag'ri-kengligidan lol qoladi. Ularning kundalik turmushi unda ajoyib taassurot qoldiradi.

"Bu yerda yashayotgan xalqni qum dengizi boshqa turk qavmlari va turkmanlarning xurujlaridan himoya qiladi. Bu yerdagi qumliklar Misr diyoridagi qumliklar singaridir.

Xorazmning markazi ilgari al Mansura deyilgan. U daryoning sharqiy qirg'og'ida bo'lgan. Suv bosgandan keyin aholi g'arbiy tarafga al Jurjoniyaga ko'chib o'tgan. Mahalliy aholi uni Kurkonj deydi. Shaharni suv bosqinidan saqlash maqsadida Jayhun qirg'og'iga ko'plab shox-shabbalar qalab chiqilgan. Kutilmagan ko'ngilsizliklarning oldini olish uchun xalq yoppasiga shu ishga otlanadi. Abu Rayhon Beruniyning bir kitobida Xorazmning qadimgi nomi Fil bo'lgan deb o'qidim"<sup>43</sup>.

Yoqut Hamaviy borib ko'rgan mamlakat va shaharlarning jo'g'rofiy holati va tabiatidan tashqari, u joylarning kelib chiqish tarixi bilan ham qiziqadi. Agar bu haqda biron afsona, rivoyat eshitса yoki boshqa biron ma'lumot topsa, albatta, bu haqda imkonini topib aytib o'tadi.

Xorazm tabiiy joylashuv o'rni, tabiatи va yozi

---

<sup>43</sup> "Mujam ul buldon", III jids, 477-bet.

qishidan keskin farq qiladigan iqlimi bilan har qanday sayyohni sehrlab qo'yardi. Yoz jaziramasidan qochishga joy topolmay o'zini go'yo olov dengizida his qilib, poyonsiz sahro oralab, birdan ulug'vor daryo atrofida yastangan yam-yashil vodiyga yetib kelgan sayyoh shu holda o'zini jannatga kelib qolgandek his qilishi turgan gap edi. Yoqut ayni qahratoning shafqat bilmas ayozi zabitiga olgan bir mahalda qancha shahar va qishloqlarni aylanib chiqadi. Odamlarning qalin muzlarni o'yib kundalik ehtiyojlari uchun suv olayotganlarini tomosha qiladi.

Jayhun sohiliga shoh-shabbalardan tiklangan mahobatli dambalarni kuzatadi. Mamlakatning mashhur allomalari, fozillari bilan uchrashib suhbatlashadi.

"Tabiatи sovuq bo'lishiga qaramay, u yaxshi mamlakat, aholisi olimlar, faqihlar, zukko va badavlat kishilardan iborat. Yashash uchun barcha sharoit muhayyo. Biroq 618/1221-yilda tatarlar<sup>44</sup> kelib, bu joylarni xarobaga aylantirdi, aholini qirdi<sup>45</sup>".

Yoqut bu yerdan Dovud Ibn Rashid Abul Fazil al Xorazmiy, Volid ibn Muslim, Abu Zarko Abdulloh

---

<sup>44</sup> Yoqut Hamaviy o'z asarlarida "mo'g'ullar"ni asosan, "tatarlar" degan.

<sup>45</sup> "Mu'jam ul buldon", III jild, 479-bet.

ibn Muhammad Sog‘oniy, Abu Hafs Umar ibn Abdurahmon al Amor kabi yana qancha allomalar yetishib chiqqanini aytib o‘tadi.

Yoqut Xorazmning mashhur allomalaridan biri Al Qosim ibn Husayn ibn Muhammad Abu Muhammad al Xorazmiy bilan uchrashib, uning uyida mehmon bo‘ladi.

Bu inson davrining ko‘z qarog‘i va zamonasi manglayida balqigan yulduz edi. Men undan tug‘ilgan vaqtini so‘radim. “555-yil sha’bon oyining to‘qqizinchi kechasi (1160-yil 14-avgust) tug‘ilganman”, – dedi u.

Men Xorazmda uning uyida bo‘ldim. Uning qalbi hayot shavqi bilan to‘lib-toshgan, ruhi tetik, samimiyl va quvnoq edi. Dilkash so‘zlari bilan o‘ziga butunlay rom etib qo‘ydiki, na nazmda, na nasrda buni tasvirlashga qalamim ojiz. 616-yil zulqa’dá oyida (1220-yil yanvar) Xorazmda uning uyida she’rlaridan o‘qib berishni so‘radim”<sup>46</sup>.

Qosim Xorazmiy Yoqutda yorqin taassurotlar uyg‘otadi. Yoqut uning hayoti va ijodiga oid boy ma‘lumot yozib qoldirgan. Bu haqda bizgacha yetib kelgan xabarlarning ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, bu paytlarda (1220-yil yanvar oylari) hali Xorazm ahlida siyosiy bezovtalik sezilmaydi.

---

<sup>46</sup> “Mu ‘jam ul udabo”, VI jild, 154-bet.

Yoqut Xorazm ilm ahlining yana bir vakili Mutahhar ibn Sadid an Nuzkosiy bilan uchrashib, unga shogird tushadi va Nuzkosiy unga diniy ilm sohasida ijoza (hujjat) bergenini bayon qiladi.

Kutilmaganda xuddi shu ma'lumotlarda, voqealar rivojida keskin o'zgarishlar yuz bergani seziladi. Ya'ni unda Xorazm ahlining katta urush xavfidan sarosimaga tusha boshlaganini ko'ramiz.

“Nuzkos – Xorazm Jurjoniyasi yaqinidagi shahar. Xorazmliklar tilida “nuz” yangi hamda “yangi devor” degan ma'noni ham anglatadi. U yerda Kos nomli shahar bo'lib, uni “yangi”, ya'ni Nuzkos deyishadi.

U yerdan ad Mutahhar ibn Safid an Nuzkosiy chiqqan. Uni 616-oxirida (1220-yil fevralning ikkinchi yarmi va martning boshlari) tatarlar hujumidan qo'rqib, Nisaga<sup>47</sup> qochib ketayotganida ko'rdim. Tatarlarning Xorazmga kelib qirg'inbarot qilishidan qutulib qolish maqsadida ko'pchilikning qo'rqib qochayotganiga guvoh bo'ldim”<sup>48</sup>.

Darvoqe, 616-yilning so'nggi xaftalarida kutilmaganda Mavarounnahr va Xorazm xalqini hayratga solib, Chingizzon lashkari Buxoroda paydo bo'lgandi. “1220-yil fevralida mug'ullar mudofaaga

---

<sup>47</sup> 47 *Nisa – hozirgi Ashxaboddan tahminan 20 chaqirim (km) janubi garbda bo'lib, xarobalarn saqlanib qolgan.*

<sup>48</sup> 48 *“Mu'jam ul buldon”, VIII jild, 325-bet.*

yaxshi tayyorlanmagan Buxoroning devori ostida turishardi”<sup>49</sup>, – deyiladi “O‘zbekiston xalqlari tarixi” o‘quv qo’llanmasida. Tatarlarning to‘satdan Movarounnahr yuraga, islom dunyosining tayanchi Buxoroda paydo bo‘lishi, buyuk Xorazm davlatining sultanat quyoshi yo‘qlik dengiziga botayotganidan darak berardiki, aholi o‘rtasida vahima kuchayib, parokandalik boshlanadi. Yoqutning Nuzkosiy va boshqalar to‘g‘risidagi mazkur ma’lumotlari ham buni to‘la tasdiqlaydi.

Zero, ahvol shu qadar tahlikali tus olgan ekan, Yoqut ham bunga befarq qarab turolmasdi. Muarrix Ibn Xallikonning ta’kidlashicha, u jonini saqlab qolish maqsadida shoshilinch ravishda Xorazmni tark etadi<sup>50</sup>. “Yoqut Hamaviyning Xorazmda qancha yashagani aniq emas”<sup>51</sup> deb yozadi hurmatli olimlarimiz X.Hikmatullayev va Sh.Shoislomov. Xo‘s, haqaqatan ham Hamaviy Xorazmda qancha vaqt bo‘lgan?

Agar Hamaviyning Xorazm o‘lkasiga qilgan sayohati mobaynida qayd etib o‘tgan sanalarga diqqat qilsak, bu savolga javob topganday bo‘lamiz. U 616-yil ramazon oyida (1219-yil 10.XI-9.XII) Darg‘ondan o‘tadi. Darg‘on va Urganch orasi karvon

---

<sup>49</sup> <sup>49</sup> “O‘zbekiston xalqlari tarixi”, I jild, Toshkent FAN 1992-y. 139-bet.

<sup>50</sup> <sup>50</sup> “Vafoyot ul a‘yon”, II jild, 210-bet.

<sup>51</sup> <sup>51</sup> Yoqut Hamaviy, 10-bet.

uchun bir necha kunlik yo'l. Yoqtul zulqa'dada adib Qosim al Xorazmiy bilan uchrashadi. 616-yilning oxirida (1220-yil fevral oxirlari) Buxoroning Chingizzon tomonidan olinishi bilan bog'liq bo'lsa kerak, Xorazmliklar o'rtasida vahima qo'zg'olib (Nuzkosiy voqeasi), parokandalik boshlanadi. Demak, Yoqtut 1219-yil noyabr oyining ikkinchi yarmidan 1220-yil fevral oyining oxirlariga qadar (3, 5 oy) Xorazmda bo'lgan, deb to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin. Har qalay u 617-yil kelmasdan burun Xorazmni tark etgan. "Men Xorazmni 616-yili ko'rganman", deb buni uning o'zi ham tasdiqlaydi. Shunday qilib, shiddat bilan yaqinlashib kelayotgan tatarlarning falokatli hujumidan jon saqlab qolish uchun Yoqtut Xorazmni tark etadi.

U Marv, Panjdeh, Nishopur, Ray, Qazvin, Tabriz va Irbil orqali horib-tolib, mutlaqo qashshoq holda 617-yilda Mavsilga yetib keladi. Ayrim muarrixlar uning 617-yili Balxda ham qisqa muddat yashaganini ta'kidlaydi<sup>52</sup>. Ammo bu juda ham ehtimoldan yiroq. Chunki, agar shunday bo'lganda edi, avvalo, Yoqtut Balx haqida yozganda buni eslatardi. Ikkinchidan, Jaba, Subuday va Tuqichor boshchiligidagi mug'ullar qo'shini bahorning oxirlarida Sulton Muhammad Xorazmshohni ta'qib

---

<sup>52</sup> *Yoqtut Hamaviy 13-bet*

qilib, Balxda ham bo'lib o'tadi<sup>53</sup>.

Yoqut Mavsilda bir oz nafasini rostlab Halabga borar va mashhur davlat arbobi, faylasuf va muarrix Jamoliddin Abul Hasan Ali ibn Yusuf ibn Ibrohim ibn Abdulvohid ash Shayboniy ad kiftiy huzuriga kirib, o'zining mushkul ahvolini unga ma'lum qilib yordam so'raydi. Kiftiy unga homiylik qiladi. U qolgan umrini qariyb butunlay ilm-fanga bag'ishlaydi va bir qancha asarlar yozadi.

Ibn Xallikonning ma'lumotiga ko'ra, Yoqut Hamaviy 626-yil ramazon oyining 21-kuni (1229-yil 20-avgust) Halab shahrining al Xon Musofirxonasida vafot etadi<sup>54</sup>.

Yoqut umrining so'nggi davrlarida ijodga chuqur sho'ng'ib barakali mehnat qildi. Sharqning o'z davrigacha bo'lgan adib, muarrix, faqih, muhaddis, shoir, tilshunoslari haqida adabiy-tarixiy hamda yer yuzidagi deyarli barcha iqlimlarni qamrab olgan jo'g'rofiy hudud va shahar, qishloqlar to'g'risida nodir asarlar bitdi. Bu asarlarning aksariyat qismi bizning zamonamizga qadar yetib kelgan. Bugungi kunda jahon olimlari o'z ilmiy tadqiqotlarida bu asarlaridan keng ijodiy foydalaniib, undagi ma'lumotlarning naqadar ahamiyatli

---

<sup>53</sup> <sup>53</sup> Mirzo Ulug'bek. "To'rt ulus tarixi". Toshkent. Cho'lpon 1994-y. 149-bet

<sup>54</sup> <sup>54</sup> "Mu'jam ul udabo", Ijild, 17-bet

ekanini e'tirof etmoqda.

Yoqut asarlarini mazmuniga ko'ra, ikki yo'nalishga ajratish mumkin:

**1. Jo'g'rofiyaga oid asarlar.**

**2. Adabiy-tarixiy asarlar.**

Adabiy-tarixiy asarlar ichida, ayniqsa, "Mo'jam ul udabo" ("Adiblar lug'ati") mashhur bo'lib, unda musulmon dunyosining she'riyat, nasr, tilshunoslik, fiqh, tarix kabi ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat yuritgan 1007 nafar allomasi o'rinni olgan. Shulardan 40 nafari Xorazm, Movarounnahr o'lkalariga tegishlidir. Ya'ni bu 40 nafar adiblarning har biriga lug'atda alohida-alohida maqola bag'ishlangan.

Umuman, 21 tasi Xorazm va qolgani Movarounnahr adab ahliga taalluqlidir. Adiblarning lug'atda ko'rsatilgan nisbalariga ko'ra ular Xorazm o'lkasi, Sog'oniyon (Chog'oniyon) o'lkasi, Isfahon, Samarqand, Buxoro, Nasaf, Farg'ona, Naysabur, Axsikat, Marv, Zamaxshar kabi shaharlar farzandlari ekani ma'lum bo'ldi.

Lug'atda Movarounnahr va Xorazm adiblariga oid ilk ma'lumotlar Isxoq ibn Bashir ibn Muhammad Abdulloh ibn Solim<sup>55</sup> (v. 206) (821) VIII-IX asrga to'g'ri keladi. Eng so'nggi ma'lumotlar asosan Chingizzon bosqini davriga oiddir. Muhammad ibn

---

<sup>55</sup> 55 "Mu'jam ul udabo", II jild 230-bet

Sulaymon al Bag'dodiy as Samarqandiyning 620/1223-yilda vafot etgani haqidagi ma'lumot<sup>56</sup> fikrimizga yanada aniqlik kiritadi.

Lug'atda alifbo tarzida tartib berilgani sababli, Movarounnahr va Xorazm adab ahliga tegishli ma'lumotlarni bunday ulkan hajmdagi axborotlar dengizidan terib, ajratib olish anchagina mushkullik tug'diradi. Ayniqsa, ba'zi adiblarning tug'ilgan yo yashagan joylarini anglatuvchi nisbalari noma'lum bo'lsa.

Yana shuni ham unutmaslik lozimki, biz lug'atda Xorazmlik, Movarounnahrlik deb atayotgan mazkur adiblarni muayyan bir qavm-millatga (m-n; o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz kabi) mansub bo'lgan deb talqin qilish noto'g'ridir. Avvalo ularning barchasi deyarli arab tilida ijod qilgan holda muallif ham ularning birortasini biron millatga mansub deb ko'rsatmagan (darvoqe, Yoqutning o'zi haqida ham biz shunday fikrdamiz).

Lug'atda keltirilgan adiblar ijodi rang-barang mavzularni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida adabiy tur (janr) ko'laming keng va xilma-xil bo'lishini ta'minlaydi. Adiblar ijodidan berilgan namunalarda inson va Olloh munosabatlari, vatan, ishq-muhabbat, falsafa va hikmat, quvonch-u qayg'u

---

<sup>56</sup> "Mu'jam ul udabo", VIII jild 14-bet

kabi mavzular tarannum qilingan. Keltirilgan namunalarga adabiy-badiiy nuqtai nazardan yondoshsak, ularning nasriy maktub va risolalar, madhiya, faxriya, g‘azal, vasf, hajviya, marsiya kabi badiiy ifoda etish turlaridan iborat ekaniga guvoh bo‘lamiz.

Ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrlarda adab ahli orasida bu adabiy turlarda ijod etish udum bo‘lib, anchagana rivojlangan va keng tarqalgan ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘rta asrlarda Xorazm zaminida yashab o‘tgan allomalar va adiblar ijodiy merosini har tomonlama chuqur ilmiy o‘rganish, xalqimizning madaniy va ma’naviy tafakkurini yanada oshiradi.

## **II BOB**

### **XORAZM BADIY VA ILMUY IJODIYOTI HAMAVIY NAZDIDA 1. BADIY IJOD UNSURLARI TALQINLARI**

Lug‘atni tadqiq etish jarayonida Xorazm adiblari X asrdayoq arab tilini mukammal egallab, unda badiiy barkamol nazmiy devonlar tuzganining guvohi bo‘lamiz. Bunga Abu Bakr Ahmad al Barqoni va Abu Bakr Muhammad al Xorazmiy kabi o‘z davrining buyuk so‘z ustalari asarlarini misol keltirish mumkin<sup>57</sup>. Nazmiy devonlar tuzish shoirlar orasida asta-sekin an’ana tusini ola boshlaydi. XI asrda yashab ijod etgan shoir Ahmad ibn Ali as Safariy al Xorazmiy ham “Kitab devon she’r mujallad” (“She’riy devon”) tuzgan<sup>58</sup>. Hatto uning zamovdoshi Abu Ali al Hasan al Xorazmiy mahorat bobida yuksak muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib, ikki jildli devon tuzishga erishadi<sup>59</sup>. Shuningdek, XII asrda yashab o‘tgan Mahmud az Zamaxshariy va Rashiddun Vatvot kabi mashhur adib va allomalar

---

<sup>57</sup> *Xorazmda arab tilida ilk devon tuzgan bu shoirlar haqida Yoqut alohida to‘xtalmagan. Ammo Hoji Xalifa “Kashf az zunun”da /1.506/ “Devoni Barqiy” asarini qayd etib, Barqoniyning devon tuzgani to‘g‘risida ma’lumot beradi. Abu Bakr Xorazmiy adabiyotda, jumladan, she’riyatda mohir bo‘lib, nasriy va nazmiy devonlar tuzgani Abu Mansur as Saolibiyning “Yatimmat ad dahr” (2276) asarida keltirilgan.*

<sup>58</sup><sup>58</sup> “Mu’jam ul udabo”, I jild 422.

<sup>59</sup> “Mu’jam ul udabo”, III jild 218.

ham bu an'anani davom ettirib, ajoyib nazmiy devonlar tuzganlar. Lug'atda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra XII va XIII asrlarda Xorazm adiblari arab tili bilan bir qatorda forsiyda ham she'riy devonlar tartib bera boshlagani ma'lum bo'ladi. Yoqut bu borada aynan o'zi ko'rib suhbatlashgan Abu Is'hoq al Mu'iziy al Xorazmiyning "Devoni she'r bil forsiy" Forsiy she'rlar devoni asarini ko'rsatib o'tadi<sup>60</sup>. Shunday bo'lsa-da, Yoqut ma'lumotlari X-XIII asr boshlarigacha Xorazmda arab tilida she'r yozish boshqa tillarga /turkiy va forsiy/ nisbatan kengroq tarqalgani va ko'proq udum bo'lganini tasdiqlaydi.

## ARUZ

Aruz – adabiyotda nazmiy badiiy ifoda etish qoidalari majmui bo'lib, nihoyatda murakkab va mukammal tizimdan iboratdir. Bir qancha tarixiy hamda ilmiy manbalarda arab adabiyoti vakillaridan biri Abdurahmon Xalil ibn Ahmad al Farohidiy (VIII asr) tomonidan o'rta asrlardagi mumtoz arab she'riyati vazn tuzilishi qoidalari tartibga solingani va bu fan "aruz" deb atalgani qayd etiladi<sup>61</sup>.

---

<sup>60</sup> 60 "Mu'jam ul udabo", Ijild 321.

<sup>61</sup> Abu Mansur as Saolibiy. "Yatammat ad dahr". Toshkent. Fan 1976.

So‘z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy “Aruz”ning kelib chiqishi haqida qiziqarli fikr bildirib, uning Xalil ibn Ahmad yashagan vodiy nomidan olinganini ta’kiddaydi<sup>62</sup>. Mashhur adabiyotshunos Vohid Tabriziy (XV asr) esa arablarning chodir uylarini ushlab turuvchi ustunlar “aruz” deb atalishi va “aruz” atamasi shundan olingani to‘g‘risida ma’lumot beradi<sup>63</sup>.

Arab zaminida shakllangan aruz ilmi oradan ko‘p o’tmay IX-X asrdayoq Movarounnahr va Xorazm o‘lkalarida ham keng tarqaladi. Ayni paytda bu joylardan yetishib chiqqan ko‘plab shoirlar mazkur ilm asosida arab tilida betakror go‘zal san‘at asarlari yaratishga muvaffaq bo‘lishadi. “Adiblar lug‘ati”da berilgan Xorazm shoirlari qalamiga mansub 256 bayt (512 misra) she’riy parchalarning deyarli barchasi aruzning turli bahrlarida ijod qilingan.

Ayniqsa, XII asr ijodkorlari Mahmud az Zamaxshariy, Sinnoriy al Xorazmiy, Imroniy al Xorazmiy, Rashiduddin Vatvot, Mutarriziy kabi shoirlarning bu borada erishgan yutuqlari alohida

---

76,77-b; Hojahmedov A. “Mumtoz badiiyat malohati”. Toshkent, “Sharq” matbaa konserni 1999. 121-bet.

<sup>62</sup> 62 Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 14 jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1967, 137-bet.

<sup>63</sup> 63 Vahid Tabriziy. “Jam‘i muxtasar”, (Джам мухтасар). Moskva IVL. 1959 str 26.

maqtovga sazovordir. Umuman, X-XII asrlarda Xorazm madaniy-adabiy muhitida arab tilida ijod etuvchi adiblarning o'ziga xos taraqqiy topgan maktabi shakllangan edi.

Yoqut Hamaviy o'z lug'atida forsiyda she'r bitgan xorazmlik shoirlar to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. U Rashiduddin Vatvot va Abu Is'hoq al Muiziyning forscha go'zal she'rlar ijod etib, devonlar tuzgani qayd etadi<sup>64</sup>. Biroq ularning forsiy she'rlaridan namuna bermagan. Faqat ularning ikki tilda ham bab-baravar ijod etishga qodir mohir shoir bo'lganliklarini maqtab yozadi. Yoqut xabarlaridan ularning ikki tildagi ijodi uchun ham aruz asosiy badiiy ifoda etish vositasi bo'lganligini bilib olamiz.

## QASIDA

Qasida – arab zaminida paydo bo'lgan nazmiy badiiy ijod turlaridan (janr) biri hisoblanadi. U VI-VII asrlardayoq arab xalqlari shoirlari orasida keng tarqalib ulgurgan edi. Lug'aviy ma'nosi "intilgan", "talab qilingan" va "axtarilgan" kabidir.

U nasib, vasf va madh kabi uch asosiy qismdan tarkib topgan.

---

<sup>64</sup> 64 Abdurauf Fitrat. "Aruz haqida". Toshkent. O'qituvchi, 1997.

Nasib – u qasidaning o'ziga xos kirish qismidir. Unda, asosan, shoir hayotining o'tib ketgan shirin damlari, sarguzashtlari, ishq yo'lida chekkan jafolari, ezgin visol onlari kabi holatlari tarannum etiladi.

VASF – qasidaning ikkinchi qismi. Bu o'rinda shoir o'zining yo qavmining hayotini, boshidan kechirayotgan voqealari, shodlig-u izardorlarini kuylavdi. VASF so'zining ma'nosi ham "sifatlash" (yoki ta'riflash) demakdir<sup>65</sup>.

Madh – qasidaning uchinchi va asosiy qismini tashkil etadi. Qasidaning bosh maqsadi xuddi mana shu "madh" qismida o'zining to'la ifodasini topadi.

Qasida mazmun va badiiy shakl jihatdan turlich bo'lishi mumkin. Misol uchun uning mazmuni birovni maqtab-olqishlash, hajv ostiga olib tanqid qilish, tavba-tazarru yoki kimningdir vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qilish, marsiya bitish kabi turli insoniy kechinmalar ifodasidan iborat bo'ladi.

Badiiy shaklda esa qofiyalar tartibi /a-b, a-a; a-a a-a; a-b a-b... kabi/, vazni /aruzdag'i vaznlarni eslang/, hajmi /baytlar miqdori/, albatta, bir xil bo'lishi shart emas<sup>66</sup>.

---

<sup>65</sup> "Mu'jam ul udabo". I. 321; VII, 91.

<sup>66</sup> *Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang;* "Yatimmat ad dahr", 45-51-bet.

Qasida badiiy ijod turining islom olamida keng rivoj topishida arab shoiri Kaab ibn Zuxayrning /v. 662/ xizmati beqiyos bo‘lgan<sup>67</sup>. Uning payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V) hazratlarini madh etib yozgan “Qasidat ul burda” asari keyingi shoirlar uchun ham ilhom manbai bo‘lgan va unga ko‘plab sharhlar hamda uning ta’sirida taqlidiy asarlar yozilgan.

Jumladan, Yoqut al Hamaviy “Adiblar lug‘ati” da Ali ibn Muhammad ibn Ali ibn Ahmad ibn Mirvon haqida to‘xtalib, shunday deydi: “Uning yaxshi she’lari bor. U payg‘ambar va xulofai roshidunlarga atab, Kaab ibn Zuxayrning mashhur “Qasida ul burda”siga taqlid qilib qasida yozgan<sup>68</sup>. Shundan so‘ng Yoqut Imroniyning /Mirvon/ o‘sha qasidasidan quyidagi parchani keltiradi:

*“Chaqmoq tunning tushirilgan pardasini yoritdi,  
U xuddi aqiq kabi tovlanar edi.*

*Mening muhabbatim Su’adga oshgan, ammo u  
yuz o‘girgan,*

*Mening qalbim kuchli hasrat bilan to‘lgan edi”.*

Bu tasvir Kaab ibn Zuxayrning qasidasida shunday jaranglaydi:

*“Su’ad ketdi, bugun mening qalbim uning izidan*

---

<sup>67</sup> <sup>67</sup> Bu haqda ilmiy maqolalarimizdan birida aytib o‘tganmiz. Sharqshunoslik /to‘plam/, Toshkent, FAN, 1995, 87-88-bet.

<sup>68</sup> <sup>68</sup> “Mu’jam ul udabo”. 413.

*Kishanlangan qulday kuchli sog ‘inchda.  
Ayrilish tongida uning surmalangan ko‘zlarinamlangan edi...”<sup>69</sup>*

Bundan tashqari, Yoqutning Xorazm adiblari haqida keltirilgan ma'lumotlari ichida mashhur Xorazmshoh Ma'mun davrida shoirlidka nom qozongan Saxriyning ko'plab qasidalar yozganining guvohi bo'lamiz. Yoqut uning Abul Abbos Xorazmshoh, vazir va shoir Xusayn as Suhayliy va shoir Abul Fatx al Bustiyga atab yozgan qasidalaridan parchalar keltiradi<sup>70</sup>. Mazkur parchalarning mazmunan bir-biriga yaqin, ammo badiiy shakl jihatdan /vazn va qofiyalari tuzilishi/ turlichcha ekani ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, Mahmud az Zamaxshariyning ham qasida janrida barakali ijod etgani lug'atdagi ma'lumotlardan ayon bo'ladi<sup>71</sup>.

Qasidachilik keyingi davrlarda /XIV-XX/ mamlakatimiz hududlarida keng tarqalib, turkiy hamda forsiy tillarda ham bu badiiy ijod turida ko'pdan-ko'p asarlar yaratildi. Bu hol, albatta, o'rta asrlar arab adabiyotining turk va fors adabiyotiga o'tkazgan kuchli ta'siri natijasidir. Ayni chog'da shuni ham unutmaslik kerakki, X-XIII asrlardan

---

<sup>69</sup><sup>69</sup> “Mu'jam ul udabo”. 413.

<sup>70</sup> “Mu'jam ul udabo”. 11, 100, 101.

<sup>71</sup> “Mu'jam ul udabo”. 11, 147.

keyin turk va fors tillarida yozilgan qasidalar oldingi arab tilida yozilganlaridan ancha farq qiladi. Aniqroq qilib aytganda, bu ikki tildagi qasidalarda ko‘proq uchinchi “madh” qismiga asosiy urg“u berilgan va shu tarzda “madhiyabozlik” paydo bo‘lgan.

X-XIII asrlar Xorazm adabiy muhiti qasidachiligi to‘g‘risida hozircha uzil-kesil fikr bildirib bo‘lmaydi. Chunki “Adiblar lug‘ati”da ularning birorta qasidasi to‘laligicha berilmagan hamda to‘la holda bugungi kunga qadar yetib kelgani ham ma’lum emas.

## MARSIYA

Marsiya – arabcha so‘z bo‘lib “yig‘lovchi”, “qayg‘uruvchi” kabi ma’nolarni bildiradi. Marsiya ham arab she’riyatida ko‘p qo’llanadigan badiiy ijod turlaridan hisoblanadi. Lug‘atda Xorazm adiblaridan Abu Bakr Muhammad al Xorazmiyning samarqandlik alloma Xalil as Sijziy<sup>72</sup> /X asr/ va Mahmud az Zamaxshariyning ustozи ulug‘ faylasuf Abu Mudar vafoti munosabati bilan yozgan marsiyalaridan parcha uchraydi. Zamaxshariy

---

<sup>72</sup> “Mu’jam ul udabo”, 1, 184.

ustozi o'limiga qayg'urib shunday yozadi:

*"Dedi: Ul nedurkim ko'zingdan sim-sim to'kilur?*

*Dedim: Ul Abu Mudar ko'zimni to'ldirgan dur"*<sup>73</sup>.

Umuman, marsiya keyinchalik sharq she'riyatining muhim badiiy ijod turlaridan biriga aylanadi va taraqqiy topadi. Hatto bugungi kunda shoirlarimiz ijodida ham bu holni kuzatishimiz mumkin.

## NUJUMIYOT

Ma'lumki, odamzot pavdo bo'liboq osmon bag'ridagi son-sanoqsiz tilsimlar uning nigohini o'ziga hamisha qaratib kelgan. Dunyo, jumladan, sharq adabiyotida inson taqdiri osmon, ya'ni charxi falak harakatlari bilan bog'lanib tarannum etilgan va bu borada behad ko'p asarlar yaratilgan. Nujumiyot badiiy ijod turi bizning xalqimiz uchun mutlaqo yangilik emas (Faqat mazkur atamaning o'zi yangilik bo'ldi). Zero, bu atamaning paydo bo'lishidan minglab yillar ilgari ham inson va osmon munosabatlari adabiyotning bosh mavzularidan edi. Bunga birgina Zardusht qarashlari bayon qilingan mashhur "Avesto" asarini misol keltirish yetarlidir.

---

<sup>73</sup> "Mu'jam ul udabo", II, 145.

Nujumiyot badiiy shakl jihatdan ma'lum tartiblar bilan chegaralab qo'yilgan emas. Uni istalgan vazn va qofiyalarda ifoda etish mumkin.

Yoqut al Hamaviy lug'atda Xusayn Suhayliyning (XI) nujumiyotiga oid she'rлaridan faqat 4 baytgina misol keltiradi<sup>74</sup>.

Shuningdek, “Adiblar lug'ati”daga she'riy parchalar ko'p o'rirlarda “uning aytganlaridan”, “uning she'ridan” kabi iboralar bilan boshlanadi va qaysi badiiy ijod turiga mansubligi ko'rsatilmaydi. Natijada bunday she'rлarni muayyan turkumlarga ajratishning iloji bo'lmay qoladi. Faqat ularni mazmuniga ko'ra fikhiy, falsafiy, tibbiy, ishqiy kabi mavzularga ajratish mumkin xolos.

## NASR

Bu so'z arab tilida “fikrni badiiy ifoda etish” mazmunini bildiradi. Arab adabiyotida nasr ikkita badiiy ifoda turiga ajraladi va ular “nasr musajja” (qofiyali nasr) hamda “nasr mursal” (erkin nasr) deb ataladi.

“Adiblar lug'ati”da Xorazm adiblarining nasriy ijodi to'g'risida ham talaygina qiziqarli ma'lumotlar

---

<sup>74</sup> “Mu'jam ul udabo”. II, 102.

uchraydi va Yoqut ularning parchalaridan namunalar beradi. Keltirilgan nasriy parchalarning aksariyat qismini risolalar tashkil etadi.

## RISOLA

Bu so‘zning ma’nosи o‘zbek tilida “yozishma”, “muktub”ga to‘g‘ri keladi. Yoqut ma’lumotlari asosida X-XIII asrlar mobaynida Xorazmda risola badiiy ijod turi keng tarqalganining guvohi bo‘lamiz. Lug‘atda Abu Bakr Xorazmiy (I. 109-112), Saxriy (II. 98), Hasan Naysaburiy al Xorazmiy (III. 128), Mahmud az Zamaxshariy (VII. 147), Rashidduddin Vatvot (VII. 91) va Ibrohim al Muiziy (1. 321) kabi adiblarning ajoyib risolalar bitgani va devonlar tuzgani qayd etilgan. Keltirilgan parchalardan risolalarning qariyb barchasi saj nasrida yoziygани ko‘zga tashlanib turadi. Bunga Abu Bakr Muhammad al Xorazmiy va Saxriy asarlari misol bo‘la oladi.

Nasrda risoladan tashqari ibratnoma, pand-nasihat, hikmatnoma, da’vatnoma va tarixiy ijod turlari ham mavjud bo‘lgan. Xorazm adiblari, xususan, Mahmud az Zamaxshariy mazkur nasriy badiiy ijod turlarining deyarli barchasida qalam

tebratgan.

1. “Al qalim an navobi fi al mavoiz” (“Va’zlardagi nozik iboralar”). Bu asarda muallifning hikmatli so‘zlari to‘plangan, Bu kitob bizga qadar yetib kelgan va tarjima qilinib “Nozik iboralar” nomi bilan nashr etilgan<sup>75</sup>.

2. “Atvoq az zahab fi al mavoiz” (“Va’zlardagi oltin shodalar”). Badiiy ijodning pand-nasihat turida yozilgan. Bugungacha yetib kelgan va bir qancha tillarga tarjima qilingan. “Adiblar lug“ati”da undan parcha berilgan. Saj nasrida yozilgan<sup>76</sup>.

3. “Nasoih al kibor” (“Katta nasihatlar”). Bu asar haqda qo’shimcha ma'lumotimiz yo‘q.

4. “Nasoih as sig‘ar” (“Kichkina nasihatlar”). Ba’zi olimlar bu asarni “Atvoq az zahab” bilan bitta deb hisoblaydi<sup>77</sup>. Ammo Yoqut ularni alohida-alohida bergen.

5. “Nuzhat ul mustaanis” (“Do‘sstar farog‘ati”). Bu asar ham bizgacha yetib kelgan va Istanbulning Oya Sofiya kutubxonasida 4331-raqam bilan saqlanadi.

XII asrlarda Xorazm adiblari asta-sekin arab tili bilan birga forsiyda ham risolalar yozib,

---

<sup>75</sup> <sup>75</sup> *Mahmud az Zamaxshariy. “Nozik iboralar”, (Sharhlar muallifi vya tarjimon Ubaydulla Uvatov), Toshkent, Kamalak, 1992.*

<sup>76</sup> <sup>76</sup> “Mu’jam ul udabo”, VII, 148-150-bet.

<sup>77</sup> <sup>77</sup> “Nozik iboralar”, 28-bet.

devonlar tuzishgan. Ammo turkiy risolalarga oid ma'lumotlar “Adiblar lug'ati”da uchramadi. Bu borada Rashiduddin Vatvot va Ibrohim al Muiziy ijodini eslash kifoyadir.

Xullas, “Adiblar lug'ati”dagi ma'lumotlar orqali X-XIII asr boshlariga qadar Xorazmda arab tili adabiyoti nazm va nasrda ham gurkirab rivojlangani va uning keyingi davrlarda turkiy hamda forsiy adabiyotga chuqur ta'sir ko'rsatganini ko'ramiz.

## **2. ILMIY FAOLIYAT YO'NALISHLARI TAVSIFI ADABIYOTSHUNOSLIK**

“Adiblar lug‘ati”da Xorazmlik allomalarining adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid faoliyatiga keng o‘rin ajratilgan va bu haqda boy ma’lumotlar berilgan.

Adabiyotshunoslik fani Xorazmda X asrdayoq taraqqiy topgan edi. Yoqut bu borada vazir Suhayliyning “Ravzat as Suhayliy fi al avsof va at tashbihot” (“Tashbihlar va qiyoslar to‘g‘risida Suhayliy bog‘i”)<sup>78</sup> va Beruniyning “Kitob ta’alul bi aholatil vahm fi ma’ani nazm ulal fazl” (“Fozillar nazmining ma’nilaridan bahramand bo‘lish”)<sup>79</sup> kabi asarlar ta’rif etganini aytib o‘tadi.

Shuningdek, XI asrda yashagan alloma Hasan an Naysaburiy al Xorazmiy ham adabiyotshunoslikka oid “Kitab tahzib ad devon al adab” (“Adab devoni”ga tuzatishlar) va “Kitab zilhu a’la tatimmat ad yatima lam aqafafa a’la asmihi” (“Yatima”da uchramaydigan ismlarga qo’shimcha”) asarlarini yozgan<sup>80</sup>. Nomlari qayd etilgan bu ikkala asar ham ulug‘ vatandoshlarimiz Is’hoq ibn Ibrohim al Farobiy (“Adab devoni”) va Abu Mansur as

---

<sup>78</sup>78 “Mu’jam ul udabo”. II. 102.

<sup>79</sup>79 “Mu’jam ul udabo”. VI. 308-310.

<sup>80</sup>80 “Mu’jam ul udabo”. III. 218-219.

Saolibiy (“Yatimmat ad dahr”) qalamiga tegishlidir. Hasan al Xorazmiy “Adab devoni”ga ayrim tuzatishlar kiritgan bo’lsa, keyingi kitobida esa “Yatimmat ad dahr”ga kirmay qolgan shoir va adiblar haqida ma’lumot yig‘ib, mazkur asarning davomi sifatida alohida kitob tuzgani nihoyatda e’tiborlidir.

Adabiyotshunoslikka oid bir nechta bebaho asarlar yozib qoldirgan allomalardan yana biri Mahmud az Zamaxshariydir. Lug‘atda uning “Al qustos fi al aruz” (“Aruzning aniq mezoni”) asari ko’rsatib o’tilgan<sup>81</sup>. Asarning to’la mazmuni bilan tanishib chiqmoqning imkonи bo’lmadi. Ammo u bizning zamonamizga qadar yetib kelgani va 1970-yilda Iroqlik olma Bahiyja Boqir al Husniy tomonidan Najafda “An Numon” matbaasida tanqidiy nashri chop etilgani ma’lum<sup>82</sup>.

Zamaxshariyning “Asosul balog‘a fi al lug‘a” (“Til fasohati asoslari”) asari ham adabiyotga doir bebaho asarlardan hisoblanadi. Mazkur asar Hoji Xalifaning “Kashf az zunun” asarida ham qayd etilgan. Hoji Xalifa u haqda: “Hajmi katta, mazmuni boy. Unda adabiyotning o’ziga xos jihatlari, lug‘aviy majozlar va go’zal badiiy iboralar alohida boblarda

---

<sup>81</sup> 81 “Mu’jam ul udabo”. U II. 147-150.

<sup>82</sup> “Nozik iboralar”, 26.

berilgan. Bu asar adab fanining mustahkam asosidir”, – deb yozadi<sup>83</sup>.

“Asosul balog‘a” asarining bir nodir nusxasi O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 5234-raqami bilan saqlanmoqda.

Uning “Rabiy’ ul abror fi al adab va al muhozirot” (Adab va va’zlarda yaxshilar bahori”) asari ham adabiyotshunoslikka oid kitoblar sirasiga kiradi. Bu asarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari turli mamlakatlar kutubxonalarida (Bag‘doddagi “Al Avqof” kutubxonasi 9786; Berlin 8351, 8352, 8353; Leyden 470; Qohiradagi “Dorul kutub” 155-raqamlari bilan) saqlanmoqda<sup>84</sup>.

Zamaxshariydan keyingi davrlarda adabiyotshunoslik ilmining yirik vakili Qosim Xorazmiydir. Yoqut lug‘atda Qosim Xorazmiyning “Xilvat arriyohin fi al muhozirot” (“Ma’ruzalardagi yashirin kuch-qudrat”), “Kitab u’jalat as safar fi ash she’r” (“She’rni tez fursatda o’rganish kitobi”), “Badoi’ al mulah” (“Go’zallik badiiyatlari”) va “Kitab al muxasala lil muxsилат fi al bayon” (“Notiqliqni o’rganishda hosil bo’lgan foydalar”) kabi adabiyotga tegishli asarlari borligi to‘g’risida xabar beradi<sup>85</sup>.

---

<sup>83</sup> 83 Hoji Xalifa. “Kashf az zunun”, I, 89.

<sup>84</sup> 81 “Nozik iboralar”, 32.

<sup>85</sup> 85 “Mu’jam ul udabo”, UI, 162.

Biroq Qosim Xorazmiyning mazkur asarlari bizgacha yetib kelgan-kelmagani ma'lum emas. Ba'zi mualliflar uning asarlari mug'ul-tatar galalaringin Xorazmga hujumi paytida yo'q qilingan bo'lsa kerak, deb gumon qiladi<sup>86</sup>. Faqat shayx Hoji Xalifa uning "Badoi' al mulax" asarini ko'rganini ta'kidlaydi<sup>87</sup>. Shunga ko'ra, balki uning boshqa asarlari ham butunlay yo'qolib ketmagandir, qayerlardadir saqlanib yotgandir, ehtimol.

Yoqut lug'atda yana bir xorazmiy adabiyotshunos Abu Is'hoq Ibrohim al Muziyning "Al vasoil ila rasoil nasr" ("Nasriy risolalar bitish usullari") asarini qayd etib o'tgan<sup>88</sup>. Ma'lumki, Muiziy Qosim Xorazmiy kabi mug'ul-tatarlar hujumi arafasida Xorazmda yashayotgan edi. Balki shafqatsiz jang-u jadallar davomida uning asarlari ham yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin. Chunki boshqa manbalarda Mu'iziy va uning ijodiy faoliyati to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar uchratmadik.

---

<sup>86</sup> Uvatov U. "Donolardan saboqlar". Toshkent. Abdulla Qodiriy, 1994, 37.

<sup>87</sup> "Kashf az zunun", 1, 188.

<sup>88</sup> "Mu'jam ul udabo", 1, 321.

## TARJIMA VA SHARHLAR

“Adiblar lug‘ati”dagi ma’lumotlarga ko‘ra Xorazm adab va ilm ahli sharq olamida mavjud bo‘lgan ko‘plab asarlarga bir qancha sharhlar yozgan hamda ulardan tarjimalar qilg‘an. Ayniqsa, bu X va XIII asr boshlaridagi allomalar ijodiy faoliyatida ko‘proq kuzatiladi.

Yoqut Abu Rayhon Beruniyning bir necha asarlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganini bayon qilar ekan, Marv jome’ masjidining vaqf kutubxonasida uning asarlari ro‘yxatiga ham ko‘zi tushganini aytadi. Yoqutning ta’kidlashicha, bu ro‘yxatning hajmi 60 varaqqa yaqin bo‘lgan<sup>89</sup>. Boshqa manbalardan ma’lum bo‘lishicha, mazkur ro‘yxatni Beruniyning o‘zi tuzgan va u bizgacha yetib kelgan<sup>90</sup>.

Beruniy mazkur ro‘yxatida “Tarjuma kitab mavolid as sag‘ir al barohayimer” (“Barohayimerning “Mavolid as sag‘ar” kitobi tarjimasi”), Hadis qasim as surur va aynul hayot (“Shodlik hamnishini va hayot chashmasi”), “Tarjuma qissa Vomiq va Uzro” (Vomiq va Uzro qissasi tarjimasi”),

---

<sup>89</sup> <sup>89</sup> “Mu’jam ul udabo”, VI, 308-310.

<sup>90</sup> Rasulov A. Beruniyning o‘z asarlariga o‘zi tuzgan ro‘yxati. Beruniy tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga bag‘ishlangan to‘plam. Toshkent, OAN, 1973-y. 230-244.

“Hadis sanami Bomiyon” (“Bomiyon sanami dostoni”), “Hadis Urmizdiyor va Mehriyor”, (“Urmizdiyor va Mehriyor dostoni”), “Hadis dodmah va qiromaduht” (“Dodmah va Qiromiduht dostoni”), “Hadis nilufar fi qissa dabisti va barobahokar” (“Dadisti va Barobahokar qissasidagi Nilufar dostoni”), “Tarjuma kalab yora” (“Kalabyora tarjimasi”) kabi o‘zi tarjima qilgan asarlari xususida ma’lumot beradi. Biroq Beruniyning bu tarjima asarlari bugungacha yetib kelgani noma’lum.

“Adiblar lug‘ati”da turli asarlarga yozilgan sharhlarga tegishli ma’lumotlar esa nihoyatda qiziqarli va salmoqlidir. Sharqda islom madaniyati paydo bo‘lishi bilan ilmning ko‘plab yangi tarmoqlari vujudga kelganidek, borlari ham o‘ziga xos yangicha taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilib, shiddat bilan rivojlana boshladi. Ko‘pincha adabiyot yoki fanning biror sohasida yaratilgan muhim asarlar vaqt o‘tishi bilan til nuqtayi nazaridan yo, umuman, ifoda vositalarining o‘zgarishi, yo ma’lum vaqtdan so‘ng ijtimoiy munosabatlarning tubdan o‘zgarib oldingilaridan farq qilib qolishi kabi holatlar ularni sharhlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shunga o‘xshash sabablar tufayli ba’zan bitta asarga bir nechталаб sharh va hoshiyalar yozilganining guvohi bo‘lamiz.

Sharh asarlar haqida gap ketar ekan, avvalo, Beruniyning “Kitab sharh she’r Abu Tammom” (“Abu Tammom she’rining sharhi”)<sup>91</sup> asarini ko’rsatib o’tish joizdir. Beruniy o’z asarlari ro’yxatida mazkur she’rning alif qofiyasini sharh etganini yozadi.

Shuningdek, alloma Zamaxshariy ham bu borada “A’jabul a’jab sharh lomiyatul arab” (“Lomiyat ul-arab”ning ajoyibdan ajoyib sharhi”) va “Sharhi maqomat” (“Maqomlar sharhi”) asarlarini ta’rif etgan. Ushbu sharhlarning dastlabgisi johiliya davri arab shoiri Sobit ibn al Avas al Azdiy ash Shanfaraning<sup>92</sup> (v.510) “Lomiyatul arab” nomli mashhur qasidasiga yozilgan. Ikkinchisi esa Zamaxshariy o’z maqomlarini izohlab yozgan sharhidan iborat. Bu ikki asar ham bizning davrimizgacha yetib kelgan va xorijda bir necha bor chop qilingan<sup>93</sup>.

Ilm ahli o’rtasida “Zamaxshariy xalifasi” deb nom qozongan Abul Fath Nosir al Mutarriziyning “Xaririyl maqomlariga sharh”i ham o’z davrida ko’pchilikning e’tiborini qozongan<sup>94</sup>. Hoji Xalifaning

---

<sup>91</sup>91 *Abu Tammom /190-228/ /797-843/ mashhur arab shoiri o’n bobdan iborat “Kitab al hamosa”, “Jasurlik haqida kitob” asarini yozgan.*

<sup>92</sup>92 *Ash Shanfara o’z davrida shoirlig bilan birga qaroqchi-yo’lto’sarlikda ham nom qozongan.*

<sup>93</sup>93 “Nozik iboralar”, 38, 39.

<sup>94</sup>94 *Abu Muhammad Qosim ibn Ali al Xariri /1054-1122/ “makoma” badiiy ijod turi asoschisi Abul Fazl al Hamadoniyning ko’zga ko’ringan*

ta'kidlashicha, Mutarriziy Haririy maqomlarini ilmiy tahlil qilib, uning ma'nosi, bayon tartibi va badiiylik qoidalari to'g'risida yozgan<sup>95</sup>.

Boshqa asarlarga sharhlar yozish bobida "Fozillar peshvosi" Qosim al Xorazmiy ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. Yoqut lug'atda uning "Kitab as sabiq fi sharhi ayzan vasat" ("Vasat sharhi" dagi yombi), "Kitab at tajmir fi sharhi al mufassal ayzan basit" ("Basit"ning mufassal sharhi" to'plami")<sup>96</sup>, "Kitab sharh saqt az zand" ("Saqt az zand" sharhi kitobi), "Kitab al mujmar fi sharhi al mufassal sag'ir" ("Kichkina mufassal sharhidagi ko'r kitob"), "Kitab at tavozix fi sharh al maqomat" ("Maqomalar sharhi"ga tushuntirishlar"), "Kitab sharh al mufrad va al muallaf" ("Mufrad va ap muallaf" sharhi), "Kitab sharh unmuzaj" ("Unmuzaj" sharhi), "Kitab sharh al ahoji jorulloh" ("Ahoji Jorulloh" asari sharhi") va "Kitab sharh al yaminiy lil utbiy" ("Utbiyning tarixi Yaminiy asari sharhi") kabi sharh asarlar yozganini qayd etadi<sup>97</sup>.

Sanab o'tilgan ushbu sharhlardan "At tajmir", "Sharh ahoji jorulloh", "Sharh saqt az zand", "Sharh

---

davomchilaridan biri.

<sup>95</sup>95 "Kashfa zunnun", 11, 497.

<sup>96</sup>96 Bu ikki asar mashhur tilshunos va mufassir Abul Xasan al Vohidiyning /v.468//1075/ "Tafsir ul qur'an al vohidiy" asaridagi "Vasit at tafsir" va "Basit at tafsir" nomli ikki qismiga yozilgan sharh bo'lsa kerak.

<sup>97</sup>97 "Mu'jam ul udabo", U1, 161, 162.

maqomat” asarlari bizga qadar yetib kelgan<sup>98</sup>. Mazkur sharhlar, asosan, tilshunoslikka doirdir. Faqat “Maqomlar sharhi” adabiyotga tegishlidir<sup>99</sup>.

Abu Is’hoq al Mu’iziyning “Sharh kalila bil forsi” va “Anmuzarnoma yashta’mal a’la abyat g’aribat min kalila va dimnaxi sharhi bil farsiya” (“Kalila va Dimnaning g’aroyib baytlaridagi ibratnomaning forsiy sharhi”) XIII asr Xorazm adabiy muhitida fors tilida yaratilgan sharh asarlardan nodir namunalar hisoblanadi.

## TILSHUNOSLIK

Yoqut yozib qoldirgan ma’lumotlarni sinchiklab ko’zdan kechirganimizda Xorazm zaminida XII asrdan to mug’ul-tatarlar bosqiniga qadar tilshunoslik fanining gurkirab rivojlangani hamda Xorazm tilshunoslik maktabi paydo bo’lib, muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritganiga amin bo’lamiz. Mahmud az Zamaxshariyni haqli ravishda bu maktabning asoschisi deb atashimiz mumkin. Zero, uning bu sohada o’nlab bebahoh asarlar yozib qoldirgani va o’z o’rnida keyinchalik shogirdlari

---

<sup>98</sup> Bronelman /SB/, I, 292.

<sup>99</sup> “Kashf az zunun”, II, 497.

ham Xorazmda tilshunoslik fanining yanada taraqqiy topishiga salmoqli hissa qo'shgani fikrimizning yorqin dalilidir. Zamaxshariy asarlari o'z vaqtida ko'plab sharq mamlakatlarida shuhrat topishi bilan birga hatto bugungi kunda ham undan arab tilini o'rghanish bo'yicha nufuzli manbalardan biri sifatida foydalanib kelinmoqda. "Adiblar lug'ati"da uning tilshunoslikka oid quyidagi asarlari qayd etilgan.

1. "Al mufassal fi an nahv iyzan" ("Nahvning mufassal bayoni"). Bu asar arab tili qurilishi qonun-qoidalariga bag'ishlangan. Uning bir qo'lyozma nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq-shunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida 5198 raqami bilan saqlanadi. U qisqacha "Al mufassal" deb ham yuritiladi. Unga bir necha sharhlar yozilgan va boshqa tillarga tarjima qilingan<sup>100</sup>. Zamaxshariy bu asariga qo'shimcha qilib yana "Xoshiyat a'la al mufassal" va "Sharh al mufassal" asarlarini ta'lif etgan<sup>101</sup>.

2. "Al unmuzaj fi an nahv" (Nahvg'a oid namunalar"). Yuqorida zikr etilgan kitobning muxtasar holga keltirilgan shaklidir. Bizgacha yetib kelgan va jahoning ko'plab olimlari tomonidan

---

<sup>100</sup> Uvatov ushbu asarni "Al mufassal fi san'at al i'rob" (o'zgarishlar san'atining mufassal bayoni) deb ataydi. (Nozik iboralar, 25)

<sup>101</sup> 101 "Mu'jam ul udabo", UII, 151.

o'rganilgan. Uning bir qancha qo'lyozma nusxalari dunyodagi turli kutubxonalarda asrab kelinmoqda<sup>102</sup>.

3. "Al mufrad va al muallaf fiyxi iyzan" ("Birlik va ko'plik haqida"). Bu asar ham bugunga qadar yetib kelgan va ilmiy tadqiq etilgan<sup>103</sup>.

4. "Samiym al arabiya" ("Arab tilining negizi"). Taniqli sharqshunos Ubaydullo Uvatov ba'zi olimlar Zamaxshariyning bunday asari borligidan shubhalanishini aytadi va Bag'doddagi Iroq Milliy muzeyi qoshidagi kutubxonada shu nom bilan bir qo'lyozma asar (qayd raqami 1002) saqlanishi haqida xabar beradi. Keltirilgan ma'lumotga ko'ra, o'sha kitob g'ilofiga "Bu alloma Jorulloh az Zamaxshariy qalamiga mansub "Asosul lug'at" asarining muxtasar shaklidir" deb yozilgan ekan. Shu o'rinda Uvatov Zamaxshariyning bunday asari yo'qligini ta'kidlab, balki bu yerda "Asos ul balog'a" asari nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak" deb fikr bildiradi<sup>104</sup>. To'g'ri, ko'pgina tarixiy manbalarda bu asar qisqagina "Asos ul balog'a" deyiladi. Ammo bu nom faqat "Adiblar lug'ati"da "Asos ul balog'a fi al lug'at" deb mukammal berilgan (Bu asar adabiyot va tilning o'zaro bog'liq jihatlari to'g'risidagi

---

<sup>102</sup><sup>102</sup> "Nozik iboralar", 31.

<sup>103</sup><sup>103</sup> "Nozik iboralar". 35.

<sup>104</sup><sup>104</sup> "Nozik iboralar", 33.

kitobligini avvalda aytib o'tdik). Xullas, bu borada bizning fikrimiz shunday – Bag'dod kutubxonasi dagi "Samiym al arabiya" asari, balki, Zamaxshariyyniki emasdir. Ammo bu Zamaxshariyning unday kitobi yo'q degani emas hali. Chunki Yoqut ham bu asarni uning boshqa kitoblari qatorida alohida ta'kidlab o'tgan<sup>105</sup>.

5. "Javohir ul lug'at" ("Til javohiri"). Tilga oid bu asar haqida boshqa manbalarda ma'lumot uchratmadik.

6. "Kitab al asma' fi al lug'at" ("Tildagi ismlar"). Ba'zi olimlar uni "Muqaddimat ul adab"ning bir bo'lagi degan fikrdalar<sup>106</sup>.

7. "Al amoli fi an nahv" ("Nahvda imlo tartiblari"). Hoji Xalifa shunga o'xshash "Amoli jorulloh" asari borlig'ini qayd etgan<sup>107</sup>.

8. "Sharh kitab sibvayx" ("Sibvayx kitobi sharhi"). Mashhur arab tilshunosi Sibvayxning tilga oid asariga yozilgan sharh<sup>108</sup>.

9. "Al mufrad va al murakkab fi al arabiya" ("Arab tilida birlik va ko'plik").

Zamaxshariyning shogirdi Abul Fazl al

---

<sup>105</sup> 105 "Mu'jam ul adabo", 151.

<sup>106</sup> 106 "Nozik iboralar", 40.

<sup>107</sup> 107 "Kashf az zunun", 148.

<sup>108</sup> 108 Abu kasir Amru ibn Usmon Sibvayx /770/ Basra tilshunoslik maktabi asoschisi. Uning asari hozir ham arab tili darsligi sifatida o'qitiladi.

Baqqoliy al Xorazmiy ham tilshunoslik bobida ustozi kabi yetuk alloma bo'lgan. Baqqoliy tilshunoslikka oid "Al a'jab fi al i'rob" ("Til o'zgarishlaridagi ajoyibotlar") va "Taqvim al lison fi an nahv" ("Nahvda til tuzilishi") asarlarini ta'rif etgan. Bu ikki asar ham Hoji Xalifa tomonidan qayd etilgan<sup>109</sup>.

Xorazm tilshunoslik maktabining yana bir yirik vakili Abul Fath al Mutarriziyydir. "Adiblar lug'ati"da Mutarriziyning tilga oid "Al iqna' fi al lug'at" ("Tilni qanoatlantiruvchi"), "Al muqaddimat ul mutarriziya fi an nahv" ("Mutarriziyning nahvga oid muqaddimasi") va "Al misboh fi an nahv iyzan muxtasar" ("Nahvdagi ayrim qisqartmalar yoritkichi") asarlari berilgan. Mutarriziyning bu asarlari o'z davrida mashhur bo'lgan va ular haqida ba'zi tarixiy manbalarda ma'lumotlar uchraydi<sup>110</sup>.

Mutarriziyning shogirdi ko'p qirrali iste'dod sohibi Qosim al Xorazmiyning tilshunoslikka doir asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. O'rni kelganda shuni ta'kidlab o'tish joizki, Qosim al Xorazmiy, Abu Isxoq al Mu'iziy va Abu Yaqub as Sakkokiylar Zamaxshariy asos solgan Xorazm tilshunosligi maktabining so'nggi vakillari

---

<sup>109</sup> 109 "Kashf az zunun" 120, 321.

<sup>110</sup> 110 "Kashf az zunun", 448.

hisoblanadi. Chingizzon qo'shinlari Xorazm sultanatini istilo qilgach, boshqa fanlar qatori bu maktab ham deyarli zavolga yuz tutadi. Nomlari zikr qilingan ushbu tilshunoslar esa bosqinchilar tomonidan shahid qilingan.

Adabiyotshunoslikka oid bundan oldingi tadqiqotimizda Qosim al Xorazmiyning talaygina sharhlar yozganini ko'rib o'tdik. Ayni paytda Yoqut uning "Ajoyib an nahv" ("Nahv ajoyibotlari"), "As sir fi al i'rob" ("Tildagi o'zgarishlar siri"), "Sharh al abniya" ("O'zgarmas shakllar sharhi"), "Az zavaya va al xabaya fi an nahv" ("Nahvning pinhon va to'ldirilmagan tomonlari") kabi tilga oid asarlar yozganini ham ko'rsatib o'tadi.

Abu Is'hoq al Mu'iziyning tilga oid "Ta'rif shavohid at tasrif" ("Tuslashga doir ma'lumotlar") va Abu Yaqub as Sakkokiyning o'n ikkita ilmga oid "Muftoh ul ulum" ("Ilmlar kalitlari") asarlarigina berilgan. Hoji Xalifa "Muftoh ul ulum"ning tilshunoslikka tegashli bo'limlari haqida gapirib o'tgan<sup>111</sup>.

---

<sup>111</sup> "Kashf az zunun", 480.

## LUG‘ATSHUNOSLIK

Xorazmda lug‘atshunoslik mustaqil yo‘nalishda rivojlandi va ayni paytda tilshunoslik ilmining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib qoldi. Xorazm lug‘atshunosligi fani ham Zamaxshariy nomi bilan bog‘liqdir. U o‘zining mashhur “Muqaddimat ul adab fi al lug‘at” (“Til odobining boshi”) asari bilan bu zaminda lug‘atshunoslik ilmini boshlab berdi. Bu asar ma’rifatparvar xorazmshoh Alouddavla Abul Muzaffar Otsizga bag‘ishlab yozilgan. Undan arab, turk va forsiy so‘zlar lug‘ati joy olgan. Asarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan va dunyoning ko‘pgina kutubxonalarida saqlanmoqsa. Xorijiy mamlakatlarda bir necha marta nashr ham etilgan<sup>112</sup>.

Lug‘atning bir necha nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida ham uchraydi. Shuningdek, undan ayrim kichik parchalar mamlakatimizda chop etilgan<sup>113</sup>.

Zamaxshariydan so‘ng bu sohaning rivojlanishi Abul Fath al Mutarriziy ijodida o‘z aksini topgan. Uning “Al mug‘rib fi g‘arib alfoz ul fuqaho”

---

<sup>112</sup> 112 “Nozik iboralar”, 37,38

<sup>113</sup> Rustamov A. Makmud Zamaxshariy. Toshkent FAN 1971, 17-30.

(“Faqihlarning notanish so‘zlaridan g‘aroyibotlar”) asari ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lganligi sababli ilm ahli orasida mashhur bo‘lib ketdi. “Bu asar muallifning kuchli lug‘atshunos bo‘lganligini ko‘rsatibgina qolmay, unga katta shon-shuhrat ham keltirdi. Ko‘pgina o‘rta asr manbalarida al Mutarriziyning nomi to‘liq keltirilmasdan “Sohib al Mug‘rib” (“Al Mug‘ribning muallifi”) deb atalavergan” deydi sharqshunos olim A.Habibullayev o‘zining bu asar haqidagi ilmiy maqolasida<sup>114</sup>.

Hoji Xalifa Zamaxshariyning shogirdi Abul Fazl al Baqqoliyning ham lug‘atshunoslikka oid “Jami at taforiq fi al furu” (“Bo‘laklardagi farqlar to‘plami”) asarini ta’lif etgani to‘g‘risida xabar beradi<sup>115</sup>. Bu asarni A.Habibullayev ham yuqorida eslatilgan maqolasida aytib o‘tadi va Mutarriziy o‘zining “Al mug‘rib” lug‘atini tuzishda undan iste’foda etganini yozadi.

---

<sup>114</sup> Habibullayev.A. “Al Mutarriziyy va uning “Al mug‘rib” asari”, 1995. 6-son. 81,82.

<sup>115</sup> 115 “Kashfa zunnun”. I. 397.

## **JO‘G‘ROFIYA**

Jo‘g‘rofiya – islom olamida eng rivojlangan fanlardan biri hisoblanadi. Bu sohada behisob kitoblar yozilgani tarixiy manbalardan ma’lum. Bu fan rivojining sabablaridan biri qiblani aniqlash masalasi edi. Ma’lumki, barcha musulmonlar ibodat chog‘ida qiblaga yuzlanishlari lozim. Qibla esa birovga kun botishda bo’lsa, boshqa birovga kun chiqish tarafda edi. Xullas, qiblaning ibodat qiluvchiga nisbatan qaysi tomondaligini aniqlash uchun, albatta, jo‘g‘rofiy ilm zarur edi. Busiz bo‘lmasdi. Shu sababli islom keng tarqalgan mamlakatlarda jo‘g‘rofiya faniга e’tibor qaratilib, uning rivojiga, albatta, ma’lum darajada ijobiy darajada ta’sir ko‘rsatdi.

Jo‘g‘rofiya ilmi Xorazmda qadimiy tarixga ega. Ammo “Adiblar lug‘ati”da jo‘g‘rofiyaga doir ma’lumotlar Abu Rayhon Beruniydan boshlanadi. Shunda ham Yoqut uning birorta jo‘g‘rofiy asari haqida gapirmagan. Faqat uning ilmi hayat, mantiq, hikmat va boshqa sohalarga oid asarlari ro‘yxatini ko‘rganini aytgandik. O‘scha ro‘yxatda Beruniy o‘zining jo‘g‘rofiyaga tepshli 15 ta asarini nommnom sanab o‘tadi.

Beruniydan keyingi davrlarda jo‘g‘rofiy asarlar

yozgan allomalarga yana Mahmud az Zamaxshariy yetakchilik qiladi. “Adiblar lug‘ati” da uning jo‘g‘rofiyaga oid “Mu’jam al hudud” (“Hududlar lug‘ati”) va “Kitob al jibal va al amkina” (“Tog‘lar va joylar haqida kitob”) kabi asarlari mavjuddigi ko‘rsatilgan. “Mu’jam al hudud” haqida Ibn Xallikon va Hoji Xalifa ham eslatib o‘tgan. “Kitob al jibal va amkina” asarining esa bugungacha yetib kelgani hamda Leyden (1856) va Bag‘dod (1838) shaharlarida chop etilgani to‘g‘risida ma'lumotlar bor. Yoqut o‘zining “Mu’jam ul buldon” asarini yozishda bu asardan foydalangani ham diqqatga sazovordir.

Ali ibn Muhammad al Imroniyning “Kitob al mavoze’ va al buldon” (Mavzelar va shaharlar kitobi”) va Abul Fazl al Baqqoliyning “Kitob manozil arab” (Arab manzillari haqida kitob”) asarida ham mug‘ullar istilosiga qadar Xorazmda ilm-fanning barcha sohalari gurkirab rivojlanganidan dalolat beradi.

## TARIX VA BOSHQA SOHALAR

“Adiblar lug‘ati” da Xorazm adiblarining tarixiy asarlari jusa kam berilgan. Jumladan, Yoqut Beruniyning “Kitob al musomara fi axbar Xorazm” (“Xorazm tarixi haqida suhbat kitobi”), Hasan al Xorazmiyning “Kitob ziyodat xabar Xorazm” (“Xorazm haqida kerakli ma'lumotlar”) va Qosim al Xorazmiyning “Sharh Yaminiy”<sup>116</sup> asarlarini ko'rsatib o'tadi. Ammo bu uchala asarning bizgacha yetib kelgani ma'lum emas. Ularning orasida faqat Beruniyning asaridan ba'zi kichik parchalar Abu Fazl al Bayhaqiyning “Tarixi Ma'sudiy” asarida saqlanib qolgan<sup>117</sup>.

Shuningdek, lug‘atda mantiq ilmiga oid ma'lumotlar ham uchraydi. Hasan al Xorazmiyning “Kitab tahzib isloh al mantiq” (“Isloh al mantiq” asariga tuzatishlar), Mutarriziyning “Muxtasar isloh al mantiq al ibn as siqqiyt” (“Ibn Siqqiytning “Isloh al mantiq” asariga qisqacha sharh”) va Abu Is'hoq al Mu'iziyning “Kaftarnomaxi mantiq” (“Sirtlannoma” ning mantiqiy jihatlari”) kabi asarlari shular jumlasidandir.

Umuman, Yoqut ma'lumotlarida Xorazm ilmiy-

---

<sup>116</sup> 116 Sulton Mahmud G'aznaviy tarixchisi Utbiy asariga sharh.

<sup>117</sup> 117 Абул Фазл Бейхаки. “История Маъсуда” (1030-1041). Toshkent, Fan, 1962 y. 808-b.

adabiy muhiti X-XIII asr boshlariga qadar fanning deyarli barcha muhim sohalari bo'yicha izchil rivojlanib borganini ko'ramiz.

## **DINIY IMLALAR HADIS**

Mavoraunnahr, Xorazm va Xuroson o'lkalari islom dinining taraqqiy etishida o'ziga xos o'ringa ega. Ma'lumki IX-X asrlarda O'rta Osiyoning Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz va Marv kabi yirik shaharlarida hadischilik maktablari shakllanib, muvaffaqiyat bilan faoliyat olib bordi. Ayni chog'da Ismoil al Buxoriy (IX), Abu Iso at Termiziy (IX), Muslim ibn Hajjoj (IX), Abu Muhammad ad Daromiy (IX) kabi hadis ilmining zabardast allomalari xuddi mana shu daholar meros qoldirgan ma'naviyat chashmalaridan hozirga qadar jahonning ko'pgina xalqlari bahramand bo'lib kelmoqda.

“Adiblar lug‘ati” da ushbu allomalarning ilmiy faoliyatiga bog‘liq bir qancha qiziqarli ma'lumotlar uchraydi (Ammo Yoqut ularning birortasiga alohida maqola ajratmagan).

Xo'sh, X asrdan XIII asr boshlariga qadar Xorazmda hadis ilmi qay darajada bo'lgan va bu hol “Adiblar lug‘ati” da qanday aks etgan?

Biz agar “Adiblar lug‘ati” dan 21 nafar

xorazmlik adib va allomalarining hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlarni aniqlab, tadqiq etgan bo'lsak, ish jarayonida ularning hadis ilmiga oid nihoyatda kam asarlar yozgani ma'lum bo'ladi. Shunday asarlardan biri Abu Bakr Ahmad al Barqoniyning “Masnad al Xorazmiy” asaridir. Barqoniy o'z davrida yirik muhaddislardan biri bo'lgani haqida manbalarda ma'lumotlar uchraydi<sup>118</sup>.

Yoqut lug'atda Mahmud az Zamaxshariyning ham “Al foiq g'arib ul hadis” (“G'aroyib hodisalar haqida ajoyib asar”) kitobi borligini aytib o'tgan<sup>119</sup>.

Zamaxshariyning mazkur asari alifbo tartibida, lug'at tarzida tuzilgan. Bizgacha yetib kelgan va ilm ahli tomonidan yuksak baholanib, sharq mamlakatlarida bir necha bor nashr etilgan<sup>120</sup>.

Albatta, Xorazmda ham hadis ilmi anchagina rivojlangan bo'lgani shubhasiz. Faqat bu hol “Adiblar lug'ati” da o'zining yetarlicha ifodasini topmagan ko'rindi. Zero, muallif o'z oldiga badiiy ijodga tegishli ma'lumotlarni yoritishni asosiy maqsad qilib qo'ygani sababli shunday bo'lishi tabiiy edi.

---

<sup>118</sup> 118 Hind Husayn Toho. “Al adib al arabi fi iqlim Xorazm”. Bag'dod, 1976, 72 (Bundan keyin “Al adib al arabi”).

<sup>119</sup> 119 “Ma'jum ul udobo”. VII. 150.

<sup>120</sup> “Nozik iboralar”. 29

## TAFSIR

Tafsir ilmi islom olamidagi obro'li ilmlardan biri hisoblangan. Ulamolar u haqda shunday deyishgan:

“Tafsir – inson qudrati yetguncha Qur’oni Karimdagi Allohning murodini o’rganadigan ilmdur”<sup>121</sup>. Qur’onni tafsir etishning usullari turlicha bo’lgan va shulardan ko’proq uch xil tafsir musulmon ulamolariga ma’qul kelgan.

1. “Tafsir bil ma’sur” – Qur’on oyatlari rivoyat qilingan sahih hadislar orqali tafsir qilinadi.

2. “Tafsir bir ray” – mufassir qurbi yetgunicha o’z ilmi, fikri bilan tafsir etadi. O’z navbatida bu tafsir joiz va nojoiz tafsirga bo’linadi.

a) joiz – ishonchli dalillarga tayangan holda, ilm yo’li bilan qilingan xolisona tafsir;

b) nojoiz – Qur’onga nisbatan ko’ngilda qora, g’araz saqlab, uni buzib ko’rsatish va badnom qilish uchun qilingan johilona tafsir.

3. “Tafsir ishoriy” – bu tariqat ahli uslubi bo’lib, unda Qur’onning zohiriyligi ma’nilaridan tashqari maxfiy (botiniy) tushunchalariga ham chuqur e’tibor qaratiladi<sup>122</sup>.

Tafsir ilmi o’rta asrlarda yurtimizda juda

---

<sup>121</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsifî hilol” (30 Amma porasi), Toshkent, Mavarounnahr, 1992.

<sup>122</sup> “Тафсифи ҳилол” (30 Амма пораси), 183, 184; Ислам. Энциклопедический словарь. Москва, Наука, 1991 г., 133, 134.

kamoliga yetgan edi. Jumladan, ulug' vatandoshlarimiz Ismoil al Buxoriy, Imom Motrudiy, Ibn Mu'qla, Umar an Nasafiy, Faxriddin Roziy, Abul Barokat an Nasafiy, Yoqub Charxiy kabi yana qanchadan-qancha mufassirlar tafsirlari islom olamida mashhur bo'lgan.

"Adiblar lug'ati" dagi ma'lumotlarga ko'ra, tafsir ilmi Xorazmda XII asrda kuchayadi. Bir qancha taniqli mufassirlar yetishib chiqadi. Ularning orasida eng mashhuri Mahmud az Zamaxshariy edi.

Zamaxshariyni islom olamiga mashhur etgan asarlaridan biri uning "Al kashshof fi tafsir al qur'an" ("Qur'on murodini ayon etuvchi") tafsiridir<sup>123</sup>. Bu asarning ahamiyati o'z davrida yuksak baholangani kabi, bugungi kunda ham nihoyatda qadrlanadi. Zamaxshariy mazkur shoh asarini Makkada yashagan paytlari uch yil davomida (1132-1134) yozib tugatgan. Bu ishda o'ziga xos ravishda yondoshgan. Ya'ni tafsir davomida Qur'onning til qurilishiga ko'proq e'tibor qaratib, uning mohiyatini teranroq ochib berishga harakat qilgan. Ibn Xallikon va yana ba'zi ulamolar "Al kashshof" ni mutaziliy qarashdag'i tafsir deb, talqin etganlar<sup>124</sup>.

---

<sup>124</sup> 123 "Mu'jam ul udabo". VII, 150; U. Uvatov: Asarning to'liq nomi. "Al Kashshof an haqoiq it tanziyl va uyun il akoniyl fi vujuh it ta'viyl" deb ko'rsatgan. (Nozik iboralar, 42).

“Al kashshof” tafsiriga o‘nlab sharhlar va hoshiyalar yozilgan hamda uning yuzga yaqin qo‘lyozma nusxalari bizning davrimizga yetib kelgan. U.Uvatov Zamaxshariy dastxati bilan yozilgan uning bir nodir nusxasi Tehron kutubxonasida saqlanishi haqida xabar beradi<sup>125</sup>.

Zamaxshariyning tafsirga oid yana bir asari ma’lum bo‘lib, Yoqt uni “Nuqat ul a’rab fi g‘arib al i’rob” yoki “Nuqat ul a’rab fi g‘arib al qur’an” (“Qur’onning g‘aroyib ifodasida arablar nafosati”) deb atagan<sup>126</sup>. Bu asar ham bizga qadar yetib kelgan. Kohiradagi “Dor ul kutub al misriya” kutubxonasida uning bir qo‘lyozma nusxasi saqlanishi va asosini “Al kashshof” dan olingan masalalar majmui tashkil etishi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud<sup>127</sup>.

“Adiblar lug‘ati” da Ali ibn Iroq as Sinnoriyning “Shmarix ad durur fi tafsir al qur’on” (“Qur’on tafsirida durlar marjoni”) hamda Zamaxshariyning shogirdi Ali ibn Muhammas al Imroniyning “Kitob fi at tafsir al qur’an” (“Qur’oni tafsiri”) asarlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar uchraydi<sup>128</sup>.

---

<sup>124</sup> “Vafoyot ul a’yon”, O’zFAShI 11723, 11. 83; Kashf az zunun, 11. 310.

<sup>125</sup> 125 “Nozik iboralar”, 44.

<sup>126</sup> 126 “Mu’jam ul udabo”, VII. 151.

<sup>127</sup> “Nozik iboralar”, 36.

<sup>128</sup> 128 “Mu’jam ul udabo”, U. 275; 412.

## **FIQH**

Fiqh ilmi shari'at qonun-qoidalari asosida siyosat yurituvchi davlatning huquqiy tizimini aks ettiruvchi fandir.

Islom ta'limoti hukmron bo'lgan o'rta asrlarda fiqh sohasi o'zining eng yuksak cho'qqilariga ko'tarildi. Chunki jamiyat va ilm-fanning ravnaq topishi uchun, albatta, shu jamiyatning barcha a'zosi birdek rioya qiladigan ma'lum bir mukammal huquqiy tizim zarur edi va bunday tizim asrlar davomida fiqh ulamolari tomonidan ishlab chiqildi hamda rivojlantirildi. Bu sohada faoliyat yuritgan Abu Hafs al Kabir al Buxoriy (IX), Imom Motrudiy (X), Umar an Nasafiy (XII), Burhoniddin al Marg'inoniy (XII) va Kaydoniy (XIV) kabi bir qancha ulug' faqihlar shu yurtning shonli farzandlari ekani barchaga ayon.

"Adiblar lug'ati" dan Xorazm fiqhshunosligiga oid talaygina ma'lumotlar topish mumkin. Yoqut, avvalo, bu borada Xorazmshoh Ma'mun vaziri Suhayliy homiyligida faqih Hisuniy tomonidan yozilgan "Fi mazhab kitab as Suhayliy" ("Mazhab haqida Suhayliy kitobi") nomli fiqh asarini ko'rsatib o'tadi. Undan so'ng yana Mahmud az Zamaxshariyga duch kelamiz.

Lug‘atda uning fiqh masalalariga bag‘ishlangan “Ar roiz fi al foiz” (“Meros masalalari yechimi”), “Al minhoj fi al usul” (“Fiqh assosini aniqlash tartibi”), “Ruh ul masoil” (“Masalalar joni”), “Shakoik an nu’mon fi haqoiq an nu’mon fi manoqib al imom Abu Xanifa” (“Imom Abu Xanafa darajotlari aslining gultoji”) va “Shafi al a’yya min kalom ash Shofiy (“Shofiy so‘zlaridagi duduqlik shifosi”) asarlari ro‘yxati berilgan<sup>129</sup>. Ulardan “Ruh ul masoil” va “Al minxoq fi al usul” asarlari bizgacha yetib kelgan<sup>130</sup>.

Shuningdek, Yoqut Abul Fazl al Baqqoliy va Abu Fath al Mutarriziyning ham fiqh sohasida ajoyib asarlar yozgani to‘g‘risida ma’lumot beradi<sup>131</sup>.

Garchi ko‘pgina tarixiy va ilmiy manbalarda XII asrda Xorazmda mu’taziliy ta’limot (ba’zan “mazhab” ham deyiladi) ustivor yo‘nalishni egallagan degan fikrlar mavjud bo‘lsa-da, shofiy (ya’ni sunniy) qarashlarni yoqlab kitoblar ta’lif etishgan. Ularning asarlari esa o‘z vaqtida hanafiy ulamolar tomonidan qadrlanib, e’zozlangan.

---

<sup>129</sup> “Mu’jam ul udabo”, VII. 150.

<sup>130</sup> 130 “Nozik iboralar”, 34, 42.

<sup>131</sup> “Mu’jam ul udabo”, VII. 77; 202.

### **III BOB**

## **MA’NAVIY MEROS QIRRALARI: ALLOMALAR VA KASHFIYOTLAR**

### **ABU BAKR AHMAD AL BARQONIY**

Yoqut “Mujam al buldon”da shunday xabar beradi: “Barqon “B” harfi fathali, ba’zida kasra bilan ham yoziladi. (Burqon nomli yana bir mavze bo‘lib, u Baxreyinda joylashgan. Ikkalasini adashtirib yubormaslik uchun izoh beryapmiz. E.I, E.M). U Jayhunning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan. Ularning o‘rtalig‘ida Jurjoniya (hozirgi Urganch) shahri bor. Barqon hozir vayronaga aylangan. Undan Hofiz al Imom Abu Bakr Ahmad Muhammad ibn Ahmad ibn G‘olib al Xorazmiy al Barqoniy chiqqan. Uning o‘z yurtidan ketib, Bag‘dodga borgani to‘g‘risida Abu Ali as Savvofa va Abu Bakr al Qatimi<sup>132</sup> rivoyat qilgan. U 336 (947)-yilda tug‘ilib, 425 (1034)-yilda Bag‘dodda vafot etgan”<sup>133</sup>.

“Adiblar lug‘ati” da Abu Bakr al Barqoniy to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam va birlari ham turli sahifalarda sochilib ketgan<sup>134</sup>. Jumladan, Xatib

---

<sup>132</sup> Abu Ali as Savvofa “Adiblar lug‘ati”da ham bir joyda uchraydi (VI. 459). Abu Bakr al Qatimi nomini boshqa joyda uchratmadik. Hozircha bizning ixtiyorimizda ularga oid malumotlar yo‘q.

<sup>133</sup> “Mu‘jam ul buldon”, I, 131.

<sup>134</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I. 160. 246; 258; VI 496.

Abu Bakr al Bag‘dodiyga<sup>135</sup> bag‘ishlangan maqolada Barqoni uning ustozi bo‘lganligi aytib o‘tiladi<sup>136</sup>.

Darroqtoniy<sup>137</sup> haqidagi ma'lumotlarda esa uning muhaddis bo‘lgani va ko‘plab asarlar yozgani to‘g‘risida Barqoniyning so‘zlari keltiriladi<sup>138</sup>.

Yoqt lug‘atda Barqoni haqida faqat shu ma'lumotlar bilan cheklangan. Shunga qaramay, Barqoniya oid ma'lumotlar boshqa manbalarda ham uchrashini aniqladik. Ayniqsa, bu borada arab olimasi Hind Husayin Tohoning “Al adab al arabi fi iqlim Xorazm” (“Xorazmlik arabiynavis adiblar”) tadqiqoti alohida tahsinga sazovordir. Unda qisqa bo‘lsa-da, Barqoni va uning otasi to‘g‘risida ma'lumotlar uchraydi. Toho Bag‘dodga kelib yashagan xorazmlik allomalar haqida yozar ekan, ular qatorida “Abu Hanifa mazhabidan, hadis ilmi imomi Barqiy ham bor edi”, – deydi va Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Yusuf ibn Ismoil ibn Shoh al Xorazmiy al Barqiy deb uning ismi sharifini to‘la

---

<sup>135</sup> *Al Xatib Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Maxdi al Bag‘dodiy al Xofiz* (396-462) (1005-1069) mashhur “Bag‘dod tarixi” va yana bir qancha asarlar muallifi.

<sup>136</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I. 246.

<sup>137</sup> *Muhammad al Xasan ad Darroqtoniy Abu Bakr al Mukarriy* (266-351) (879-962) Movaraunnahrda ham bir necha muddat yashagan.

<sup>138</sup> *“Mu‘jam ul udobo”, IV. 496.*

aytadi<sup>139</sup>. Mazkur alloma Barqoniyning otasi ekanligi shu asarda badiiy ijodning nasriy turiga bag‘ishlangan bo‘limida qayd etilgan. Toho nasrda qalam tebratgan adiblar haqida fikr yuritar ekan: “Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Shoh al Xorazmiy al Barqiy va uning o‘g‘li shayx Abu Bakr shular jumlasidandir”<sup>140</sup>, – deydi. Toho o‘z asarida Abu Bakrni “Barqoniy” va “Barqiy” nisbalarida ham ishlatgan. Yoqut esa “Adiblar lug‘ati”da uning faqat “Barqoniy” nisbasini qo‘llagan. To‘g‘ri, lug‘atda “Barqiy” nisbali yana bir necha adiblar haqida ma’lumotlar bor<sup>141</sup>.

Avvaliga bizda ham ularning Barqoniy yoki Xorazm bilan aloqadorlik tomonlari bormikan, degan o‘y paydo bo‘lgandi. Hatto ularning orasida adib Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al Barqiy bilan Barqoniy shaxsiyatini solishtirib o‘rganganimizda ularning orasidash bog‘liqlik ma’lumotlar kamligi tufayli to‘la yechilmay qoldi.

---

<sup>139</sup> “Al adib al arabi”, 72-73.

<sup>140</sup> “Al adib al arabi”, 351.

<sup>141</sup> *Ular Ahmad ibn Abdulloh ibn Abdurahmon az Zuxriy haqidagi maqolada uch aka-uka: Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad, Abu Abdulloh Muhammad va Abu Sa‘id Abdurahim Barqiylar bo‘lgani qayd qilingan. Yoqut mazkur ma’lumotlarni Abul Faraj Ali ibn al Hasan al Isfaxoniyning (vaf. 356) (967) “Isfaxon tarixi” va “Nasiblar to‘plami” (“Jumxuratul ansob”) asarlaridan oлган. (II-30); Yana bir barkiy – Ali ibn Ali Abul Hasan al Muqaddasiy (vaf. 522) (1128) haqida bir necha satrgina ma’lumot bor xolos, (V-274).*

Barqiylar masalasini ochiq qoldirganimizning yana bir sababi, agar ularning Barqoniy yoki Xorazmga tegishli tomoni bo'lganda Yoqut odati bo'yicha buni ta'kidlab o'tgan bo'lar edi. Hind Husayin Toho esa "Barqoniy" va "Barqiy" nisbalari haqidagi ma'lumotni Ibn Monuladan olgan<sup>142</sup>.

Barqoniyning ijodiy faoliyatiga kelsa, Hind Husayin Toho uning bir qancha asarlar yozgani, jumladan, she'riy devon tuzganini aytadi<sup>143</sup>. Ammo Yoqut ham, Toho ham uning asarlaridan birortasini sanab o'tmagan. Hoji Xalifa esa Barqoniy nomi bilan bog'liq ikkita asarni ko'rsatib o'tadi. Ulardan biri "Devoni Barqiy"<sup>144</sup> va ikkinchisi "Masnad al Xorazmiy"<sup>145</sup> deb atalgan. Hoji Xalifa Barqoniyni "Hofizul kabur" deb hurmat bilan yod etadi va uning 345 (956)-yilda vafot etganini ta'kidlaydi.

Barqoniyning vafotiga oid Yoqut va Hoji Xalifa ma'lumotlarida garchi tavofut bo'lsa-da, biroq gap bir shaxs ustida borayotgani aniq. Ma'lumotlarida

---

<sup>142</sup> *Al Amir Abu Nosir Ali ibn Xabatulloh ibn Monula, lug'atning bir necha joyida uning nomi qayd etilgan. (IV 283; V 44; VI 523; VII 103). Xoji Xalifa uning "Al muxtalif fi asmon ar rijol" ("Ismlar yozilishidagi ixtiloslar") nomli asarini ko'rsatib o'tgan. ("Kashf az zunun", II 407). Toho bu asarni "Al anamal rofi' al artiyob 'an al muta'laif va al muxtalif min al asma va al nunya va al ansob" deb yozgan va undan foydalangan. ("Al adib al arabi", 72-73). Ibn Monula 487 (1094)-yilda vafot etgan.*

<sup>143</sup> "Al adib al arabi", 351.

<sup>144</sup> 144 "Kashf az zunun", I 506

<sup>145</sup> "Kashf az zunun", II 433.

bunday farqlanishlarga faqat kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar chek qo'yar deb o'ylaymiz. Eng asosiysi, masalaning ko'ngilni quvontiradigan Barqoniylar to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumotlarning uchrashidir va, balki, yaxshilab, jiddiy tomoni izlanishlar olib borilsa, ularning asarlari topilib qolsa ham ajabmas.

## **ABU BAKR MUHAMMAD IBN AL ABBOS AL XORAZMIY**

“Adiblar lug‘ati”da Abu Bakr Muhammad al Xorazmiyning nomi xorazmiylar ichida eng ko‘p uchraydiganidir<sup>146</sup>. Yoqut keltirgan ma'lumotlardan Abu Bakr al Xorazmiyning X asrda sharqning ko‘pgina shaharlari adabiy muhitida faol ishtirok etishi bilan birga shu sohaning yalovbardorlaridan biri bo‘lgani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xorazmiy dastlab, lug‘atning birinchi jildida Ahmad ibn Ibrohim ad Dabbiy<sup>147</sup> haqidagi maqolada dafn marosimi bilan bog‘liq voqeada “hanafiy shayxlarining biri” sifatida ko‘rsatib o‘tiladi<sup>148</sup>.

---

<sup>146</sup> <sup>146</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I 67, 97, 109, 110, 113, 114, II 313, 340, III 133, IV 5, 184, V 99, VI 267, 326.

<sup>147</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I 67.

<sup>148</sup> Ahmad ibn al Xusayn ibn Yahyo ibn Sa‘d Badi’ az Zamon al

Lug‘atda uning Badi’ az Zamon bilan munosabatlariga oid ma'lumotlar anchagana qiziqarli. Umuman, Badi’ az Zamon al Hamadoniyga bag‘ishlangan mazkur maqola, asosan, Abu Bakr al Xorazmiy va uning majorolaridan tuzilganga o‘xshaydi. Ularning o‘zaro bahs-munozalarari va yozishmalari (maktublari) qariyb 22 sahifani (97-118) tashkil qiladi. Maqolada Hamadoniyning Xorazmiyga yozgan 3ta xatining namunasi keltiriladi<sup>149</sup>. Xorazmiying bu maktublariga yozgan javobi ham maqoladan o‘rin olgan<sup>150</sup>. Yoqut bu ikki ulug‘ alloma haqida: “Boshida ularning o‘zaro munosabatlari juda yomon edi. Keyinchalik Abu Bakr al Xorazmiy va uning orasida ustoz-shogirdlik holatlari paydo bo‘ldi”, – deydi<sup>151</sup>.

Ammo Saolibiy asabbuzar tortishuvlarda holdan toygan Xorazmiy haqida: “Bunday ahvoldan nafratlandi va yakkalanib qoldi, yuragi qorong‘ulashadi, ko‘zi yerga qarab qoldi. To umri unga xiyonat qilib, buyuk tangrining qazosi ijro etilmaguncha uning (hayotida) hech qavday o‘zgarish yuz bermadi. Bu uch yuz sakson

---

*Hamadonyy Abul Fazl (357-398) (969-1007) Ko‘pgina tarixiy manbalarda Abu Bakr Xorazmiyning ashaddiy raqibi sifatida talqin etiladi.*

<sup>149</sup> <sup>149</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I 97, 110, 113, 114.

<sup>150</sup> <sup>150</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I 109, 112.

<sup>151</sup> <sup>151</sup> “Mu‘jam ul udabo”, I 97.

uchinchi<sup>152</sup> yilning shavvolida (bo'lgandi)", – deb yozadi<sup>153</sup>. Lug'atda Ismoil ibn Abbot as Sohibga<sup>154</sup> bag'ishlangan maqolada ham Abu Bakr al Xorazmiy nomi tilga olinadi<sup>155</sup>.

Yoqut yozishicha, buvayhiylar vaziri as Sohib huzurida tashkil etilgan majlisda al Xorazmiy ham ishtirok etadi. Lug'atda Abbot as Sohib va Xorazmiyning o'sha majlisidagi aytishuvidan namuna berilgan. Mazkur maqola davomida Yoqut bir nazmiy parcha keltirib, "Xorazmiy uni: "As Sohib arabiynavis mashhur shoirlardan al Buxtariyga<sup>156</sup> tegishli", – deb aytgandi" deydi<sup>157</sup>.

Lug'atning uchinchi jildida Yoqut al Xorazmiy aytganlariga tayanib, buvayhiylarning yana bir vaziri va mashhur adiblaridan biri al Muxallibiy<sup>158</sup> tarjimayi holiga oid ma'lumotlar berib o'tadi<sup>159</sup>.

---

<sup>152</sup> Milodiy 993-yil noyabr oyiga to 'g'ri keladi.

<sup>153</sup> 153 "Yatimmat ad dahr", 241.

<sup>154</sup> Ismoil ibn Abbot ibn al Abbas ibn Ibod al Vazir (326-385 / 938-995) As Sohib nomi bilan mashhur buvayhiylar vazirlaridan, Abu Bakr Xorazmiyga homiylik qilgan.

<sup>155</sup> "Mu'jam ul udabo", II 313, 314.

<sup>156</sup> Abu Ubaba al Valid ibn Yahyo al Buxtarin (206-284) (821-847) Halab yaqinidagi qishloqda tug'ilib, shu yerda vafot etgan. Abbosiy xalifa Mutavvakil (847-816) huzurida she'riyatda nom qozongan.

<sup>157</sup> "Mu'jam ul udabo", II 340

<sup>158</sup> 158 Al Xasan ibn Muhammad al Muxallibiy Abu Muhammad buvayqiy Mu'z ad Davla davrida (334-356) (945-967) vazirlik darajasida bo'lgan.

<sup>159</sup> 159 "Mu'jam ul udabo", III 183.

Ahmad ibn Holvayhga<sup>160</sup> doir maqolada Xorazmiy uning shogirdlaridan biri ekanligi qayd etiladi<sup>161</sup>.

Lug‘atning to‘rtinchi jildida uning Al Xalil ibn Ahmad as Sijsiy<sup>162</sup> vafotiga qayg‘urib yozgan marsiyasidan ushbu parcha berilgan:

*Ko‘rdikkim odamlardur hayron-u lol,  
Dinning tayanchidan ayrilib al-hol.  
Al Xalil ibn Ahmad olamdan o‘tdi debon,  
To‘kduk ko‘z yoshimiz edi misli qon*<sup>163</sup>.

Lug‘atda Abu Bakr al Xorazmiyga oid keltirilgan keyingi ma’lumotlarning deyarli barchasi uning shogirdlari bilan bog‘liqdir. Ali ibn Ahmad Vohidiy<sup>164</sup>, Muhammad ibn Odam al Hiraviy<sup>165</sup>, Muhammad ibn Ashros<sup>166</sup> kabi adiblarga bag‘ishlangan maqolalarda Xorazmiy ularning

---

<sup>160</sup> 160 *Al Xusayn ibn Ahmad ibn Xolvayx ibn Hamdon Abu Abdulloh al Lug‘aviy. Halab va Hamadon hukmdori Sayf ad Davla* (337-356) (938-957) saroyi adabiy muhitida ishtirok etgan.

<sup>161</sup> ‘Mu‘jam ul udabo’, IV 5.

<sup>162</sup> *Al Xalil ibn Ahmad ibn Muhammad as Sijsiy samarqandlik mashhur allomaldaridan. Yoqutning ta‘kidlashicha, u faqih, shoir va muhaddis bo‘lgan. Umrining so‘nggi davrida Samargandda qozilik mansabida yashagan va shu yerda 378 (988)-yilda vafot etgan.*

<sup>163</sup> ‘Mu‘jam ul udabo’, IV 184

<sup>164</sup> 164 *Ali ibn Ahmad al Voxidiy* (v. 468) (1075) *adib, mufassir va muhaddis.*

<sup>165</sup> 165 *Muxammad ibn Odam ibn Kamol Abul Muvaffar al Hiraviy* (v. 414) (1021) *shoir va adib, o‘zga asarlarga bir qancha sharhlar yozgan.* (*Udabo*, VI 267)

<sup>166</sup> 166 *Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Amros Abul Fath an Naxviy al Lug‘aviy. Naysaburlik, shoir va adib* (v. 420 (1027)) (*Udabo*, VI 326)

barchasiga ustozlik qilgani to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Yoqut Abu Bakr al Xorazmiyning qanday asarlar yozgani haqida hech narsa demaydi. Asosan, uni turli ijodiy majlislar va qizg‘in bahsmunozaralar sahnasida ko‘rsatib o‘tiladi. Hatto shu uzuq-yuluq ma’lumotlar ham uning ulug‘ shoir va adib bo‘lganini anglashimizga yetarlidir. Ma’lumotlarda uning risola (yozishma), marsiya va aytishuv kabi adabiy ijod turlarida mohir bo‘lgani ko‘zga tashlanadi.

Yoqut al Hamaviydan tashqari, Abu Bakr al Xorazmiy haqida uning zamondoshi Abu Mansur as Saolibiy “Yatimmat ad dahr” asarining xorazmlik adiblarga ajratilgan bobida batafsil ma’lumot beradi. Asarda uning ijodidan boy namunalar keltirilgan<sup>167</sup>. Shuningdek, o‘rta asrlarda yashab o‘tgan Ibn al Asir, Ibn Xallikon<sup>168</sup> kabi tarixchilar ham u to‘g‘rida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

Abu Bakr al Xorazmiyning ijodiy boy merosidan faqat nasriy “Risolalar”i bizga qadar yetib kelgan. Mazkur “Risolalar” 1880-yilda Istanbulda va 1891-yilda Bombeyda nashr etilgan.

Badiiy go‘zallikning mumtoz namunasi sanalmish bu risolalar uni dunyoga tanitdi.

---

<sup>167</sup> “Yatimmat ad dahr”, 227-273.

<sup>168</sup> “Vafoyot ul a’yon”, O‘z FAShI, (11723), I 523.

Umuman, Abu Bakr al Xorazmiy haqida jahon ilm ahli anchagina ma'lumotlarga ega<sup>169</sup>. Ularga qo'shimcha ravishda Hind Husayin Tohoning ilmiy tadqiqotida unga oid ma'lumotlar ham salmoqli o'rinn egallaydi. Toho "uning otasi Xorazmdan va - onasi Tabaristondan edi", – deydi va shu bois uning "Tabarxaziy" nisbasi bo'lganini ham ta'kidlaydi. Toho mazkur ishda boshqa adiblarga nisbatan uning hayoti va ijodini kengroq yoritishga harakat qilgan<sup>170</sup>.

### MUHAMMAD IBN ABDULMULK AL QULSUMIY

"Adiblar lug'ati"da unga oid ma'lumotlar ifodalangan bor-yo'g'i ushbu jumlalarni o'qiymiz xolos: "Abu Abdulloh al Qulsumiy an Nahviy tilshunoslikdan xabardor edi. Xurosonda ahvol tang bo'lgach, bir guruh shoir-u adiblar bilan Xorazmga keldi"<sup>171</sup>. Qulsumiy to'g'risida tarixiy manbalarda deyarli hech narsa uchramagani tufayli, Yoqt ma'lumotlariga biror yangilik qo'shishga imkoniyatsizmiz. Shunga qaramasdan, bu borada

---

<sup>169</sup> 169 *Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Soliy Xasanov. "Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi", Toshkent, O'qituvchi, 1996-y., 96.*

<sup>170</sup> 170 "Al adib al arabi", 155-210.

<sup>171</sup> 171 "Mu'jam ul udabo", VII 25-26

ba’zi bir fikrlarimizni bayon etsak, foydadan holi bo’lmas balki.

Avvalo, so’zni Hind Husayin Tohodan boshlaymaz. Toho o’z tadqiqotida Abu Abdulloh al Qulsumiyga ham to’xtalib o’tadi<sup>172</sup>.

U Qulsumiyning tarjimayi holi haqida faqat uning Xorazmga boshqa o’lkadan kelganini aytish bilan cheklanadi. Asosiy e’tiborini uning “Adiblar lug’ati” da keltirilgan she’rini badiiy tahlil qilishga qaratadi. Yoqut Lug’atda bergen o’sha she’rning mazmuni quyidagicha:

*“Baxt der: Qush chug’ur-chug’urdan boshqani bilmas,*

*Sening kamchililing ham xuddi shunday.  
Biz bu yerlarda g’arib bo’ldik,  
Barcha g’ariblar bir-biriga qarindoshdirlar.  
Biz barchamiz bu yerda begona, musofirmiz,  
Men g’aribning holidan xabar oluvchi huzuriga intildim.*

*Yolg’izlikda g’am- hasratga ega bo’ldim,  
Ko’zlarim tindi, keksayib belimdan mador ketdi.  
Istagim vatandir, unga intiqman,  
Ammo u bilan o’rtamiz to’sib qo’yilgan.  
Ollohim Iroq o’lkasini o’zing obod et.  
Men u dilbandimning firoqidaman.*

---

<sup>172</sup> 172 “Al adib al arabi”, 83, 136, 440.

*Unga Xurosordin noxushliklar yetishdi,  
 Evoh, u yirog‘-u nadomatlar yaqindir.  
 Biz Xorazmni ixtiyor qilgandik, una yetishdik.  
 Ammo dunyoda eng go‘zal o‘lka  
 Iroq yeriga talpinurmiz*<sup>173</sup>.

Ko‘rib turganimizdek, bu satrlar vatan firoqida kuygan, uning sog‘inchlari tinimsiz azob berayotgan insonning qalb nolasidir. Toho ushbu she‘rning vatanni qo‘msash, vatanparvarlik ruhida yozilganini ta’kidlab, badiiy yozilish uslubini Imrul Qays ibn Xajar<sup>174</sup> she‘rlariga o‘xshatadi va “Barcha g‘ariblar bir-biriga qarindoshlar” jumlesi Imrul Qaysga tegishli ekanini aytadi<sup>175</sup>.

Demak, Qulsumiy Imrul Qays ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Bu shoir islomdan avvalgi davrlarda yashab o‘tgan va milodiy X asrda ham islom dunyosi adib va shoirlari orasida mashhur edi. Umrining ko‘p qismi musofirchilikda o‘tganidan, ko‘pincha, g‘urbat, musofirchilik holatlari uning nomi bilan bog‘lanib tarannum etiladi. Hoji Xalif uning g‘urbatda Anqara atrofida vafot etganini xabar qiladi<sup>176</sup>.

---

<sup>173</sup> “Mu‘jam ul udabo”, VII 26.

<sup>174</sup> *Imrul Qays ibn Xajar al Kindiy arab shaxzodasi (500-540) johiliya davrining mashhur shoirlaridan. “Adiblar lug‘ati”da nomi ko‘p bor tilga olingan,*

<sup>175</sup> *Al adib al arabi, 136.*

<sup>176</sup> *176 Kashfal zunun, 1, 504.*

Endi Yoqutning “Xurosonda ahvol tang bo’lgach, bir guruh shoir-u adiblar bilan Xorazmga keldi” jumlasiga e’tibor beraylik.

Ma’lumki, boshqa o’lkalarda darbadar kezgan ulug‘ xorazmiylar talaygina bo’lgani kabi, o’zga yurtlardan Xorazmga kelib, dovrug‘ taratgan allomalar ham kam bo’limgan. Ilm-fan va adab ahlining Xorazmda to’plana boshlashi, asosan, X asrning ikkinchi yarmida ko’proq ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, tarix sahnasida somoniylar<sup>177</sup> va buvayhiylar<sup>178</sup>ning paydo bo’lishi Bag‘dod xalifaligining yakka siyosiy hukmronligiga barham berdi. Bag‘doddagi “Baytul hikma”ga to’plangan allomalar ham asta-sekin turli hukmdorlar tomonidan jalb etilib, uning avvalgi shon-shuhrati pasayib qoldi. Albatga bu tarixiy jarayon osongina va silliq kechgani yo‘q. Bu orada hukmdor doiralar o’rtasida qanchadan-qancha siyosiy to’qnashuvlar, qonli janglar bo’lib o’tdi. Abu Abdulloh al Qulsumiy ham shunday notinchliklardan panoh axtarib Xorazmga keladi. Uning qaysi davrlarda Xorazmga kelganiga aniq dalillarimiz bo’lmasa-da, yuqorida aytilgan ma’lumotlarga tayanib, u taxminan X asrning ikkinchi yarmi oxirlarida Xorazmga kelgan

---

<sup>177</sup> 177 Somoniylar IX asrinining 2-yarmi va X asrda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qiladi. Poytaxti Buxoro bo’lgan.

<sup>178</sup> Buvayhiylar Fors va Iroqda (320-454) (932-1062) hukmronlik qilgan.

bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz.

Bizdan avval Qulsumiy haqida B.Vahobova o'z tadqiqotlarining birida gapirib o'tgan<sup>179</sup>. Muhtarama olimamiz ham ma'lumotlar taqchilligi tufayli uning qachon Xorazmga kelgani va yashagan davrini aniqlash masalasini ochiq qoldirgan.

Xullas, Qulsumiyning kimligi, yashagan davri, qanday asarlar yozib qoldirgani kabi masalalarni tashkil etgan bu muammo kelgusi tadqiqotlarda aniq yechimini topib qolar.

### **AHMAD IBN MUHAMMAD AS SAXRIY ABUL FAZL**

Ahmad ibn Muhammad as Saxriy Barqoniy va Abu Bakr al Xorazmiyning zamondoshi. Balki u Abu Bakr al Xorazmiy bilan yaqindan tanish bo'lishi ham mumkin. Chunki u yoshligida as Sohib Ismoil ibn Abbos<sup>180</sup> xizmatida bo'lib, uning huzuridagi mushoiralarda ishtirok etgan. Yoqut bu haqda shunday yozadi: "U ayni yoshligi qaynab-jo'shgan damlarida hazrat as Sohib Ismoil ibn Abbos huzuriga boradi. Uning ma'rifat nuridan bahramand bo'lib, ilm sirlarini o'rganadi va tinim bilmay ahli fozillar izidan borib, ajoyib muvaffaqiyatlarga

---

<sup>179</sup> Памятники арабоязичной биографической литературы. 47.

<sup>180</sup> U haqida Abu Bakr Xorazmiy maqolasida ma'lumot berdik.

erishadi”<sup>181</sup>.

Saxriy ilmiy kamolatga yetishib, nihoyat Xorazmga qaytib keladi. U Xorazm hukmdori, ma’rifat ahlining homiysi shoh Abul Abbas Ma’mun ibn Ma’mun tomonidan iliq kutib olinadi. Yoqut uning bu davrlardagi ahvolini ta’riflab: “U o’z sultonni huzuriga borib, ulug‘ kotiblar va a’yonlar orasidan joy oldi va amirning xos suhbatdoshi, eng yaqin sirdoshi, kotiblarning afzali va shoirlarning ulug‘iga aylandi. Usiz majlislarga fayz kirmasdi va saxovat bulutlari uning boshidan arimasdi”, – deydi<sup>182</sup>.

U xuddi Badi’ az Zamon kabi hozirjavob, beqiyos so‘z ustasi bo‘lgan. Lug‘atda uning xorazmshoh Abul Abbas Ma’munga atab yozgan madhiyasi (4 satr), vazir Abul Husayn as Suhayliy va bustlik mashhur alloma – shoir Abul Fatx Bustiyga<sup>183</sup> yozgan qasidalari va boshqa nazmiy parchalar (jami 29 satr) hamda 2 varaq hajmida nasriy risolalardan namuna berilgan. Yoqut Saxriyning “Kitob rasoil mudavanna” (“Risolalar to‘plami”) va “Kitob devon she’r mujallad” (“She’riy

---

<sup>181</sup> “Mu’jam ul udabo”, II, 96.

<sup>182</sup> “Mu’jam ul udabo”, II, 97.

<sup>183</sup> 183 Shoir Abul Fath al Bustiy dastlab Bust hokimi Botur, so‘ngra G‘aznaviydar saroyida xizmat qiladi. Saozibiyning aytishicha, u 400\1009-yilda vafot etgan.

devon") yozib qoldirganini aytadi<sup>184</sup>. Ammo Saxriyning bu asarlari bizga qadar yetib kelgani ma'lum emas. Yoqt mazkur maqolasini yozish maboynidagi Abu Muhammad ibn Arslonning "Xorazm tarixi" asaridan foydalanganligini ko'rsatib o'tadi.

Saxriy 406 (1015)-yilning oxirida qatl etiladi. Biroq uning qatli sababi qorong'iligicha qolmoqda. Vahobova bu voqeя sababini "Xorazmshoh Abul Abbas Ma'munga uyushtirilgan suiqasdlardan birida sodir bo'lgan bo'lsa kerak", - deb taxmin qiladi<sup>185</sup>.

Biroq Beruniyning Saxriy haqida bildirgan fikrlari bu masalaga biroz oydinlik kiritgandek bo'ladi. Beruniy Xorazmshoh davrida sodir bo'lgan voqealardan biri haqida shunday yozadi: "Nihoyatda bilimdon alloma, tengsiz notiq va mohir kotib. Biroq juda qo'pol go'yo muomala va odob tuyg'usi unga begona edi. Deydilarki, odob qonida bo'lsa, o'rganib topilganidan afzaldir. Saxriy qo'lida may to'la jom tutib, ichishga shaylanib turardi. Saroydagи otlardan biri kishnab, qattiq tovush bilan o'zidan havo chiqardi. "Ichuvchining og'ziga" dedi Xorazmshoh. Tarbiyasizligi va o'zini tuta

---

<sup>184</sup> "Mu'jam up udabo", II, 98.

<sup>185</sup> Памятники арабоязичной биографической литературы, 200.

bilmasligidan Saxriy qadahni otib yubordi. Xorazmshoh Saxriyning boshini olishga buyruq bermasaydi, deb qo‘rqib ketdim. Ammo u bunday qilmadi. kulib yubordi-da, unga e’tibor bermay, oqko‘ngillik va oliyjanoblik bilan o‘rnidan turib ketdi”<sup>186</sup>.

Saxriy, ehtimol, shunday voqealardan birida qatl etilgan bo‘lishi mumkindir.

Hind Husayn Toho ham o‘z tadqiqotida Saxriyning she’rlariga murojaat qiladi<sup>187</sup>. U foydalangan she’riy parchalarning barchasi “Adiblar lug‘ati” dan olingan va uvda boshqa qo‘sishimcha ma’lumotlar uchramaydi.

Saxriyning bizga ma’lum bo‘lgan ijodiy merosiga nazar tashlab, u yashagan davrlarda arabiynavis shoir-u adiblar orasida risolalar bitish, madhiyabozlik, qasidachilik kabi ijod turlarinig keng yoyilganini ko‘ramiz.

## AHMAD IBN MUHAMMAD AL HUSAYN AS SUHAYLIY AL XORAZMIY

Ali ibn Ma’mun ibn Muhammad (997-1009) va Abul Abbas Ma’mun ibn Ma’mun ibn Muhammad Xorazmshoh (1009-1017) saroyida vazirlik

<sup>186</sup> Абул Фазл Бейхики. “История Маъсуда” (1030-1041) Tashkent, FAN 1962 y. 809-810.

<sup>187</sup> “Al adib al arabi”, 98, 100, 105, 112, 17, 129, 130, 146.

martabasida xizmat qilgan. Uning ajdodlari ham vazirlik vazifasida ishlab kelgan bo'lsa kerakki, Yoqut Saolibiydan shunday parcha keltiradi: "U vazirning o'g'li vazir edi.

*Ulug'likni vazirlardan olib meros,*

*Xalqqa bo'ldi ulkim zanjirlariga mos"*<sup>188</sup>.

Tarixda Xorazm hukmdorlaridan ma'muniylar sulolasi madaniyat ahliga alohida diqqat-e'tibor qaratib, mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti va xalqning ma'murchilagini ta'minlashga harakat qilganlari ma'lum. Ammo o'sha davrlarda ularning saroy a'yonlari, jumladan, vazirlari ham bu borada ulardan sira qolishmagan ko'rindi. Zero, Abul Abbas Ma'munning xalifa al Qodirdan "Ayn ad davla va az zaynul milla" (Davlat qarog'i va millat ziynati) unvonini olishi va Urganchning ilm ahli maskaniga aylanishi ham beziz emas edi.

Lug'atda Suhayliyning ustozlari va kimlardan ta'lim olgani to'g'risida hech narsa deyilmagan. Lekin uning "sahovatpeshaligi" va go'zal xislatlari tufayli unga "baxt kulib boqqanligi" va adab ahliga purmuruvvat bo'lgani to'g'risida gapirib o'tiladi. Ahmad ibn Muhammad as Saxriyning unga yozgan qasidasi (buni eslatib o'tdik) va Abu Abdulloh Muhammad ibn Xomid<sup>189</sup> farzand ko'rishi

---

<sup>188</sup> "Mu'jam ul udabo". II. 102.

<sup>189</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Xomid Xorazm adab ahlidan. U

munosabati bilan unga nazmda murojaat qilishi kabi hollari yuqorida u haqda keltirilgan ma'lumotlarning haqiqat ekaniga shubha qoldirmaydi.

Suhayliy vazirlik martabasida turgan davrlarda nomlari qayd etilgan bu ikki shoirdan tashqari yana Abu Saxl Masihiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Iroq va Abul Xayr Hammor kabi bir qancha buyuk allomalar ma'muniylar homiyligida ilm-fan bilan shug'ul-langan<sup>190</sup>. Shaxsan uning rag'bati bilan adib Hasan ibn al Xoris al Xisuniy<sup>191</sup> “Fi mazhabi kitab as Suhayliy” (“Mazhab haqida Suhayliy kitobi”) asarini yozgan. Unda Hanafiy va Shofiy mazhablari xususida fikrlar bildirilgan. Yoqut lug‘atida Suhayliyning o‘zi ham “Ravzat as Suhayliy fi al avsot va al tashbihot” (“Tashbehlar va qiyoslar to‘g‘risida Suhayliy bog‘i”) asarini ta‘lif etganini aytadi. Bulardan tashqari lug‘atda Suhayliy she’rlaridan 3ta parcha keltiriladi. Bu she’riy parchalarda shoir ichki dunyosini tabiat vositasida ifodalashga harakat qiladi. Ulardan biri “Suvdag‘i oy shu’lesi” deb ataladi.

---

*Xorazmshohning elchilik vazifalarini qoyilmaqom bajargan. Saolibiy uning farzand ko‘rish voqeasiga oid; yuqorida u haqda keltirilgan ma'lumotlarning haqiqat ekaniga shubha qoldirmaydi.*

<sup>190</sup> “Al adib arabi” 83, 119.

<sup>191</sup> *Bu adib shaxsini aniqlay olmadik. Faqat lug‘atning hoshiyasiga uning Hivuliy bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan.*

Suhayliy kutilmaganda negadir 404 (1013)-yili vazirlikni tashlab, Xorazmni tark etadi va Bag'dodga boradi. Uning nima sababdan bunday yuqori mansabni tashlab ketgani ma'lum emas. Ammo uning ketishi, Saxriyning oradan 2 yil o'tib 406 (1015)-qatl etilishi va nihoyat Abul Abbas Ma'munning taxtdan ag'darilib, o'ldirilishi voqeasi ma'muniylar hukmronligining so'nggi davrlarida mamlakatda siyosiy keskinlik tobora kuchayib borganini ko'rsatadi. Balki, Suhayliy siyosiy voqealar rivojining oqibati shunday bo'lishni bilib, saroyni tark etishga majbur bo'lgandir. Nima bo'lganda ham u issiq o'rnini Sovutib o'zga yurtlarga bosh olib ketishga majbur bo'ldi. G'urbatni ixtiyor etish evaziga keyingi to's-to'polonlardan qutulib qoldi.

Bag'dodda uni o'sha davrdagi Iroq hukmdori Faxr al Muluk Abu G'olib Muhammad ibn Xalaf hurmat-izzat bilan qarshi oladi. Biroq oradan biroz o'tib Faxr al Muluk vafot etadi. Suhayliy bu yerdan ham ketib, Taqrif va Dujayl shaharlari hokimi G'arib ibn Muqan huzuriga borishga majbur bo'ladi. Umuman Yoqut xabarlariga ko'ra, Suhayliy hayotining so'nggi davrlari darbadarlikda, qo'rqinch-xavotirda kechgani ma'lum bo'ladi.

"U 418 (1027)-yilda Sarra min rayda

(Samarra) vafot etgan, deb yozadi Mahmud ibn al Islomiy<sup>192</sup> “Xorazm tarixi” kitobida, -deydi Yoqut.

Suhayliy asarlarining bizga qadar yetib kelgan kelmagani to‘g‘risida hozircha hech qanday ma’lumotga ega emasmiz. Uning “Ravzat as Suhayliy fi al avsof va al tashbexot” asari Hoji Xalifaning “Kashf az zunun” asarida qayd etilgan<sup>193</sup>. Yoqut aytib o‘tgan asarlari va lug‘atlari va lug‘atda keltirilgan she’riy parchalardan boshqa Saolibiyning “Yatima”sida ham uning Muhammad ibn Homidga yozgan she’ridan parcha berilgan<sup>194</sup>. Shuningdek, Salohiddin Xalil ibn Oybek as Sadafiyning “Al vafi bil vafoyot” (“Ulug‘lar vafoti to‘grisida to‘la ma’lumot”) asarida ham Suhayliy haqida ma’lumot olish mumkin<sup>195</sup>.

Ayni paytda Hind Husayn Toho o‘z tadqiqotida Sadafiyning mazkur asaridan ham keng foydalangan<sup>196</sup>. Bunda Toho asosan Xorazmda ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan vazirlar qatorida Suhayliyni ham ko‘rsatib o‘tadi.

O‘zbekistonda esa B.Vahobova o‘z ilmiy

---

<sup>192</sup> *Bu yerda Mahmud ibn Abu Muhammad ibn Arslon bo‘lishi kerak.*

<sup>193</sup> *“Kashf az zunun”* 583.

<sup>194</sup> *“Yatimmat ad dahr”* 287.

<sup>195</sup> Jumladan, “Bu kitobda zamonaning ulug‘lari sahabalar, tobellar, hukmdorlar, amirlar, qozilar, muhaddislar, mazkur asar 1953-1959-yilda Damashqda va 1969-yilda Bayrutda nashr etilgan 457

<sup>196</sup> *“Al adib al arabi”* 80.

tadqiqotida Yoqutning “Adiblar lug‘ati” asaridan ham foydalanib, Suhayliy xususida ba’zi bir fikrlarini aytib o’tadi<sup>197</sup>. Shunga qaramasdan, Suhayliy hayoti va ijodiy faoliyati hali to’la o‘rganilmagan.

### MUHAMMAD IBN AHMAD AL BERUNIY

O’rta asrlarda yashab ijod etgan, dunyo xalqlarining hurmat e’tiborini qozongan mashhur allomalarimizdan biri Abu Rayhon Beruniydir. Bu muhtaram zotning nomi “Adiblar lug‘ati”da zikr etilgan adib va shoirlar orasida xalqimizga ko‘proq yaqin va tanishroq desak, mubolag‘a bo‘lmas. Zero, Beruniy ilmiy-ma’naviy merosi dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan.

Bu tadqiqotlarning ba’zilari Yoqut ma’lumotlari asosida yozilgan. Beruniy ilmiy faoliyati ancha keng yoritilganini hisobga olib, qaytariqlardan qochish maqsadida uning faqat adabiy merosiga biroz to’xtalib o’tamiz.

Yoqut lug‘atda Beruniyning adabiy faoliyati, xususan, she’riyatiga ko‘proq e’tibor qaratadi va uning she’rlaridan namunalar beradi. Bu she’rlar to‘g‘risida hurmatli olimlarimizdan A.Rasulev “Beruniy va uning she’rlari haqida ba’zi

---

<sup>197</sup> Pamyatniki arabyazichnoy biograficheskoy literaturi 204.

mulohazalar”<sup>198</sup> va Aziz Qayumov “Beruniy va she’riyat”<sup>199</sup> nomli maqolalar yozishgan. Shuningdek, domla A.Irisov Yoqutning mazkur maqolasini o’zbek tiliga o’girgan<sup>200</sup> va she’rlarini badiiy tarjima qilib, Beruniy hikmatlari bilan birga risola holida chop ettirgan<sup>201</sup>. Albatta bu borada ustoz murabbiylardan o’tkazib biron narsa deyish juda mushkul ish. Shunday bo’lsa-da, biz ham lug’atdagi Beruniya oid ma’lumotlar haqida ba’zi mulohazalarimizni aytib o’tishga jur’at etdik.

Yoqut lug’atda Beruniyning nisbasiga to’xtalib o’tadi va uni “forsiy so’z bo’lib, “tashqi” ma’noni anglatadi”<sup>202</sup>, deydi. Yoqut uning ilm-fanga bo’lgan qiziqishini shunday ta’riflaydi: “Yilning ikki kuni – Navro’z va Mehrjon<sup>203</sup> dan boshqa paytlarda uning boshi fikrlashdan, ko’zi o’qishdan va qo’li yozishdan to’xtamas edi”<sup>204</sup>.

Yoqut Beruniy asarlari haqida gapirar ekan, Marvda uning o’z asarlariga yozgan oltmis varaqqa yaqin “Fixrist”i va yana “Kitab sharhi she’r Abu

---

<sup>198</sup> 198 *Beruniy va ijtimoiy fanlar* 56-61.

<sup>199</sup> 199 *Beruniy tug’ilgan kunining 1000 yilligiga* 64-70.

<sup>200</sup> 200 *O’sha kitob* 223-229.

<sup>201</sup> 201 *Beruniy*, “100 hikmat”, 16-21.

<sup>202</sup> 202 “Mu’jam ul udabo”, VI 308. Bu fikrni akademik Yahyo G’ulomov ham quvvatlab, shunday deydi: “Gurganj ikki qismdan iborat bo’lgan: shahri darun (ichki shahar) va shahri berun (tashki shahar)”. (*Beruniy va ijtimoiy fanlar*, 32).

<sup>203</sup> 203 *Bahorgi va kuzgi kecha-kunduz tengligi*.

Tammom” (“Abu Tammom she’rining sharhi”), “Kitab ta’alul bi aholatil vaxm fi ma’ani nazm ulal fazl” (“Fozillar nazmining ma’nilaridan bahramand bo‘lish”), “Kitab al musomara fi axbar Xorazm” (“Xorazm tarixi haqida suhbat”), “Kitab tarix ayyom as sulton Mahmud va axbar abixi” (“Sulton Mahmud davri tarixi va uning otasi haqida xabarlar”), “Kitab muxtar al ash’or va al asor” (“Tanlangan she’rlar va asarlar”) kabi kitoblarini ko’rganini aytadi<sup>205</sup>. Nomlari ko’rsatilgan bu asarlarning bittasi Beruniyning “Fixrist”ida “Qofiyatul alif min at tamom fi she’r Abu Tammom” (“Abu Tammom she’rida alif bilan tugaydigan qofiya”) nomi bilan keltirilgan<sup>206</sup>. Shuningdek, “Kitab muxtar” ash’or va asor”, “Kitab ut ta’alul” asarlari “Kashf va zunun”da uchraydi<sup>207</sup>. Yoqutning Beruniy to‘g‘risidagi ma'lumotlari yagona bo‘lmasa-da, ammo uning badiiy ijodidan berilgan namunalari hozircha nodir, noyob hisoblanadi. Bu ma'lumotlar uning faqat ilm sohasiga jaddu jahd qilish bilan qanoatlanmay, adab gulshaniga ham ishtiyoqi baland bo‘lgani va badiiy

---

<sup>205</sup> <sup>204</sup> “Mu’jam ul udabo”. VI 308.

<sup>206</sup> <sup>205</sup> “Mu’jam ul udabo”, VI 311.

<sup>207</sup> <sup>206</sup> “Abu Rayhon Beruniy o’z asarlariga o’zi tuzgan ro’yxati”. A.Rasulev mazkur ro’yxatni O’zbek tiliga tarjima qilib, chop ettiorgan. U Yoqut aytgan “Fixrist” shu bo’lsa kerak deydi. (Beruniy tug’ilgan kunining 1000 yilligiga. 230).

<sup>207</sup> “Kashf va zunun”, I 296; II 397.

ijod uchun fursat topa bilganidan darak beradi.

Yoqut Beruniyning she'rlaridan namuna berishdan oldin: "U she'r ham aytgan. Garchi she'rlari yuksak darajada bo'lmasa-da, u kabi siymolardan buning sodir bo'lishi ajoyibdir. U she'rlarida podshohlar bilan o'tgan damlarini eslaydi, Abul Fatx al Bustiyni madh etadi. Bular "Sir as surur"<sup>208</sup> ("Shodlik sirlari") kitobidan olindi", – deydi<sup>209</sup>.

Beruniy 34 satrdan iborat madhiyasida o'zining podshohlar bilan munosabati haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. She'rning dastlabki satrlarida Beruniyning ustozи Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroqqa<sup>210</sup> nisbatan minnatdorchilik tuyg'ulari izhori bayon etiladi.

*Boqdi Iroq oilasi sut bilan,  
Men-niholga Mansur bo'ldi darmonim<sup>211</sup>.*

Beruniy tili bilan aytilayotgan bu satrlar ibn Iroq uni yoshligidanoq o'z tarbiyasiga olganini ko'rsatadi. Keyingi satrlar Abul Hasan Ali va Abul Abbos Ma'munning unga ko'rsatgan ehtiromlarini

---

<sup>208</sup> 208 "Sir as surur" asari Xoji Xalifa qayd etishicha, qozi Mu'iniddin Abu A'lo Muhammad ibn Mahmud al Gaznaviy tomonidan ta'lif etilgan. ("Kashf az zunun". II, 24).

<sup>209</sup> 209 "Mu'jam ul udabo", VI 312.

<sup>210</sup> 210 Abu Nasr Mansur ibn Iroq (v.1034) mashhur munajjim va hisob ilmi bilimdoni. Afriqiylar (995) va ma'muniylar saroyida xizmat qilgan.

<sup>211</sup> 211 Bu she'rlarni A.Irisov tarjima qilgan (Beruniy. "100 hikmat". 16).

ifodalaydi<sup>212</sup>. Ayniqsa, Abul Abbasning olimni benihoya hurmat qilgani Yoqut keltirilgan ma'lumotda ham aks etgan. Lug'atda ular o'rtasidagi munosabatga doir bir lavhada Xorazmshoh Beruniyning uyiga kelib, uni chaqirtiradi. Biroq u hujrasida biroz tutilib qolgani sababli, shoh otdan tushib, o'zi uning oldiga kirmoqchi bo'ladi. Shu payt uydan chiqayotgan Beruniy bu holni ko'rib, yugurib keladi-da, shohni bu shashtidan qaytarib, "unday qilmang, hazratim", -deya qulluq qiladi. Shunda Xorazmshoh:

"Ilm ulug' ma'vo erur bas.

Barcha unga borur, u kelmas", – (Tarjima bizniki) deb, javob qaytaradi<sup>213</sup>. Bu manzara shoh va olim ma'naviy dunyosining qanchalar nozik hissiyotga boy va buyuk bo'lganini namoyon etadi. Shu sababdan ham Beruniy Abul Abbasni sharaflab:

"So'nggi Ma'mun nazar soldi holimga,

Boshim ko'kka yetkazdi ul sultonim", – deydi<sup>214</sup>.

She'rda nomi kuylangan hukmdorlardan yana biri Mahmud G'aznaviydir.

"Ne'matini Mahmud darig' tutmadi,

---

<sup>212</sup> *Abul Xasan Ali Xorazmshoh (997-1009) Beruniyni Xobus ibn Vushmagir saroyidan chaqirtirib oladi. Uning vafotidan so'ng taxtga chiqqan ukasi Abul Abbas Ma'mun ham (1009-1017) olimni hurmatlab, unga yaxshi munosabatda bo'ladi.*

<sup>213</sup><sub>213</sub> "Mu'jam ul udabo". VI, 309.

<sup>214</sup><sub>214</sub> "Mu'jam ul udabo", VI, 312; "100 hikmat"; 16.

*Ko'rmaslikka oldi doim nuqsonim.  
Jaholatim avfayladi hurmatlab,  
Obro'y yuksak, to'nim yangi, but nonim*<sup>215</sup>.

Bu satrlardagi “nuqsonim”, “jaholatim” “u ko'rmaslikka oldi” kabi fikrlar mazmunini domla Irisov Beruniyning Mahmudga kesatish, kinoyasi bo'lsa kerak, deb gumon qiladi<sup>216</sup>. Ammo keyingi paytlarda vatanimizda o'tmishga bo'lgan munosabatlarning keskin o'zgarishi natijasida o'zbek xalqi tarixi o'rganilishiga jiddiy e'tibor berila boshladi. Natijada faqat salbiy sifatlar bilan talqin etib kelinayotgan tarixiy shaxslarning hurmatga loyiq ijobjiy jihatlari ham ko'zga tashlanib qoldi. Shunday ekan, Mahmud G'aznaviy va Beruniy o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida gap ketganda ham bu masalaga juda hushyorlik bilan yondoshish lozimligi ma'lum bo'ladi. Agar Mahmud faqat mutaassib va johil bo'lganda edi uning sultanati gullab-yashnamagan, saroyida ko'plab ulug' siymolar to'planmagan bo'lurdi. Balki Beruniy bu yerda “kamchilik va jaholati” orqali bir paytlar o'zining qarmatiylikka yaqin bo'lganiga ishora qilayotgandir.

Madh etiluvchilarining yana biri mashhur shoir

---

<sup>215</sup> Xuddi o'sha joylar.

<sup>216</sup> 216 100 hikmat, 19.

va davlat arbobi Abul Fatx Bustiydir<sup>217</sup>. Domla Irisov she’rda madh etilayotgan “Abul Fatx”ning Bustiy ekaniga shubha bilan qaraydi va fikrining so’nggida “Bustiy Beruniy G’aznaga keltirilgandan yetti yil burun vafot etgan edi, shu tufayli u Beruniyga “rahnama”, “sarbon” bo’lishi mumkin emas”, – deydi<sup>218</sup>.

Ammo Beruniyning G’aznaga kelishidan 10-15 yil oldingi voqealarga nazar soladigan bo’lsak, Mahmud G’aznaviyning eng yaqin kishilaridan biri bo’lgan Abul Fath Bustiy o’sha davrlar siyosiy maydonida ko’zga ko’ringan siymolardan biri bo’lganiga amin bo’lamiz. Xorazmshoh Ma’mun ibn Muhammad sulton Mahmudga elchi qilib yuborgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Xomid Bustiy bilan juda qadrdon bo’lgani va Bustiyning Xorazmda ham mashhurligi to’g’risida Saolibiy o’z vaqtida aytib o’tgan edi<sup>219</sup>. Garchi Beruniy va Bustiyning o’zaro aloqalari to’g’risida mazkur she’rdan bo’lak biron-bir ashyoviy dalilimiz bo’lmasa-da, ularning tanish bo’lganligini taxmin qilish mumkin. Masalan, ma’muniylar ba’zi muhim masalalarni Beruniy bilan, sulton Mahmud Bustiy bilan maslahatlashib hal qilgani va bu ikki davlat o’rtasida yaqin siyosiy,

---

<sup>217</sup> 217 *Saxriy haqidagi maqola izohiga qarang.*

<sup>218</sup> “100 hikmat”. 20.

<sup>219</sup> 219 “Yatimmat ad dahr”.

hatto qarindoshchilik aloqalari bo'lganini eslasak, ular, albatta, bir-birini yaxshi tanigan bo'lishi kerak.

Lug'atda Beruniyning mazkur madhiyasidan boshqa yana ikkita she'ri va uchta falsafiy to'rtligi berilgan. Ularning orasida Beruniy ajdodlarini madh etib yozgan Abu Hasan ismli shoirga uning raddiyaga o'xshash javobi tadqiqotchilar e'tiborini tortgan. Abu Hasanning kim bo'lgani bizga qorong'u hamda uning Beruniyga atab yozgan she'ri ham bizgacha yetib kelmagan.

A.Rasulev va A.Irisov Beruniyning ushbu she'riga asoslanib, uning ota-onasi kambag'al, omi odamlar bo'lgan, deb xulosa chiqaradi<sup>220</sup>. Bunday xulosaga sabab bo'lgan she'rning o'sha satrlari mana shunday:

*Ont ichaman, bilmassan nasl-u nasabim,*

*Hatto ota-bobom, ajdodim kimdir.*

*Otam Abu Lahabdek odobsiz bir chol,*

*Onam-chi, huv o'sha o'tinchi kampir*<sup>221</sup>.

*Xo'sh, Abu Lahab kim? O'tinchi kampir-chi?*

Abu Lahab Qur'onda nomi zikr etilgan shaxs<sup>222</sup>.

"Abu Lahab payg'ambar alayhissalomning amakilari va eng ashaddiy dushmanlaridir. U boyligi g'ururga ketkazgan sinf vakili: ular o'zlariga vazifa

<sup>220</sup><sup>220</sup> "Beruniy va ijtimoiy fanlar", 60; "100 hikmat", 20.

<sup>221</sup> "Udabo", VI 313; 100 hikmat 17.

<sup>222</sup> "Qur'oni karim", "Ma'sad" surasi (III).

yuklatuvchi barcha harakat va tuzumlarga qarshi chiqaveradi.

Abu Lahabning xotini Ummu Jamil ham islomning ashaddiy dushmanlaridan biri bo'lib, payg'ambar alayhissalom haqida turli bo'xton va tuhmatlar tarqatib yurardi. U ham chaqimchilik, g'iybatchilikka o'ch, fitnachi ayollar toifasining vakilasi"<sup>223</sup>.

Umuman, Abu Lahab va Ummu Jamil (hammalat ul xatob) boyligi tufayli g'ururga ketgan va to'g'ri yo'ldan adashganlardandir. Ummi Jamil o'tinni kun kechirish ilinjida emas, balki Muhammad (S.A.V) yo'lini to'sish, birovga yomonlik qilish maqsadida tashir edi.

Demak, Abu Lahab "O'tin tashuvchi ayol" deganda mutlaqo kambag'al, bechora, savodsiz odamni emas, balki boy va zulmkor, johil va shavqatsiz insonlar tushunilar ekan. Bizningcha, Beruniy bu iboralarni faqat kesatiq uchun, ayniqsa, yolg'onchi va g'ururga ketgan insonning oxiri nima bo'lishini o'sha Abu Hasanga uning yolg'onlari uni qayerga eltayotganini ko'rsatish maqsadida aytmayaptimi?<sup>224</sup>

---

<sup>223</sup> 223 "Tafsiri hilo 1", (*Amma porasi*. 30), 174.

<sup>224</sup> *Rivoyat qilurlarki, Rasululloh S.A.V hazrati haq taolaning amri ila o'zining qarindoshlari va yaqinlarini islom diniga da'vat qila boshlagach, Abu Lahab aytdi: "Qarindoshimning o'zining aytgan so'zi to'g'ri bo'lsa, xasta iymon keltirmaganimiz uchun bizga azob yetishsa, men u azobdan molimni ham*

Xullas, Yoqut xabarlariga, ko'ra Beruniy madhiya, raddiya, ishqiy va falsafiy mavzularda she'rlar bitgani ma'lum bo'ladi.

Tadqiqot mobaynida bunday muammoli fikrlarning paydo bo'lishi, Beruniy she'riyati, jumladan, uning bir oddiy inson sifatidagi hayotiy faoliyati yanada chuqurroq o'rganilishga muhtoj ekanini ko'rsatadi.

## AHMAD IBN IBROHIM AL ADIBIY

"Abu Sa'id Xorazmiy Xorazmning shoir va adiblari orasida mashhur fazillardan biri"<sup>225</sup>, – deydi u haqda Yoqut al Hamaviy. Abu Sa'id al Adibiy haqidagi ma'lumotlar Abu Muhammad ibn Arslonning "Xorazm tarixi" asaridan olingan. Mazkur asarda: "Abul Fazl as Safariy uni shunday eslaydi", – deyiladi: "Uning xatini o'qidim. Darhaqiqat, u mohir kotib bo'lgan va go'zal risolalar bitgan. Nihoyatda go'zalligi va beqiyos fasohati

---

*bolalarimni fido qilib qutulurman*", – dedi. Bass, haq taolodin vahiy keldimi, "oning moli ham, bolalari ham undan balolarni daf eta bilmas". Abu Lahabning o'g'li Utabahni Shom yo'lida bir arslon olib ketdi. Abu Lahabning o'zidan yomon yara chiqib badbo'yligidan hech kim yoniga borolmay goldi va ming azobda olamdan o'tdi. Jasadi bir necha kun ko'milmay yotdi. Odamlar oxiri uning badbo'yligiga chiday olmay, qullarni yollab ko'mishdi. (Taxisilul bayon, II. 813.)

<sup>225</sup> "Mujam ul udabo", I, 78.

tufaylidin undan nigoh o'zib bo'lmasdi”<sup>226</sup>.

Lug'atda Adibiyning ijodiy fazilatlari go'zal iboralar bilan ta'riflangandan so'ng, uning ijtimoiy hayotga munosabatini aks ettirgan qisqagina ma'lumot berilgan. “U ko'k jubbali, kul rang soqol, dardi bedavo, qulog'i kar kesilgan, tili tishga aylangan, ko'z qiri xanjar, so'zi tish bo'lgandan askar uzib olguvchi, ko'rganini shubha bilan butkul teskari qiluvchi” dilozor kimsa ustidan hukmdorga shikoyat qiladi. Ammo “dilozor” kimsa yoki hukmdorning kimligi aniq aytilmaydi.

Yoqut Adibiyning olti bayt she'r va nasriy risolasidan parcha keltiradi. Adibiy asarlarida so'z o'yinlari orqali ramziy ifodalarni ko'p qo'llagani sababli ularni tushunish uchun o'quvchidan chuqur bilim va o'tkir zehn talab qiladi.

Lug'atda Adibiy tarjimayi holiga oid boshqa ma'lumot yo'q. Uning qaysi davrda yashab o'tgani to'g'risida ham hech narsa deyilmaydi. Faqat uning Abul Fazl as Safariydan (XI asr) oldin o'tganini e'tiborga olsak, demak, u XI asrdan oldinroq yoki uning boshlarida yashagan bo'lishi mumkin. Shuningdek, u haqida boshqa manbalarda ham hozircha hech qanday qo'shimcha ma'lumot uchratmadik.

---

<sup>226</sup> O'sha joy.

Hind Husayin Toho ham bu borada Yoqut ma'lumotlarini takrorlab, unga qisqacha munosabat bildirish bilan cheklangan xolos<sup>227</sup>.

### AHMAD IBN ALI AS SAFARIY AL XORAZMIY

“U Xorazm fozillaridan, yetuk alloma va kotib edi”, – deydi u haqda Muhammad ibn Arslon<sup>228</sup>.

Lug‘atda Safariy to‘g‘risidagi ma'lumotlar ham unchalik mukammal emas. Yoqut uning qachon o‘tgani to‘g‘risida hech narsa demaydi. Faqat uning qandaydir bir ishqiy sarguzashtlari tufayli oilasidagilar bilan o‘zaro ziddiyatga borganini aytib o‘tadi.

Safariy ajoyib she’rlar va risolalar bitgan. Yoqut uning risolalar majmuasini ko‘rganini va ular haqiqatan ham maqtovga sazovor ekanini ta’kidlaydi. Safariyning bu risolalari Abu Hafs Umar ibn al Muzaffar al Adibiy tomonidan jamlanib, majmua holiga keltirilgan. Lug‘atda Safariyning Amid al Mulk Abu Nasr Kunduriga<sup>229</sup> Abu Sa‘id Saxl ibn Ahmad Saxliy<sup>230</sup> haqida yozgan maktubi

---

<sup>227</sup> “Al adib al arabi”, 96, 358, 359, 360,

<sup>228</sup> “Mu‘jam ul udabo”. I 422.

<sup>229</sup> *Amid Al Muli abu Nasr ibn Abu Solih Muhammad ibn Mansur ibn Muhammad al Kunduriy al Jarrohiy. U sulton ali Arslon davrida Marvda 456-yil 16-zulhijjada (1064-yil 29-noyabr) qatl etilgan.*

<sup>230</sup> *Bu shaxs haqida ma'lumot topolmadik.*

keltiriladi<sup>231</sup>. Yoqut uning ajoyib she'rlar yozganini ham eslatib o'tadi. Ammo u she'rlardan namunalar bermagan. Shuningdek, Safariyning asarlar yozgani to'g'risida ham hech narsa demaydi.

Safariyning yashagan davri to'g'risida faqat uning saljuqiylarning mashhur vaziri Abu Nasr Qunduriyga yozgan xati asosida ba'zi bir xulosalarga kelishimiz mumkin.

Ma'lumki, saljuqiylar 428-yil sha'bon (1037-yil may-iyun) oyida Tug'rulbekni sulton deb, e'lon qiladir<sup>232</sup>.

Kunduriy esa Tug'rulbek saroyida avval "Eshik og'asi" ("Hojib ul bob") lavozimida xizmat qiladi va keyinchalik ulug' vazir darajasiga ko'tariladi. Bu voqeа taxminan 1040-1064 yillar orasida bo'lib o'tadi. Lug'atda ma'lumotlarga qaraganda Safariy bu paytlarda hayot bo'lgan va Kunduriyga maktub yozgan. Bundan xulosa chiqarsak, Safariyning XI asrda yashab ijod etgani ma'lum bo'ladi.

Abul Fazl as Safariyga oid boshqa manbalarda ma'lumot uchratmadik.

Toho Xorazm arabiynavis adiblari haqidagi tadqiqotida as Safariy to'g'risida ham qisqacha to'xtalib, uning risolalari "nasri holisa", ya'ni "badiiy

---

<sup>231</sup> 231 "Mu'jam ul udabo". I 423.

<sup>232</sup> 232 Xusayniy. "Axbar ad davla as saljuqiya", 1980, 29.

nasr”ga tegishli ekanini ta’kidlaydi<sup>233</sup>. Biroq Yoqutning Safariy haqidagi ma’lumotlari hozircha yagonadir.

## AL HASAN IBN AL MUZAFFAR AN NAYSABURIY

Abu Ali al Hasan ibn al Muzaffar al Adib ad Darir an Naysaburiy al Xorazmiy o’z davrining taniqli shoiri va adibi bo’lgan. Uning davrida Xorazm tarix siyosiy sahnasida unchalik ko’zga tashlanmay turgan paytlar edi<sup>234</sup>. Asr boshidagi Xorazm adabiy-madaniy muhiti ancha sokinlashib, bo’lg’usi yuksalishlar oldidan go’yo nafas rostlayotganday edi. Abu Ali al Hasan al Xorazmiy agar ta’bir joiz bo’lsa, bu ikki davrni o’zaro bog’lab turuvchi muhim xalqalardan biridir. “U o’z asarida Xorazm ahlining ustozি edi”, – deb Yoqut uning ilmi va ijodiy faoliyatini yuksak baholaydi<sup>235</sup>.

Shuningdek, u Hasan al Xorazmiyning Abu Mudardan oldin Abul Qosim Mahmud az

---

<sup>233</sup> “Al adib al arabi”, 81. 356, 357, 358.

<sup>234</sup> 234 Taxminan 432-470 (1041-1077)-yillar oralig‘ida Xorazmda javdlik Shoh Malik asos solgan sulola hukmronlik qiladi. Aftidan ularning Saljuqlar bilan munosabati yaxshilangan. Chunki saljuqiy sulton Tug‘rulbek (ayrim manbalarda alp Arslon) ular xonadoniga kuyov bo‘lish maqsadida sovchi yuborgan. Usha davrlarda saljuqiylar bilan bellashadigan kuch siyosiy maydonda yo‘q edi.

<sup>235</sup> “Mu’jam ul udabo”, III, 218.

Zamaxshariyga ustoz bo'lganini aytadi va ayni paytda bu bilan mazkur ma'lumotning to'g'riligini shubha ostiga qo'yadi. Albatta, bu yerda shubha qilishga sabab Hasan al Xorazmiyning vafoti (442) (1051) va Zamaxshariyning tug'ilgan vaqt (467) (1075) orasidagi farqdir. Bizning nazarimizda ushbu o'rinda Hasan al Xorazmiyning vafotiga oid 442-sananing ko'rsatilishida xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa kerak. (Bu sana Ibn Arslonning "Xorazm tarixi" dan olingan). Chunki, avvalo, Yoqut vaqt masalasida ikki o'rtadagi bunday katta tafovutni bila turib, uni "Zamaxshariyning ustozi edi" deb qat'iy ayta olmasdi.

Ikkinchidan, maqolada Hasan al Xorazmiyning Abu Hafs Umar ismli o'g'li bo'lgani va u 523 (1138)-yilda vafot etgani to'risida xabar beriladi. E'tibor qiling, ota-bola vafoti o'rtasidagi farq bunchalik katta bo'lishiga ham ishonish qiyin.

Endi bizning bu taxminimiz uchun eng asosiy dalillarimizni e'tiboringizga havola qilamiz. Ulardan biri – Hasan al Xorazmiy Iroq as Sinnoriyga ham ustoz bo'lgani lug'atda aytib o'tiladi. Sinnoriy esa Zamaxshariyning zamondoshi, u ham 1144-yilda vafot etgan<sup>236</sup>. Shuningdek, lug'atda Ali ibn Muhammad ibn Ali al Vohidiy haqida gap ketganda

---

<sup>236</sup> "Mu'jam ul udabo", V, 274.

Yoqut “al Hasan ibn Muzaffar an Naysaburiy unieslab, shunday degan”, – deydi<sup>237</sup>.

Holbuki, al Vohidiy lug‘atda aytilishicha, 468 (1076)-yilda vafot etgan. Qo’shimcha ma’lumot axtarib, Tohoning tadqiqotini ham qarab chiqqanimizda, undan Hasan al Xorazmiyning bir qasidasini topdik<sup>238</sup>. Bu qasida saljuqiylarning mashhur vaziri Nizom ul Mulkka<sup>239</sup> bag‘ishlangan ekan. Ma’lumki, Nizom ul Mulk Sulton Tug‘rulbek vafotidan so‘ng (454) (1063) Alp Arslon taxtga o’tirgach, vazirlik mansabiga ko’tarilgan edi. Ungacha bu lavozimda Abu Nasr Qunduriy xizmat qilib kelardi. Ana endi mulohaza qilib ko‘ring, Nizom ul Mulk vazirlik martabasiga ko’tarilishidan 10-15 yil ilgari tark etgan odam qanday qilib:

*“Hilpiragan Nizomiya yalovidan,  
Saodatning tiniq epkini yeladur.  
G‘am-g‘ussa emas, balki undan,  
Dimoqqa xush bo‘ylar keladur”<sup>240</sup>,*  
– deb ulug‘ vazirni madh etib, unga qasida

---

<sup>237</sup><sup>237</sup> “Mu’jam ul udabo”, V, 97-98.

<sup>238</sup><sup>238</sup> “Al adib al arabi”, 100-101.

<sup>239</sup><sup>239</sup> Abu ali al Hasan ibn Ali ibn Is’hoq ibn Al Abbas Nizom ul Mulk al Qavomiddin at Tusiy (408-485) (1018-1092). Saljuq Sultoni alp Arslon va uning o‘g‘li sulton Malikshohning bosh vaziri bo‘lgan.

<sup>240</sup><sup>240</sup> Nizom ul Mulk Bag‘dod, Hirot, Balx, Marv kabi bir qancha shaharlarda machit, madrasalar qurdirgan. Ular omma orasida “Nizomiya” nomi bilan mashhur edi. Mazkur satrlarda shunga ishora qilinyapti.

bitadi<sup>241</sup>.

Hasan al Xorazmiyning bu qasidasi “Adiblar lug‘ati”da uchramaydi. Xusayin Toho uni Abul Hasan al Boxaziyning<sup>242</sup> “Dumyat al qasr va usrat axl ul asr” (“Asr ahlining panohi va sajdagohi”) asaridan olganini ko‘rsatib o‘tadi.

Xullas, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dalillarga asoslanib, biz Naysaburiy Zamaxshariyning chindan ham ilk ustozlaridan biri bo‘lganini e’tirof etamiz.

Yoqut lug‘atda Naysaburiy bir necha asarlar yozganligini aytadi va ulardan quyidagi ettitasini sanab o‘tadi:

1. “Kitob tazhib ad devon ul adab”. (“Adab devoniga tuzatishlar”).
2. “Kitob tazhib isloh ul mantiq”. (“Mantiq islohiga tuzatishlar”).
3. “Kitob zinxu ala tatimmat al yatima lam aqafafa al‘a asmihi”. (“Yatima” da uchramaydigan ismlarga qo‘sishimcha”).
4. “Kitob devan she‘r mo‘jalladatan”. (“Ikki jildli she‘riy devon”).
5. “Kitob devon ar rasoil”. (“Risolalar devoni”).
6. “Kitob maxosan min ismuxu al Hasan”. (“Hasan

---

<sup>241</sup> “Al adib Ap arabi”, 101.

<sup>242</sup> 242 Ali ibn Al Xasan ibn Ali ibn Abu at Tayib al Baxarziy as Subxiy o‘z davrinining ulug‘ allomalaridan, Qunduriyga bag‘ishlab madhiyalar bitgan va 467 (1075)-yilda qayd etgan. Uning mazkur asari 1930-yilda Halabda nashr etilgan. U haqda Yoqut ham ma‘lumot bergen. (Udabo, V, 121).

ismlilarning go'zal xulqlari".)

7. "Kitob ziyodat axbar Xorazm". ("Xorazm haqida kerakli ma'lumotlar"<sup>243</sup>.)

Mazkur asarlarning dastlabki to'rttasi Hoji Xalifada ham uchraydi<sup>244</sup>. Hoji Xalifa "Adab devoni" asari Isxoq ibn Ibroxim al Farobiyniki ekani va Abu Ali al Hasan Al Xorazmiy unga tuzatishlar kiritib, kitob ta'lif etganini ta'kidlaydi. Shuningdek, u Ibn Siqqiyt nomi bilan mashhur bo'lgan Yoqut ibn Is'hoq ash Shohirning (vafoti 244) (858) "Isloh ul mantiq" asariga tuzatishlar yozganini ko'rsatib o'tadi.

Yoqut lug'atda Hasan al Xorazmiyning "Yatima"da uchramaydigan ismlarga qo'shimcha" asari haqida shunday deydi: "Aytib o'tgan kitoblarimdan "Tatimmat al yatima"ni o'qib ko'rdim. U Abu Mansur as Saolibiy rahimatollohu uslubiga ergashib, "Tatimmat al yatima"ning oxirda o'zining tahsinga loyiq nazmiy va nasriy ijodidan namunalar beradi<sup>245</sup>.

Lug'atda Abu Ali al Hasan al Xorazmiyning turli mavzularda yozilgan 19 bayt she'riy parchasi kelirilgan. Ularda, asosan, shoirning ichki kechinmalari va falsafiy qarashlari aks etgan.

---

<sup>243</sup> "Mu'jam ul udabo" Sh. 219.

<sup>244</sup> "Kashf az zunun", I. 112. 503, 509; II. 659.

<sup>245</sup> "Mu'jam ul udabo" Sh. 219.

Umuman, izlanishlar natijasida garchi Abu Ali al Hasan al Naysaburiy al Xorazmiyning yozgan asarlari bizga qadar yetib kelgan-kelmagani noaniqligicha qolgan bo'lsa-da, biroq Yoqutdan tashqari Abul Hasan al Boxarziy ("Dumyat ul qasr usrat axl ul asr"), Salohiddin Xalil ibn Oybek (vafoti 764 (1362)) ("Al vafi vafoyot"), Hoji Xalifa ("Kashf az zunun") asarlarida u haqda turli ma'lumotlar saqlanib qolgani bu borada yanada samaraliroq tadqiqotlar olib borish mumkunligini ko'rsatadi.

### **MAHMUD IBN JARIR AD DABBIY AL ISFAHONIY ABUMUDAR AN NAHVIY**

Yoqut uni "asrining durdonasi" va "davrining yagonasi" deb ta'riflaydi. U tilshunoslik, nahv, tib ilmining bilimdoni bo'lgan. Uning nisbasiga qaraganda (Isfahoniy) va Yoqutning uni "Xorazmda bir qancha muddat yashadi"<sup>246</sup>, deb aytishicha, u asli Xorazmdan bo'lмаган. Ammo go'zal xulqi va ilm sohasida bilimdon bo'lgani sababli tezda Xorazmliklarga el bo'lib ketadi. U mu'taziliy<sup>247</sup>

---

<sup>246</sup> 246 "Mu'jam ul udabo", VII 145.

<sup>247</sup> Mutazila ta'limoti VII-VIII asrlarda Xasan al Basriy (642-728) davrlarida paydo bo'lgdn. Uning shogirdlari Vosil ibn Ota (v. 784) va Amra ibn bayd (v. 761) mutaziylarning ilk vakillari hisoblanadi. Mu'taziliyning asoslari bizda hali yaxshi o'rganilmagan.

qarashda edi va o‘z qarashlarini targ‘ib qilardi. Ayniqsa, uning shogirdlarining orasida az Zamaxshariydek ulug‘ allomalarining yetishib chiqishi va uning ishlarini davom ettirishi tufayli mutaziliylik Xorazmda keng tarqaladi.

Lug‘atda Abu Mudar haqida juda kam ma’lumot berilgan. Yoqt uning shunchalik mashhur bo‘lishiga qaramasdan: “Zod ar roqib” (“Ulovli sayyohga yo‘l ozug‘i”) kitobidan boshqa biron kimsa tomonidan tilga olingan yoki eslatilgan asarini, she’rlar yo hikoyalari borligini bilmayman”, – deydi<sup>248</sup>.

“Zod ar roqib” asarida Mahmud ibn Jarir Abu Mudarning she’rlari va xabarlari o‘rin olgan”, – deb Hoji Xalifa bu ma’lumotlarga qo‘srimcha qiladi<sup>249</sup>. Ammo bu kitobning bizga qadar yetib kelgani noma’lum. Abu Mudar 507 (1112)-yilda Marvda vafot etadi. Yoqt lug‘atda bu musibat munosabati bilan Zamaxshariyning unga bag‘ishlab yozgan marsiyasidan quyidagi parchani keltiradi.

*Dedi: Ul ne durki, ko‘zingdin sim-sim to‘kilur?*

*Dedim: Ul Abu Mudar ko‘zimni to‘ldirgan dur.*

---

<sup>248</sup> 248 “Mu‘jam ul udabo”, VII 145

<sup>249</sup> “Kashf az zunun”, II 2.

<sup>249</sup> 250 Zahiriddin Abul Hasan Ali ibn Qosim ibn Zayd al Bayhaqiy 499-yili sha’bonning 27-kuni (1106-y 9-may) Xurosonning Bayhaq qabasida tug‘ilgan. O‘z davrining mashhur allomalaridan biri. U 565 (1169)-yili vafot etgan.

Abul Hasan Ali al Bayhaqiyning<sup>250</sup> (Ibn Funduk) “Tatimma sivan al hikma” asarida Abu Mudar haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Bayhaqiy ushbu asarida: “U handasa ilmi bilan ziynatlangan faylasuf edi.

Vazir Sadr ad Din Muhammad ibn Faxr al Mulk<sup>251</sup> uni huzuriga chorladi. Bu faylasuf olivjanob, saxovatli va halim tabiatli edi. 508-yil shavvolning 17-kuni Marvda vafot etdi<sup>252</sup>, – deb yozadi va uning hikmatli so‘zlaridan namuna beradi. Albatta, bu yerda Abu Mudar vafotiga oid Bayhaqiy tomonidan keltirilgan sana to‘g‘riroq bo‘lsa kerak. Chunki u harqalay Abu Mudarning zamondoshi edi. Abu Mudar haqida ma'lumotlar Tohoda ham uchraydi<sup>253</sup>. Toho o‘z ishida Yoqutdan tashqari Abul Xasan al Kiftiy, Ibn To‘g‘roberdi, Toshqubrizoda va Al Omiliy asarlaridan ham foydalanganini qayd

---

<sup>250</sup> 251 Saljuqlarning taniqli vaziri Nizom ul Mulkning nevarasi. Shofiy mazhabi imomlariga homiylik qilgan. 552 (1157)-yili vafot etgan.

<sup>251</sup> 252 Багирова С. Сочинение “Татимма сиван ал ҳикма” Ал Бейхаки образец средневекового энциклопедического справочника. Ташикент. ФАН. 1987 г., стр.84-85.

<sup>252</sup> 253 “Al adib al arabi”. 217, 218, 236, 237, 433.

<sup>253</sup> 254 Abul Xasan Jamoliddin Abul Mahosin Yusuf ibn Ibrohim ash Shayboniy al Kiftiy (v. 6460 (1248) “Ibna ar ruvot” 459-bet: Jamoliddin Abul Mahosin Yusuf Otabekiy ibn Tugroberdi (v. 8740 (1469) “An nujum az “Zoxiratul marja’ as saboq”, 447; Ahmad ibn Mustafo Toshqubrizoda (v. 9680 (1560) “Muftoh as saodat” 457; Baxovuddin al Omiliy (v. 1031) (1621) “Al nashnul” 458.

etadi<sup>254</sup>. O‘zbekistonda ham Abu Mudar to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi<sup>255</sup>. Ammo ular faqat Zamaxshariy bilan bog‘liq maqolalarda bo‘lib, Yoqut ma’lumotlariga aytarli biror yangilik qo‘sha olmaydi.

## MAHMUD IBN AZIZ AL ARZIY

XII asrning boshlarida yashab o’tgan bu adib Xorazm adabiy muhitida o‘ziga xos iz qoldirgan. U kuchli xotira Sohibi va ajoyib notiqligi uchun Zamaxshariy uni “Ikkinchi Joxiz”<sup>256</sup> deb atagan. U o‘z davrida tilshunoslik va adab ilmi fozillaridan biri bo‘lgan. Keyinchalik falsafaga berilib ketadi. Fiqhni chuqur o‘rganadi. Abu Nasr al Kushayriydan<sup>257</sup> hadis tinglaydi. U yuksak aql-zakovati va ilmda erishgan yutuqlari sababli “Shamsul mashriq” (“Sharq quyoshi”) degan sharaflı unvonga ega

---

<sup>254</sup> <sup>255</sup> U.Uvatov. “Haqgo‘ylar bahori”ning ijodkori, Xalq so‘zi, 1995-yil, 20-soni; Nozik iboralar, 11-bet; Вахабова Б. Иевлеченя из “Ириада” Йанута. Материалы по истории средней и центральной Азии X-XIX вв. (sb.nol.) Tashkent, FAN, 63-76. Vaxabova mazkur ishida “Umer (Abu Mudar) v Merve v 517 (1123) g.” deb xatoga yo‘l qo‘yilgan.

<sup>255</sup>

<sup>256</sup> <sup>257</sup> Abu Usmo Amr ibn Bahr ibn Mahbub al Johiz abbosiy xalifalar davrida yashab, ijod etgan. Diniy ilmlar sohasida yetuk, yuksak iqtidori va hozirjavoblikda tengsiz bo‘ganidan adab ahli o‘rtasida katta hurmat-e’tibor qozongan. U Ibn Xalliqonning xabar berishicha, 255-yilning muharram oyida (20.12.868–19.01.869) vafot etadi. (Vafoyot ul a‘yon, 1389).

<sup>257</sup> <sup>257</sup> Bu alloma haqida qo‘shimcha ma’lumotlar uchratmadik.

bo'ladi.

Yoqut mazkur alloma haqida nihoyatda kam ma'lumot beradi. "U bir necha muddat Xorazmda yashab, Xorazmshoh xizmatida bo'ldi. So'ngra Marvga ketib qoldi va u yerda 521 (1127)-yilda o'z joniga qasd qildi", – deb uning taqdiri fojiali yakun topganini ma'lum qiladi<sup>258</sup>.

Lug'atda Yoqut uning ijodidan namuna bermagan va asarlar ta'lif etgan-etmagani to'g'risida ham hech narsa demagan.

Abul Hasan Ali al Bayhaqiyning Mahmud al Arziy to'g'risida bergen ma'lumotlari ham e'tiborga molikdir. "Uning otasi Xorazmni bosib olgan turk Qasraning vaziri edi. Mahmud faylasuf Abul Barokat qo'lida ilm olgan yetuk va taniqli adib edi. Men uni 519 (1125)-yili Marvda ko'rganman. U savdoyi bo'lib qolgandi. Qish kechalarining birida u o'zini pichoqlab o'ldiradi", – deb yozadi Bayhaqiy va uning ajoyib hikmatlaridan keltiradi. Ulardan birida shunday deyilgan: "Donolik kishini to'yadiradigan eng to'yimli va toza ozuqadir"<sup>259</sup>.

Ko'rinish turibdiki, Yoqut va Bayhaqiy ma'lumotlari bir-birini takrorlamaydi, balki to'l-diradi.

---

<sup>258</sup> 258 "Mu'jam ul udabo", VII 146.

<sup>259</sup> 259 Сочинение "Татимма сиван ал ҳикма" Ал-Бейхаки, стр. 102.

Shuningdek, Hind Husayin Toho o‘z tadqiqotida al Arziy haqida Suyutiy ham gapirib o‘tganini qayd etadi<sup>260</sup>.

Bizda esa B.Vahobova Yoqut ma'lumotlari asosida u haqda to'xtalib, “unchalik ma'lum bo'lмаган xorazmlik adiblardan”, – deb eslaydi<sup>261</sup>.

## UMAR ABU HAFS AL HASAN

Yoqut bu adib haqida alohida to'xtalib o'tmagan. Abu Hafs haqidagi ma'lumotlar uning otasi Abu Ali al Hasan al Xorazmiyga bag'ishlangan maqola ichida. Yoqut u haqida: “Ismi Umar. Kunyasi Abu Hafs adib va faqih, fozil inson edi”<sup>262</sup>, – 262 deydi.

Yoqut lug'atda uning ijodidan ushbu she'riy parchani keltiradi:

“Na samoda, na yerda o'xshashi yo'q, tengi yo'q,

Olamlarni so'rovchi undan o'zga tengri yo'q.

Samoga bitdi rabbim, Hazrat Ahmad nomini,

Va yorishdi yer zuhr etgach, undan haq o'z

---

<sup>260</sup><sup>260</sup> “Al adib al arabi”. 68, 74, 82.

<sup>261</sup><sup>261</sup> Памятники арабоязычной биографической литературы. стр.

<sup>262</sup><sup>262</sup> “Mu'jam ul udabo”, III 218.

holini”<sup>263</sup>.

Ma'lumki, diniy mavzu o'tmishda adabiyotimizning bosh yo'nalishlaridan biri hisoblangan. Bu borada, ayniqsa, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Bokirg'oniy kabi alloma shoirlarimiz shuhrat qozongani va bugungi kunda ham ularning o'tmish shuhrati yanada baravj bo'layotgani sir emas. Abu Hafsning mazkur she'ri ham ularga hamohangligi ko'rinish turibdi.

Yoqut ta'kidlashicha, Abu Hafs 532-yil sha'bon (1138-yil may) oyida olamdan o'tgan<sup>264</sup>.

### **MAHMUD IBN UMAR IBN AHMAD ABUL QOSIM AZ ZAMAXSHARIY**

“Adiblar lug‘ati” dagi ma'lumotlar asosida amalga oshirgan tadqiqotimiz mobaynida ulug‘ vatandoshimiz Abul Qosim az Zamaxshariyning o'rta asrlarda o'tgan buyuk allomalar orasida eng yorqin siymolardan biri bo'lganiga komil ishonch hosil qildik. U o'z vaqtida toza e'tiqodi va yuksak aql-zakovati tufayli Jorulloh (Ollohnning qo'shnisi) degan ulug‘ laqab-unvoniga sazovor bo'ldi.

“Jorulloh tafsir, nahv, lug‘atshunoslik va

---

<sup>263</sup> “Mu'jam ul udabo”, III 219.

<sup>264</sup> O'sha joy.

adabiyot sohasining peshqadami edi”, – deb yozadi Yoqut u haqida<sup>265</sup>.

Darhaqiqat, Zamaxshariyning hayoti turli voqealarga boy va ijodiy faoliyati nihoyatda sermahsul bo’lgan. U umri davomida ellikdan oshiq asar bitib, avlodlarga bebahvo ma’naviy meros tortiq qildi. U o’z vaqtida islom olamida dovruq taratgan bo’lsa, bugungi kunda esa dunyo ilm ahlining samimiy hurmatiga sazavor bo’lmoqda. Uning ijodiy merosi xorijiy o’lkalarda keng o’rganilib, mavjud asarlari qayta-qayta nashr etilib kelinayotgani bu fikrlarimizning yaqqol dalilidir<sup>266</sup>.

Ammo achchiq bo’lsa ham tan olish kerakki, xalqimiz shu paytga qadar uning dahosidan bebahra qolib keldi. Faqat mustaqilligimiz sharofati tufayli unga bo’lgan munosabat o’zgarib, matbuotda u haqda ma’lumotlar paydo bo’la boshladi<sup>267</sup>. Bu borada U.Uvatov, A.Rustamov kabi olimlarimiz amalga oshirgan ishlar tahsinga loyiqidir. Abul Qosim az Zamaxshariy haqida ma’lumotlarning

---

<sup>265</sup> “Mu’jam ul udabo”, Sh 219.

<sup>266</sup> *Bu haqda batafsil ma’lumot uchun qarang: “Nozik iboralar”, 24-44.*

<sup>267</sup> Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, FAN, 1971-y.; U.Uvatov qalamiga oid tadqiqotlar: Zamaxshariy. “Nozik iboralar”. Ma’naviyat yulduzları (jamoatchilik to’plami), Toshkent, A.Qodiriy, 1999, 119-124; “Haqqa’ylar bahori”ning ijodkori, “Xalq so’zi” ro’znomasi, 1995, 20 aprel; Boriyev U. Allomaning “Arizi” va “O’n o’giti”, o’sha gazeta; Hasanov S. Xorazm ma’rifati – olam ko’zgusi, 135; Homidov X. Qirq besh alloma hikoyati. Toshkent, FAN, 1995-y., 75.

ko‘pligi va asarlarining ham aksariyat qismi bizgacha yetib kelganligini hisobga olib, “Adiblar lug‘ati”dagi ma’lumotlarga tayangan holda tadqiqotimiz imkoniyati darajasida uning tarjimayı holi va ijodiga to‘xtalib o’tamiz.

Yoqut lug‘atda Zamaxshariy haqida: “Opasing o‘g‘li Abu Amru Omir ibn al Hasan as Simsor” u 467-yil rajab oyining 27-kuni chorshanbada (1075-yil 19-mart) Xorazmning Zamaxshar qasabasida tavallud topgan deydi”, – deb ma’lumot beradi<sup>268</sup>. Yoqutning bu ma’lumoti deyarli barcha manbalar tomonidan tasdiqlanadi. U ilk saboqlarini uyida otasidan oladi va keyinchalik Abul Hasan Ali ibn Muzaffar an Naysaburiy, Abu Mudar Mahmud ibn Jarir ad Dabbiy al Isfahoniq qo‘lida tarbiyalanadi. Zamaxshariyning yetuk ilm Sohibi bo‘lib kamol topishida buxorolik shayxul islom Abu Mansur Nasr al Xorisiy (hanafiy mazhabidan), Abu Sa‘id ash Shaffoniy kabi allomalarning ham xizmati katta bo‘lgan. Ma’lumki, taqdir taqozasi bilan Zamaxshariyning bir oyog‘i yog‘ochdan bo‘lgan. Bu haqda manbalarda turli rivoyatlar yuradi. Yoqut ham uning bir oyoq bo‘lib qolishiga oid qiziqarli xabar beradi.

---

<sup>268</sup> “Mu‘jam ul udabo”, VII, 147.

“Mashhur faqih Damgoniy<sup>269</sup> undan oyog‘ining kesilishi sababini so‘raydi. U: “Bu onamning duosi. Yoshligimda bir kushchani tutib, oyog‘idan bog‘lab o‘ynayotuvdim. U bir uyaga kirib ketdi. Ipni tortsam, oyog‘i sug‘urilib chiqdi. Onam buni ko‘rib “iloyo, oyoqqinang uzulgur-a, nima qilib qo‘yding!?” deb, qattiq ranjidi. Ilm istab Buxoroga borayotganimda otdan yiqilib, oyog‘im sindi va kestirishga majbur bo‘ldim”<sup>270</sup> deb, so‘zlab beradi. Bizning nazarimizda ham Zamaxshariyning bir oyog‘i kesilishiga oid rivoyatlar ichida shunisi haqiqatga yaqin bo‘lsa kerak.<sup>271</sup>

Yoqut Zamaxshariyning tarjimayi holiga unchalik ko‘p to‘xtalmaydi. Asosan, uning (yuqorida aytganimizdek) kimlardan saboq olgani va mu’taziliy qarashga ega bo‘lgani, yoshligida ta’lim olish uchun Buxoroga borgani, keyinchalik haj safariga otlanib, Bag‘dod shahrida bir qancha allomalar, jumladan, Sharif Abu as Saodat Xabatulloh ibn Shajariy bilan uchrashgani to‘g‘risida gapirib o‘tadi.

Umuman olganda hali Zamaxshariyning tarjimayi holi chuqurroq tadqiq etilmagan. Bu

---

<sup>269</sup> 269 Damg‘oniy – o‘sha davrlarda hanafiya mazhabining Erondagi mashhur imomlaridan biri bo‘lgan.

<sup>270</sup> 270 “Mu‘jam ul udabo”, VII 147.

<sup>271</sup> 271 Lug‘atdagi bu rivoyat “Vafoyot ul a‘yon”da ham uchraydi.

borada amalga oshirilgan tadqiqotlarda ma'lumotlarda ham bahsga moyil o'rinalar talaygina uchraydi. Masalan, uning Buxoroga borib, u yerda tahsil olib qaytgandan so'ng Xorazmshohlar xizmatiga kirishi va bu yerdan yetarlicha e'tibor topmay saljuqiylar saroyiga, Nizom ul Mulk xizmatiga borishi xususidagi ma'lumotlarda bunday holni ko'rish mumkin<sup>272</sup>.

Ayniqsa, u bilan Nizom ul Mulk o'rtasidagi munosabatlarda Zamaxshariyning mutaziliy bo'lgani sababli ulug' vazirning saxovatiga erisholmagani to'g'risidagi ma'lumotlar unchalik ishonchli emas<sup>273</sup>. Chunki saljuqiylarning xaysahovatda vaadolatda nom chiqargan vaziri Nizom ul Mulk vafot etgan paytda<sup>274</sup> – 485-yil ramazonning 12-kuni (1092-yil 16-sentabr) Zamaxshariy endigina 17 yoshga to'lgan o'spirin edi. Garchand u zukko va ilmli yigitcha bo'lsa-da, biroq hali ilmning biron sohasida nom qozonib ulgurmagandi. Shunday ekan, Nizom ul- Mulk uning hatto mu'taziliy ekanini bilmagan ham bo'lishi mumkin.

---

<sup>272</sup> 272 "Nozik iboralar", 7; *Xorazm ma'rifati-odam ko'zgusi*, 135; Ammo Rustamov A. "Zamaxshariy Buxoroda o'qigandan so'ng, Xurosonga safar qiladi, Isfaxonga boradi, saljuqiylar saroyida xizmat qiladi. Shoh Muhammad ibn Anushtagin (1097-1127) davrida Zamaxshariy Xorazmga qaytadi" deydi. (Mahmud Zamaxshariy, 9).

<sup>273</sup> 273 Zamaxshariy. "Nozik iboralar", 7; "Al adib al arabi", 221, 222.

<sup>274</sup> 274 Nizom ul Mulk ismoiliylar tomonidan o'ldirilgan.

<sup>275</sup> "Nozik iboralar", 50.

Shuningdek, Mahmud az-Zamaxshariyning o'zi ham agar Nizom ul-Mulk uning mutaziliy ekanini bilib qolsa, uni jazolashi yoki hech bo'l maganda sovuq muomalada bo'lishini bila turib, unga qasida yozib o'tirmasdi. Zamaxshariyning "Imom A'zam Abu Xanifa Nu'mon ibn Sobit hazratlarining mazhabiga mansub bo'lgan mo'tabar, qadrli va e'tiborli imomlar dini islomning tizginlaridir"<sup>275</sup> deb, hanafiya mazhabiga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lganini eslasak, ikki ulug' allomaning o'zaro til topisha olmasligida boshqa vaj-karson borga o'xshaydi<sup>276</sup>. Ammo Yoqut ularning o'zaro munosabatlari to'g'risida hech narsa yozib qoldirmagan.

Zamaxshariy hayotiga oid ma'lumotlarda bunday chalkashliklarning uchrashi, bu borada, albatta, yanada chuqurroq va jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Yoqut "Adiblar lug'ati"da: "Abul Qosim az-Zamaxshariy Xorazmda 538-yil arafa kechasi (1144) vafot etgan", deb uning tarjimayi holiga oid

---

<sup>275</sup><sup>276</sup> Masalan, *Nizom ul-Mulk va Zamaxshariyning yoshi o'rtasidagi farqning kattaligi hamda o'sha paytlarda Imom G'azzoliydek zabardast allomalarining ilm-u hikmat maydonida peshqadamligi ham balki uning ko'zga tashlanmasligiga qisman sababchidir va yoki ular ikkalasi umuman uchrashmagan bo'lishi ham mumknn. Zamaxshariyning "Nozik iboralar"ida Rasullulloh sunnati va imom hanifa mazhabining madh etilishi ham ular o'rtasida mazhabiy ziddiyat bo'lganini inkor etadi.*

<sup>276</sup><sup>277</sup> "Mu'jam ul-udabo", VII 148.

xabarlarini yakunlaydi<sup>277</sup>.

Lug‘atda Zamaxshariyning ijodiga oid keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda qimmatlidir. Yoqt dastlab, uning she'riy baytlaridan namunalar beradi. Mazkur baytlarda ilm va jaholat haqida mushohada yuritiladi. Jumladan, unda:

*“Ilm – rahmondan taralgan nurdir,*

*Jaholat – g‘am-g‘ussa manbaidur”<sup>278</sup>*

degan fikrlarga duch kelamiz. Shuningdek, u yana Zamaxshariyning Qur‘onga yozgan mashhur “Al-Kashshof” tafsiri haqida bitgan quyidagi mazmundagi satrlarini ham keltiradi.

*“Bu dunyoda tafsirlar juda ko‘pdir,*

*Biroq “Kashshof” kabisini topmoqlik mushkul.*

*Uni bor-bor o‘qigan xidoyatga yetishgay,*

*Ki u jaholat dardining davosidir”<sup>279</sup>.*

Yoqt lug‘atda Zamaxshariy nasriy ijodining ajoyib durdonalaridan bo‘lmish “Atvoq az-zahab” (“Oltin shodalar”) asaridan parcha keltiradi<sup>280</sup>.

Zamaxshariy asarlarini mazmuniga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin. Tilshunoslik, adabiyot, fiqh, hadis, tafsir.

---

<sup>277</sup>

<sup>278</sup> *“Mu‘jam ul-udabo”, VII 148.*

<sup>279</sup> *279 O‘sha joyda.*

<sup>280</sup> *“Mu‘jam ul udabo”, VII 150, 151.*

<sup>280</sup> *281 U mazkur asarida Zamaxshariyga I bobning 3-fasli (211-256-betlar) va II bobning 4-faslini (383-417-betlar) ajratgan.*

Zamaxshariyning xorijda qanchalik mashhurligi uning asarlari ro'yxatidan ham ko'zga tashlanib turibdi. O'zbek tilida esa uning "Muqaddimat ul-adab" asarining bir qismi Alibek Rustamov tomonidan nashr etilganini aytib o'tdik. Shuningdek, U.Uvatov uning "Navobig" ul-kalim" ("Nozik iboralar") asarini o'zbek tiliga tarjima qilib, 1992-yili Toshkentda chop qildirdi. Uvatov ushbu kitobchada Zamaxshariy ijodi va hayotiy faoliyatiga ham to'xtalib o'tadi.

Shu paytga qadar xorijiy mamlakatlarda Zamaxshariy she'riyatiga oid ba'zi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shular qatorida, jumladan, Hind Husayin Tohoni ham ko'rsatib o'tish o'rinnlidir<sup>281</sup>.

Garchand, ko'pgina olimlar Zamaxshariyni dinning mu'tazila oqimiga mansub degan fikrni ilgari surishsa-da, biroq uning o'z asarlarida ko'proq sunniylikni targ'ib qilishi va Hanafiy hamda shofiy mazhablariga nisbatan zo'r ehtirom bilan munosabatda bo'lishi, uning mu'tazililik qarashlarini chuqurroq tadqiq etish zaruratini tug'diradi.

So'zimizni muxtasar aylab, unga qisqacha xulosa yasaydigan bo'lsak, ko'rib chiqilgan

---

<sup>281</sup><sup>282</sup> "Mu'jam ul-udabo", V 274.

ma'lumotlar asosida Zamaxshariy hayoti va ijodiy faoliyati vatanimiz madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotida o'chmas iz qoldirganiga to'la ishonch hosil qilamiz. Shunday ekan, Zamaxshariy ma'naviy merosi ustida keng va chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish eng dolzarb masalalardan hisoblanib, bunday tadqiqotlar kelajakda ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

## ALI IBN IROQ AS SINNORIY

Yoqut Sinnoriy to'g'risidagi ma'lumotlarni ibn Arslonning "Xorazm tarixi"dan foydalanib yozgan. U "Abul Hasan al Xorazmiy 539 (1144-1145)-yilda Xorazmning Mezana qishlog'ida vafot etgan"<sup>282</sup> deb Abu Muhammad ibn Arslondan ko'chirma keltiradi. "Adiblar lug'ati"da Abul Hasan as Sinnoriy to'g'risida juda kam ma'lumot berilgan. Lug'atda ayttilishicha, u mufassir, faqiq, tilshunos va aruz ilmining tengsiz bilimdoni bo'lgan. U adab sohasida Jorulloh az Zamaxshariy bilan bitta ustozning qo'lida, ya'ni Abu Ali ad Darir an Naysaburiydan ta'lim olgan<sup>283</sup>. Demak, u Zamaxshariyning yaqin

---

<sup>283</sup> *Bu yerda yana Abu Ali an Naysaburiyga duch kelamiz. Bu esa avval aytganimizdek, Naysaburiyning 442 (1051)-yilda vafot etganligi to'g'risidagi shubhaning o'rini ekanligini tasdiqlaydi.*

salaflaridan biri bo‘lgan.

Lug‘atda keltirilgan ma’lumotlar, Abul Hasanning kamtargina hayot kechirganidan darak beradi. Fiqh bo‘yicha uning ustozi imom Abu Abdulloh al Vabariy bo‘ladi<sup>284</sup>. Keyinchalik u ilmini oshirish uchun Buxoroga boradi va u yerning mashhur ulamolaridan saboq olib yana Xorazmga (Urganchga) qaytib keladi. Yoqutning xabar berishicha, u ijtimoiy hayotda faol bo‘lib, ilm ahlining majlislarida, turli bahs-munozaralarda qatnashib turadi. Keyin negadir Urganchni tark etib, shahar atrofidagi Mezana qishlog‘iga ketib qoladi. U yerda jome masjidiga imomlik qila boshlaydi.

Yoqut uning faqat bittagina asarini aytib o‘tadi. “Shmarix ud durur fi tafsir ul qur‘an” (“Qur‘onning tafsirida durlar marjoni”) deb atalgan bu asar nomidan anglashilib turganidek, tafsirga oiddir. Yoqut ushbu asarning so‘ngidan shunday satrlarni keltiradi:

“Olloning ko‘magidan bo‘ldi hosil,  
Bitikning nihoyasi bizga vosil.  
Husn ukparidan darj etilgandur,  
Ma’nisi meva kabi yetilgandur”<sup>285</sup>.

---

<sup>284</sup> Abdul Xolik ibn Xomid Abu Abdulloh al Vabariy. U o‘sha paytlarda Xorazmda hanafiya mazhabining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan.

<sup>284</sup><sup>285</sup> “Mu‘jam ul udabo”, V 275.

<sup>285</sup> Muhammad ibn Abul Qosim Boyjun, Zamaxshariyning shogirdlaridan biri. U haqida alohida ma’lumot beramiz.

Yoqut maqola oxirida Abu Amru al Baqqol<sup>286</sup> uning voizligi to‘g‘risida aytgan rivoyati va yana bir necha satr she‘ridan parcha keltiradi.

Abul Hasan as-Sinnoriy hayoti va ijodi ham shu paytga qadar o‘rganilmagan edi. Boshqa tarixiy manbalarda u haqda ma’lumotlar kam. Faqat Hoji Xalifa uning lug‘atda zikr etilgan ushbu tafsirini ko‘rganini qayd etadi va uni “Tafsiri Xorazmiy” deb ataydi<sup>287</sup>.

Sinnoriy to‘g‘risidagi ma’lumotlar Hind Husayin Tohoda ham uchraydi<sup>288</sup>. Toho Suyutiyning “Bag‘iyatul vuot fi tabaqotul lug‘aviyin va an nahot” asarida ham u haqida ma’lumotlar uchrashini ta’kidlaydi<sup>289</sup>.

Bizda B. Vahobova lug‘atdagi ma’lumotlarni rus tiliga o‘girib, nashr ettirgan<sup>290</sup>.

---

<sup>286</sup><sup>287</sup> “Kashf az zunun”, 1309.

<sup>287</sup><sup>288</sup> “Al adib al arabi”, 64,75.

<sup>288</sup><sup>289</sup> Jamoliddin Abduraxmo as Suyuti (vafoti 911) (1505). *Ulug‘ alloma, eng sermahsul ijodkorlardan biri. Uning nomi qayd etilgan mazkur asari 1384 (1964)-yilda Xalabda chop etilgan.*

<sup>289</sup><sup>290</sup> В.Ваҳобова. Памятники арабоязичной биографической литературы, 212, 213; Извлечение из “Ириада” Якута (sb.st.материалы по истории и средней и центральной Азии X-XIX) Ташкент, ФАН, 1988 г.

<sup>290</sup>

## **ALI IBN MUHAMMAD AL IMRONIY**

Yoqut bu alloma haqida quyidagi xabarni beradi: “Ali ibn Muhammad al Imroniy xorazmlik mashhur alloma az Zamaxshariyning shogirdlaridan biri. Tilshunoslik bobida imom, “Fozillar hujjati” (“Hujjatul afozil”) va “Shayxlar faxri” (Faxrul mashoyix”) nomlari bilan ma’lum. Taxminan 560 (1164)-yilda vafot etgan” deb eslaydi uni Abu Muhammad ibn Arslon<sup>291</sup>.

Lug’atdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Imroniy o‘z davrining eng mashhur mutaffakkirlaridan bo‘lgan. U “adab sirlarini mukammal egallagan adiblar sayyidi, arab tilining zukko bilimdoni” bo‘lib, ko‘pgina ilm ahliga rahnamolik qilgan.

Yoqut uning yana uchta ustozining nomini aytib o‘tadi. “U “Xorazm faxri” (Zamaxshariy) va imom Abul Hasan Ali ibn Ahmad al Muhiyning o‘g‘li imom Umar at Tarjumoni hamda imom al Hasan ibn Sulaymon al Xo‘jandiy va qozi Abdulvojid

---

<sup>291</sup> 291 “Mu’jam ul udabo”, V 412.

Bokarjiy<sup>292</sup> va boshqalardan hadislar tingladi”<sup>293</sup>.

Imroniy uzoq umr ko'rib, oxirgi damlarini kulbasida o'tkazadi va ko'p vaqtini ilmga, shogirdlariga sarf qiladi.

Umuman, Yoqut Imroniyni faqat yaxshi so'zlar bilan eslab, uning ajoyib fazilatlarini to'la ko'rsatishga harakat qiladi. Lug'atda uning she'rlaridan parchalar keltirilgan. Bu she'riy parchalar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va xulafoi roshidinlar hamda sahobalar madh etilgan qasidalardir.

Yoqut lug'atda Imroniyning asarlar tasnif etganini aytadi va ulardan quyidagi uchtasini sanab o'tadi: “Kitob ul mavoze’ va al buldon”<sup>294</sup> (“Mavzelar va mamlakatlar kitobi”), “Kitab fi at tafsir ul kur'an” (“Qur'on tafsiri”), “Kitab ishtiqoq ul asma” (“Ismlarning kelib chiqishi haqida kitob”).

U “Kitab al mavoze vaal buldon” asaridan kichik she'riy parcha beradi:

*“Aruz ilmining ohangini ko'ryapsanmi?*

*Sen hech qachon u kabi bo'lomaysan.*

*To'g'ri she'rni qanchalik badnom qilishga urinmagin,*

---

<sup>292</sup> 292 *Bu allomalar haqida ma'lumotlar uchratmadik.*

<sup>293</sup> “Mu'jam ul udabo”. V 412.

<sup>294</sup> Vaxobova bu asarni “Kitob al manozil vaal buddon” deb bergan.  
Извлечение из “Иришада” Якума. 68.

*Unga zarar yetmaydi. Zero, u aruz  
mezonlaridan panoh topgan.*

*Hosil bo'lgan ilmni toptay olmaysan,*

*Sening javrashlaring so'ngaydir, Aruz emas!*<sup>295</sup>

Imroniy asarlari haqida ma'lumot Hoji Xalifada ham uchraydi. Faqat Hoji Xalifa bu asarlarning nomini sal boshqacharoq beradi. “Ishtiqoq asma’ ul mavoze va al buldon” (“Mavzelar va shaharlar nomlarining kelib chiqishi”) va “Tafsir ul hujjatul afozil” (“Fozillar hujjatining tafsiri”)<sup>296</sup>. Hoji Xalifa ko'rsatishicha, Imroniy asari Yoqut ta'kidlagandek, uchta emas, balki ikkita bo'lib chiqadi.

Hind Husayin Toho Imroniy haqida ham gapirib o'tgan va bu borada Yoqutdan tashqari Suyutiylasidan ham foydalanganini qayd etadi<sup>297</sup>. Ammo uning ma'lumotlaridan birorta qo'shimcha qiziqarli yangilik topmadik.

Zamaxshariyning iqtidorli shogirdi va uning ilm-u fan sohasidagi an'analarini davom ettirgan, rivojlantirgan Abul Hasan al Adib al Imroniy al Xorazmiy ma'naviy merosini o'qib o'rganish – bu o'tmish madaniyatimizning eng nodir qirralaridan birini kashf etishdir.

---

<sup>295</sup> “*Mujam ul udabo*”, V 414.

<sup>296</sup> “*Kashf az zunun*”. I 108, 308

<sup>297</sup> “*Al adib al arabi*”, 76.

## **MUHAMMAD IBN MUHAMMAD IBN ABDUL JALIL RASHIDUDDIN VATVOT**

U Yoqut ta'biri bilan aytganda “zamonasining kam uchraydigani va mo'jizasi, davrining noyob qobiliyatlisi va ajoyiboti, nazm va nasrda eng afzali, arab tilining nozik qirralarigacha his etuvchi allomalardan, nahv va adab sohibi”<sup>298</sup> Aytishlaricha, ba'zi paytlarda u bir vaqtning o'zida arab tilida boshqa bahrda va fors tilida boshqa bahrda she'r bitib, atrofdagilarni lol qoldirar ekan.

U nasab tomondan Umar ibn Hattob roziyalohu anhuga borib taqaladi. Yoqut uning tarjimayi holiga qisqacha to'xtaladi va “u Balxda tug'ilib, 573-yilda (1177) Xorazmda vafot etgan” deydi<sup>299</sup>. Biroq lug'atning birinchi va uchinchi jildlaridan ham u haqda qisqagina bo'lsa-da, qo'shimcha ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, Yoqut: “Xorazmshohning” “kotibul inshosi” Rashiduddin Muhammad ibn Abdul Jalil al Vatvot

---

<sup>298</sup> *“Mu'jam ul udabo”*, VII 91.

<sup>299</sup> *299 “Mu'jam ul udabo”*, VII 91.

shayx Abu Sa'd Odam ibn Ahmad al Hiraviyning shogirdi edi. Rashiduddin Balxdan Xorazmga borib, o'sha yerda yashab qoldi" deb ma'lumot beradi<sup>300</sup>. Keyingisi u bilan al Hasan al Kattonning yozishmalariga oid. Yoqut Marvdalik paytida ustozি Faxriddin Abul Muzaffar Abdul Muzaffar Abdurahim ibn Toj ul islom Abu Sa'd Sam'oniy unga Hasan al Kattonning Rashiduddin Vatvotga yozgan maktubini ko'rsatadi. Maktub mazmunidan ma'lum bo'lishicha, Katton Rashiduddin Vatvotni kitob o'g'irlashda ayblaydi. Shu o'rinda Vatvotning Kattonga yozgan javob maktubidan parcha keltiriladi. U Kattonning yozganlari mutlaqo asossizligi, minba'd bunday ishga qo'l urmaganini aytib, qattiq e'tiroz bildiradi.

Rashiduddin Vatvot hayoti hozircha o'z tadqiqotiga muntazir bo'lib turgan mavzulardan biri hisoblanadi. Garchi, bu borada so'nggi yillarda ba'zi ijodiy yantuqlar ko'zga tashlana boshlagan bo'lsa-da<sup>301</sup>, hali ilmiy doiralarda uning tug'ilgan yili

---

<sup>300</sup> "Mu'jam ul udabo", 1 32.

<sup>301</sup> Xorijda Rashiduddin Vatvot faoliyatiga oid bir qancha jiddin ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Arab mamlakatlari, Eron va Rossiyada uning bir qancha asardari chop etilgan. Jumladan, vatanimizda U.Uvatovning: Zamaxshariy. "Nozik iboralar", 17-23; Rashiduddin Vatvot Xorazmda, Sharqshunoslik, Toshkent, FAN,1991,189-195; B.Vaxobova. Памятники арабобаязичной биографической литературы, 46; kabi asarlarida u haqda ma'lumotlar uchraydi.

<sup>302</sup> "Nozik iboralar". 18; J.Hazratqulov. Rashid Vatvot adib, Sharqshunoslik, Toshkent, FAN, 1997-y. 194.

va vafoti to‘g‘risida keltirilgan turli sanalar o‘rtasidagi farqlarga chek qo‘yilib, bir to‘xtamga kelingan emas.

Yoqut bu holga o‘z munosabatini to‘la bildirmagan. Ya’ni u Rashiduddin Vatvotning tug‘ilgan vaqtida haqida hech narsa demaydi. Ammo bu borada hurmatli olimlarimizdan U.Uvatov va J.Hazratqulov uning 487 (1094)-yilda tug‘ilganligi to‘g‘risidagi fikrga moyilroqdirlar<sup>302</sup>. Biroq qat’iy emaslar va bu haqsa o‘z fikrlarini bildirishgan.

Bizning nazarimizda ham birinchi ko‘rsatilgan 1094-sana haqiqatga yaqinroqqa o‘xshaydi. Bunga dalilimiz Vatvot bilan Zamaxshariyning o‘zaro yozishmalaridir. Uvatovning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, Zamaxshariy 1120-yillar atrofida ikki va 1128-yildan boshlab uch yilcha Makkai mukarramada yashaydi. Agar Vatvot 114-116-yillar atrofida tug‘ilgan bo‘lsaydi, unda u Zamaxshariyning birinchi marta Makkaga borgan paytida 6-7 yosh va ikkinchisida 13-15 yoshlar chamasidagi murti nish urmagan bola bo‘lardi. Bu esa Zamaxshariy bilan uning o‘rtasidagi bu davrlarda yozishmalar sodir bo‘lganini shubha ostiga qo‘yadi. Uning vafotiga oid sanalarning turli-tumanligi ham Vatvot hayoti va ijodi yetarlicha

o'rganilmaganidan darak beradi<sup>303</sup>.

Yoqut Rashiduddin Vatvotning ijodiga to'xtalar ekan, uning ushbu asarlarni yozganini qayd etadi. "Xadoiq as sehr fi daqoiq ush-she'r" ("Nafis she'riyatining sehrli bo'stoni"), "Devon she'r" ("She'riy devon"), "Devon rasoil arabi" ("Arabiy risolalar devoni"), "Tuhfat us sodiq min kalom Abu Bakr as Siddiq" ("Do'stimga Abu Bakr Siddiq so'zlaridan tuhfa"), "Fasl ul xitob min kalom Umar ibn al Hattob" ("Umar ibn al Hattob so'zlaridan namunalar"), "Anas ul lixufon min kalom Usmon ibn Affon" ("Intiq qalbga Usmon ibn Affon so'zlaridan malham"), "Matlub ko'lli tolib min kalom Ali ibn Abu Tolib" ("Ali ibn Abu Tolibning barcha toliblar ko'nglidagini aytganlari").

Mazkur asarlarning uchtasi matbuotda nashr etilgan. Shulardan "Xadoiq as sehr fi daqoiq ush she'r" asarini N.Chalisova rus tiliga tarjima qilib, ilmiy izohlar bilan Moskvada chop ettirgan<sup>304</sup>.

Bu asar bilan birga Vatvotning "Devoni" Eronda ham nashr etilgan<sup>305</sup>. Shuningdek, uning

---

<sup>303</sup> *303 U.Uvatov Vatvot 1191-yilda vafot etgan deb hisoblaydi.* (*Rashiduddin Vatvot Xorazmda*, 113); *J.Hazratqulov uning vafotiga oid Yoqut keltirgan sanadan tashqari Davlatshoh Samarqandiy va Taqvudlin Koshikning 578 (1182)-yil deb ko'rsatgan sanasini keltiradi.* (*Rashid. Vatvot adib*, 194).

<sup>304</sup> *Рашид ад-дин Ватвот. Сади волиебства в тонкостях поэзии* Перевод с персидского, исследованы к комментарии Н.Ю.Чалисовой, М.. 1985. комментарии Н.Ю.Чалисовой, М.. 1985.

“majmua ar rasoil” (“Risolalar to‘plami”) asari 1315 (1897)-yilda Qoxirada bosmadan chiqqan<sup>306</sup>.

Ulug‘ alloma Hoji Xalifa yuqorida ko‘rsatilgan asarlarning keyingi to‘rttasini ko‘rganini yozib qoldirgan<sup>307</sup>.

Vahobova Rashiduddin Vatvotning Yoqut ko‘rsatgan barcha asarlarini bizning davrimizgacha yetib kelganini xabar qiladi<sup>308</sup>.

Yoqut lug‘atda Vatvotning ijodidan o’sha paytda Jurjon hokimi bo‘lgan Sadriddin ibn Nizomiddinga bag‘ishlab yozgan qasidasi va yana bir necha kichkina she’riy baytlari hamda ustozni Zamaxshariy vasf etilgan to‘rt satr she’r va unga yozgan risolasini keltiradi. O’sha to‘rt satrning mazmuni shunday:

*“Jorulloh tinim bilmay uning jamolini axtardi.*

*Uning oliy himmatiga hech narsa to‘sinq bo‘lolmadi.*

*U fazilatlar hosil qilishga shunday sho‘ng‘ib ketdiki,*

*Olloh Jorullohni taqdirlab, o‘ziga qo‘shni qilib oldi”<sup>309</sup>.*

Rashiduddin she’riyati va nasriy ijodining

---

<sup>306</sup> <sup>305</sup> Rashiduddin Vatvot. *Texron-Shoxobod. 1339. Gpnd Nafisiy tahririda chop etilgan;*

<sup>306</sup> Rashiduddin Vatvot. *Majmua ar rasoid. I-II jild. Qohira, 1315 (1897).*

<sup>307</sup> <sup>307</sup> “Kashfa zunnun”, 1.156.

<sup>308</sup> <sup>308</sup> Памятники арабоязичной биографической литературы, 218.

<sup>309</sup> “Mu‘jam ul udabo”, VII 91.

adabiy sharhiga Hind Husayin Toho tadqiqotida ham keng o'rin berilgan<sup>310</sup>.

Biz yuqorida qayd etib o'tgan ilmiy tadqiqotlar bu borada o'quvchida paydo bo'lgan barcha savollarga javob berolmasa-da, har qalay shu paytga qadar xalqimizga deyarli noma'lum bo'lgan ulug' bir tarixiy shaxsning insoniy fazilatlari va uning tarixda tutgan o'rni kabi jihatlari to'g'risida muayyan tasavvur uyg'otadi.

**AL QOSIM IBN AL HUSAYIN  
IBN MUHAMMAD ABU MUHAMMAD  
AL XORAZMIY**

"Adiblar lug'ati"dagi Qosim al Xorazmiy haqidagi ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki Yoqut al Hamaviy Xorazmga borganda u bilan shaxsan uchrashib, suhbatlashgan. "Men Xorazmda uning uyida bo'ldim. Uning qalbi hayot zavqi bilan to'lib toshgan, ruhi tetik, samimiy va quvnoq edi. Dilkash so'zлari bilan meni butunlay o'ziga rom etib qo'ydiki, na nazmda, na nasrda uni ifoda etishga qodirman. 616-yil zulqa'da oyida (8.01.1220-7.01.1220) Xorazmda uning uyida

---

<sup>310</sup> 310 "Al adib al arabi", 311-338, 418-436.

she’rlaridan o‘qib berishni so‘radim”<sup>311</sup>.

Afsuski, Qosim al Xorazmiy ham o‘scha davrlarda yashab o‘tgan ko‘pchilik allomalar singari bugungi kunda xalqimizga deyarli notanishdir. Holbuki, Yoqut bu ulug‘ adibning ijodidan, uning ilmidan hayratga tushib, uni “davrining ko‘z qarog‘i va zamonasi manglayida porlagan yulduz” deb, to‘lqinlanib ta’riflaydi.

Qosim al Xorazmiy haqidagi ma'lumotlar lug‘atda 9 sahifani (154-162) band etgan. Lug‘atda u 555-yil sha’bon oyining to‘qqizinchini kechasi (1160-yil 14-avgust) tavallud topgani aytildi. Manbalarda uning yoshlik davri to‘g‘risida ma'lumotlar juda kam. Yoqut bilan uning o‘rtasidagi suhbatga qaraganda u, balki Farg‘onada tug‘ilgan bo‘lishi ham mumkin. E’tibor bering, Yoqut undan mazhabini so‘raganda “Hanafiyman, lekin xorazmlik emasman” deb takrorlaydi u<sup>312</sup>. Shuningdek, u Yoqutga shayxul islom Rostoniyning o‘g‘illariga atab yozgan she’rini ham o‘qib beradi. Yoqut “Roston Marg‘ilon qishloqdaridan biri, Marg‘ilon Farg‘ona o‘lkasidagi shahar” deb bu joyning jo‘g‘rofiy o‘rni haqida izoh berib o‘tadi<sup>313</sup>.

---

<sup>311</sup> “Mujam ul udabo”, VI 155.

<sup>312</sup> <sup>312</sup> “Mu‘jam ul udabo”, VI 155.

<sup>313</sup> “Mu‘jam ul udabo”, VI 156. Bu joyni Toho joyni Toho hozirgi “Rishton” bo‘lsa kerak, deb taxmin qilali. (Al adib al arabi, 285).

Qosim al Xorazmiy ilm talabi bilan Buxoroga ham boradi.

U o'ta tirishqoqdik va adab sohasidagi g'aroyib iqtidori bilan u yerdagi ilm ahlining nazariga tushadi. Jumladan, Sadri Jahon uning iste'dodini qadrlab, yosh ilm tolibiga 70 dinor tuhfa qiladi. Shunday majlislarning birida Qosim al Xorazmiy Shahob al Xevaqiy nomli bir xorazmlik kimsani uchratib qoladi. “U Sulton Alining<sup>314</sup> yaqinlaridan biri edi” deydi u Yoqut bilan suhbat chog‘ida. Xevaqiy uni oyiga 10 dinor haq berib turish sharti bilan ishga taklif qiladi. Ammo Qosim bu taklifni rad etadi.

Qosim al Xorazmiyning yana qayerlarda bo‘lgani bizga qorong‘u. Biroq lug‘atda keltirilgan ma’lumotlar uning Xuroson, Iroq tomonlarda ham mashhur bo‘lganini ko‘rsatadi. U o‘lkalardagi adiblar hatto uni sharaflab uning sha’niga madhiyalar bitishgan.

Masalan, Yoqut xurosonliklarning quyidagi mazmundagi satrlaridan parcha keltiradi:

*“Olimlarning ulug‘vorligi faxru ziynat va go‘zallikkandir,*

---

<sup>314</sup> 314 Xorazmshoh El Arslon vafot etganda (1172) taxtini uning kichik o‘g‘li Sultonshoh Mahmud egallyaydi. Oqibatda onasi Alouddin Tekish bilan uning o‘rtasida taxta talash boshlanadi. Saltanat ma’lum muddat ikkiga bo‘linib qoladi. Faqat 1189-yilga kelib, Tekish o‘zini to‘liq Xorazmshoh deb e’lon qiladi. Sulton Ali, balki, o’sha Sultonshoh bo‘lishi ham mumkin.

*Hech qayerda ilmlar libosida turgan u kabi o'g'lонни ko'rmadim.*

*Shuhrat libosiga burkangan u o'g'lon, odamlarning afzali,*

*Qosim ibn al Husayindin o'zga emas”<sup>315</sup>.*

Bu madiha olis o'lkalardagi fozillar ahlining unga bo'lgan oliy ehtiromining namunasidir.

Yoqut Qosim al Xorazmiyni ko'rganda u qarib qolgan edi. “Men uni nuroniy, ulug'vor, to'ladan kelgan, harakat qilishga ojiz, keksaygan holda ko'rdim. Uning bo'ynida buqog'i bor edi” deb eslaydi u<sup>316</sup>.

Qosim al Xorazmiy shunchalik mashhur bo'lishiga qaramay, oddiygina hayot kechirgan. U Yoqutga ta'ma qilib, hali biron kimsani madh etmaganini aytadi. Yoqutning “Qanday qilib kun kechirayapsan?” degan savoliga u “Onamdan<sup>317</sup> faqat “as'hob va zaviya”<sup>318</sup> lar qanoat qiladigan biroz meros qolgan. Uni oz-ozdan sarflab, boriga shukr qilib yashayapman”<sup>319</sup> deb javob beradi.

---

<sup>315</sup> <sup>315</sup> “Mu'jam ul udabo”, VI 156.

<sup>316</sup> “Mu'jam ul udabo”, VI 155.

<sup>317</sup> *Bu so'z lug'atda “validati” muannas jinsida yozilgan. (Mu'jam ul udabo, VI 161). Hind Husayin Toho uni “validxu” - otasi, deb beradi. (Al adib al arabi, 284). Uvatov ham Tohoning ta'sirida ushbu jumlanı “Otamdan meros qolgan bir qadar mol-dunyo men uchun kifoya” deb tarjima qilgan. (“Donolardan saboqlar”, 38).*

<sup>318</sup> *O'sha davrlarda derveshlarni shunday deb atashgan.*

<sup>319</sup> “Mu'jam ul udabo”, VI 161.

Ma'lumki, ular uchrashgan paytlarda Chingizzon lashkari Buxoro ostonalariga yetib kelgan edi. Yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarni sezgan Yoqut shoshilinch ravishda Xorazmni tashlab chiqadi. Shu sababdan ham al Xorazmiyning taqdiri nima bilan tugagani haqda aniq ma'lumot uchramadi. Ammo Hoji Xalifa bu mashhur allomaning “tatarlar bosqini paytida 617 (1220)-yilda halok bo'lgan” deydi<sup>320</sup>.

Yoqut uning ijodi to‘g‘risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlarda Qosim al Xorazmiyning sermahsul ijodkor bo'lgani ko‘zga tashlanadi. Lug‘atda uning 18 ta asari sanab o‘tiladi. Ularning aksariyati til va adabiyotga tegishlidir. Shuningdek, ularning orasida boshqa asarlarga bitilgan sharhlar uning ijodida asosiy yo‘nalishlardan biri ekani ko‘zga tashlanadi. Ayni paytda uni dastlabki Zamaxshariyshunos deb atash mumkin. U Zamaxshariyning “Al mufassal” asariga “Al mujmar (“Qo‘r”), “Mufrad va al muallif” sharhi, “Unmuzaj” sharhi, “Ahoji Jorulloh” sharhi kabi asarlar bitgan. Uning yana al Ma’riyning “Saqt az Zind” (“Olov uchquni”) ga sharh, Haririyning “Maqomat”iga sharh, Utbiyning “Yaminiy”iga sharh

---

<sup>320</sup> *Kashf az zunun*, II 27. Agar bu yerda tatarlar bosqini deb Urganchgning istilo qilinishi nazarda tugilayotgan bo‘lsa, bu sana 618 (1221)-yil bo‘lishi kerak.

kabi asarlari ham bo'lgan. Ma'lumki, nomlari qayd etilgan bu asarlar orasida faqat Utbiyning "Yaminiy"i tarixiy asar bo'lib, qolganlari til va adabiyotga oiddir.

Lug'atda uning sharhlardan tashqari o'zi ham tilga oid "Li hujjat an sha'riy fi sharh alfozul fiqh" ("Fiqh so'zlari sharhida sha'riy dalillar"), "Ajoyib an nahv" ("Nahv ajoyibotlari"), "As sir fi al i'rob" ("O'zgarishlar siri"), "Sharh ul abniya" ("O'zgarmas shakllar sharhi"), "Az zavaya va al xabaya fi an nahv" ("Nahvning pinhon va to'ldirilmagan tomonlari"), adabiyotga tegishli "Xilvat ar riyoxin fi al muxazirot" ("Ma'ruzalardagi yashirin kuch-qudrat"), "Ujala as safar fi ash she'r" ("She'rni tez fursatda o'rganish"), "Badoi' al mulah" ("Go'zallik badiiyatlari") hamda "Al muxassilil muxsila fi al bayon" ("Notiqlikni o'rganishda hosil bo'lgan foydalar") kabi asarlar yozgani qayd etiladi. Boshqa tarixiy manbalarda Qosim al Xorazmiy haqida ma'lumotlar juda kam. Shayx Hoji Xalifa "Adiblar lug'ati"da ko'rsatilgan asarlardan 7 tasini ko'rganini aytadi<sup>321</sup>. Ular "Al majmar", "At tajmir", "Sharh unmuzaj", "Sharq maqomat", Sharq saqt az zind", "Sharq yaminiy" va "Badoi al mulax" asarlaridir.

Nemis olimi Karl Brokelman "Arabiynavis

adiblar lug‘ati”ga qo‘sishimcha asarida uning “Al tajmir”, “Sharh Hoji Jorulloh”, “Sharh saqt az zind”, “Sharh maqomat” asarlari nomlari uchrashi ularning bizning davrimizgacha yetib kelganini bildiradi<sup>322</sup>.

Yoqut lug‘atda uning she’rlaridan bir qancha namunalar beradi. Ularning orasida yuqorida aytib o’tganimizdek, boshqalarning unga atab yozgan she’rlari ham uchraydi. Uning Bag‘dodlik do’stiga yozgan maktubi ham keltirilgan.

Lug‘atdagi bu badiiy parchalarga Hind Husayin Toho adabiy sharh yozgan. Shuningdek, uning hayotiga oid ma’lumotlarni ham ilmiy tadqiq etishga harakat qilgan<sup>323</sup>. Yoqutning mazkur maqolasi Toho foydalangan ma’lumotlarning o’zagini tashkil qiladi. Ammo Toho tadqiqotlarida ayrim chalkashliklarga yo’l qo‘yganki, buni biz izohlarda ko’rsatib o’tdik.<sup>324</sup>

O‘zbekistonda Qosim al-Xorazmiyga oid ilk tadqiqotlar B.Vahobovaga tegishlidir. Vahobova “Adiblar lug‘ati” dagi ma’lumotni rus tiliga tarjima qilib, unga qisqacha ilmiy sharh bergan<sup>325</sup>.

---

<sup>322</sup><sup>321</sup> “Kashf az zunun”, I 162, 188; II 27, 489, 496, 660.

<sup>322</sup> “Al adib ad arabi”, 276.

<sup>323</sup><sup>323</sup> “Al adib al arabi”, 271-293.

<sup>324</sup><sup>324</sup> 231, 232 izohlar qarang.

<sup>325</sup><sup>325</sup> 325 Памятники арабоязичной биографической литературы, 229-231, 232-235; Извлечение из “Иришада”, 70-72.

U. Uvatov “Donolardan saboqlar” risolasida u haqda “Sharq-u g‘arbning faxri” nomli maqolasini e’lon qilgan. Bu maqola Toho tadqiqoti bilan hamohangdir<sup>326</sup>.

## XULOSA

Tarixga nazar tashlasak yurtimiz hududlarida bugungi kungacha bashariyat faravonligi uchun xizmat qilgan bir necha ilmiy-madaniy markazlar faoliyat ko‘rsatganligining guvohi bo‘lamiz.

X asarning oxiri va XI asarning boshlarida Xorazmda hukmdorlik qilgan Ali ibn Ma’mun ibn Muhammad (997-1009) va Abu-l-Abbos Ma’mun ibn Muhammad Xorazmshohlar (1009- 1017) madaniyat ahliga alohida diqqat e’tibor qaratib, mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti va xalqning ma’murchilagini ta’minlashga harakat qilib, bu o’lkani o’sha davrning yirik madaniy markazlaridan biriga aylantirdilar. Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma’munning saroy a’yonlari, jumladan, vazirlari ham ilm ahlidan edi. Zero u xalifa al-Qodirdan “Davlat qarog‘i millat ziynati” unvonini olishga

---

<sup>326</sup> U.Uvatov. “Donolardan saboqlar”. Toshkent. A.Qodiriy. 1995-y. 15-38.

sazavor bo‘lgan edi.

O‘sha davrlarning hukmdorlari Ali ibn Ma’mun va uning ukasi Ma’mun ibn Ma’munlar yuritgan ijtimoiy iqtisodiy va mafkuraviy siyosatning taraqqiyatini ahamiyati va bunday siyosatning barqarorligi, ular xalq uchun xizmat qilganliga To‘g‘risida bir necha tarixiy manbalarda qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

Tadqiqotimiz manbai bo‘lgan Yoqut al Hamaviyning “Mo‘jam ul udabo” (“Adiblar lug‘ati”) asaridan tashqari Saolibiyning “Kitob lato’if al-ma’orifi” (“Ajoyib ma’lumotlar”), Al-Qiftiyning “Tarix al-Hukama” (“Donishmandlar tarixi”), Ibn Xallikonning “Vafoyot al-ayon va anba’ az-zamon” (“Mashhur kishilar vafoti va davr o‘g‘lonlari to‘g‘risida xabarlar”) kabi qo‘lyozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanilsa, X-XII asrlarda Xorazmda fanning barcha sohalari rivojlanganligining guvohi bo‘lamiz.

Ushbu manbalarni tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, tariximizning yopiq sahifalarini ochishda, ajdodlarimiz turmush madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **MUNDARIJA**

Muharrirdan.....	6
<b>I BOB.</b>	
<b>Yoqut Hamaviy sayyoh va olim.</b>	<b>14</b>
1. Hayotiga oid ma'lumotlar.....	.....
2. Yoqutning Xorazmga sayohati va ijodiy merosi.....	.....
<b>II BOB .</b>	
<b>Xorazm badiiy va ilmiy ijodiyoti Hamaviy nazdida.</b>	<b>38</b>
1. Badiiy ijod unsurlari talqinlari.....	44
Aruz.....	45
Qasida.....	46
Marsiya.....	47
Nujumiyot.....	.....
Nasr.....	50
Risola.....	54
2. Ilmiy faoliyat yo'nalishlari tavsifi.	58
Adabiyotshunoslik.....	64
	66
	68
150	69
	71
	74

Tarjima va sharhlar.....	
Tilshunoslik.....	
Lug‘atshunoslik.....	
Jo‘g‘rofiya.....	
Tarix va boshqa sohalar.....	
Diniy ilmlar. Hadis.....	
Tafsir.....	
Fiqh.....	

76

<b>III BOB.</b>	80
<b>Ma’naviy meros qirralari: Allomalar va kashfiyotlar.</b>	85
Abu Bakr Ahmad al Barqoniy .....	89
Abu Bakr Muhammad ibn al Abbas .....	92
al Xorazmiy .....	97
Muhammad ibn Abdulmulk al Qulsumiy .....	106
Ahmad ibn Muhammad as Saxriy Abul Fazl.....	108
Ahmad ibn Muhammad al Husayn as Suhayliy .....	110
al Xorazmiy .....	
Muhammad ibn Ahmad al Beruniy .....	115
Ahmad ibn Ibrohim al Adibiy .....	118
Ahmad ibn as Safariy al Xorazmiy .....	120
Al Hasan ibn al Muzaffar an Naysaburiy .....	
Mahmud ibn Jarir ad Dabbiy al Isfahoniy .....	121
Abumudar an Nahviy .....	129
Mahmud ibn Aziz al Arziy .....	132
Umar abu Hafs al Hasan .....	
	135
151	140
	147

Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Abul Qosim az	
Zamaxshariy.....	
Ali ibn Iroq as Sinnoriy.....	
Ali ibn Muhammad al Imroniy.....	
Muhammad ibn Muhammad ibn Abdul Jalil	
Rashiduddin Vatvot.....	
Al Qosim ibn al Husayin ibn Muhammad Abu	
Muhammad al Xorazmiy.....	
Xulosa.....	

## **QAYDLAR:**

*Ilmiy –ommabop nashr*

**Madamin Eshmurodov  
Isroil Elmurodov**

**X-XII ASRLAR XORAZM MADANIYATI  
YOQUT AL HAMAVIY TALQINIDA**

Muharrir:

H. Abdullayev

Texnik muharrir:

K. Nazarov

Musahhih:

J. Yusupov



Nashriyot  
TASDIQNOMA  
raqami:  
№152441

Bosishga 2024 yil 23 fevralda berildi.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.. «Cambria» garniturasida.  
Hajmi – 9,5 bosma taboq. Adadi - 100 dona.  
Buyurtma № 15. Bahosi kelishilgan narxda.

Ogahiy nashriyotida tayyorlandi.  
Manzil: Urganch shahri Al-Xorazmiy ko‘chasi. 23-uy  
“Shams nashr” matbaa korxonasida chop etildi.  
Manzil: Yangiariq t., “Gulshan diyor” k., 56-uy.